

N. SHARIPOV

XORIJIY MUSIQA ADABIYOTI

*Bolalar musiqa va san'at maktablari uchun
o'quv qo'llanma*



II KITOB

XORIJIY MUSIQA ADABIYOTI

II kitob

*Bolalar musiqa va san'at maktablari uchun
o'quv qo'llanma*

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ T'ALIMI VAZIRLIGI
SURXONDARYO VILOYATI
ANGOR TUMANI
9-BOLALAR MUSIQA VA
SAN'AT MAKTABI

20__y__

№ 107

Menzil: _____

TOSHKENT – 2014

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi Respublika Ta’lim markazi qoshidagi “Musiqqa madaniyati va san’at” Ilmiy-metodik kengash yig‘ilishining 2014 yil 28 mart 1-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

Tuzuvchi va tarjimon
N.SHARIPOV

Maxsus muharrir
M.ABROROVA

Taqrizchilar:

*San’atshunoslik fanlari nomzodi G.TURSUNOVA,
dotsent Z.TO‘YCHIEVA, S.YAKUBOVA, F. URMANOVA*

Mazkur o‘quv qo‘llanma rus musiqqa adabiyotini o‘rganishga bag‘ishlangan. Unda rus musiqqa san’ati haqida umumiy ma’lumotlar hamda rus kompozitorlari hayoti va ijodiga taalluqli ma’lumotlar, shuningdek, ular yaratgan asarlar tahlili beriladi.

O‘quv qo‘llanma Bolalar musiqqa va san’at maktablari o‘quvchilari hamda o‘qituvchilariga mo‘ljallangan.

TUZUVCHIDAN

Mazkur o'quv qo'llanma Bolalar musiqa va san'at maktablari o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

O'quv qo'llanmada keltirilgan material XVIII asr rus musiqasi rivojlanish davridan boshlab to P.Chaykovskiy ijodigacha bo'lgan davrni qamrab olgan. XVIII va XIX asr boshlanishidagi rus musiqa madaniyati haqidagi ocherkdan keyin olti nafar eng yirik klassik kompozitorlarga bag'ishlangan boblar keladi. Har bir bob kompozitorning qisqacha hayotiy yo'li va dasturda ko'zda tutilgan asarlarining tahlilidan iborat.

O'quvchilarga qulaylik tug'dirish maqsadida nisbatan murakkabroq asarlar fortepiano uchun moslashtirilgan holda berildi. M.Musorgskiyning "Boris Godunov" operasi misollarining bir qismi N.Rimskiy-Korsakov tahririda keltirildi.

Bolalar musiqa va san'at maktablarida musiqa adabiyoti fanini o'rganish ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ega va bolalarning estetik rivojlanishiga, ularning dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi. Buyuk kompozitorlarning Vatanga, o'z xalqiga bo'lgan muhabbati, ularning hayot qiyinchiliklari bilan kurashdagi matonati va jasorati o'sib kelayotgan yosh avlod uchun yorqin namuna bo'lib xizmat qilishi lozim.

Mazkur o'quv qo'llanmani tuzishda hamda tarjima qilishda quyidagi nashrlardan foydalanildi:

В.Владимиров., А.Лагугин. Музыкальная литература. М.: Изд. "Музыка" – 1971.

И.Прохорова. Музыкальная литература зарубежных стран. М.: Изд. "Музыка" – 1986.

В.Галацкая. Музыкальная литература зарубежных стран. 1-выпуск. М.: Изд. "Музыка" – 2002.

Г.Жданова, И.Молчанова, И.Охалова. Музыкальная литература зарубежных стран. 2-шіл. М.: Изд. "Музыка" – 2002.

В.Галацкая. Музыкальная литература зарубежных стран. 3-шіл. М.: Изд. "Музыка" – 2004.

М.Шорникова. Музыкальная литература. Музыка ее формы и жанры. Ростов-на-Дону, "Феникс" – 2013.

М.Шорникова. Музыкальная литература. Развитие Западно-европейской музыки. Ростов-на-Дону, "Феникс" – 2013.

XVIII VA XIX ASR BIRINCHI YARMIDA RUS MUSIQASI

Rus musiqasi katta rivojlanish yo'lini bösib o'tdi. Rus musiqasi san'atining yuksalishiga M.Glinka, A.Dargomijskiy, A.Borodin, M.Musorgskiy, N.Rimskiy-Korsakov, P.Chaykovskiy, A.Skryabin, S.Raxmaninov, A.Glazunov va ko'plab boshqa buyuk kompozitorlar o'z hissalarini qo'shdilar. Yer kurrasining barcha mamlakatlarida ularning musiqasi yangrab, insonlar qalbida yorqin, olijanob va sof tuyg'ular uyg'otmoqda.

XIX asrda musiqasi madaniyatining gullab-yashnashi uning Rossiyadagi butun rivojlanish yo'li bilan tayyorlangan edi. Asrlar davomida xalqda musiqasi san'atining behaho namunalari tobora yig'ilib borardi. Xalq poetik va musiqasi ijodiyoti qadimdan mavjud bo'lib, unda xalqning butun hayoti va tarixi: uning urf-odat va marosimlari, mehnati va ozodlik uchun kurashi, uning umidlari hamda saodatli hayot haqidagi orzulari aks etdi. Xalq Stepan Razin, Yemelyan Pugachev va oddiy dehqonlar isyonlari hamda urushlari rahnamolari haqida ko'plab mardonavor va jiddiy qo'shiqlar yaratdi.

Buyuk rus shoiri A.S.Pushkin S.Razin va Ye.Pugachev haqidagi qo'shiqlarni yuqori baholagan. O'zining "Kapitan qizi" qissasida A.Pushkin "He шуми ты, мати зеленая дубравушка" ("Shovqin solma sen, yashil eman") qo'shig'ini keltiradi va u Ye.Pugachevning sevimli qo'shig'i bo'lganligi haqida hikoya qiladi. Rus klassik kompozitorlari xalq qo'shiqlarini asrab-avaylab to'plash va ulardan o'z ijodlarida foydalanishga katta e'tibor berdilar. Jumladan, M.Balakirev, N.Rimskiy-Korsakov, A.Lyadov – fortepiano jo'rligida ovoz uchun rus qo'shiqlari to'plamlarini yaratdilar. Ular o'z asarlarida ko'pincha rus ohanglaridan foydalanib, kuy bastalashda esa, rus qo'shiqlariga xos bo'lgan ohanglar, kuy aylanmalarini kiritdilar. M.Glinka va P.Chaykovskiy, A.Borodin va M.Musorgskiyning musiqasi aynan ajoyib

kuylarga boyligi, qo‘shiqqa yaqinligi tufayli keng tinglovchilar doirasiga tushunarlidir.

XVIII asrda akkordli garmonik jo‘rnavoqlik bilan, o‘zining ifodaviy xarakteri bo‘yicha yangi bo‘lgan, kundalik turmushda uchraydigan *shahar qo‘shig‘i* paydo bo‘ladi. O‘zining tuzilishi bo‘yicha oddiy bo‘lgan shahar qo‘shig‘i ko‘proq “dehqoncha” deb ataluvchi qadimiy xalq qo‘shig‘ining kuyi asosida vujudga kelishi bilan ular o‘rtasidagi aloqa namoyon bo‘ldi.

O‘sha yillarda Peterburgda ko‘pchilik kirishga qurbi yetadigan “Rossiya teatri” dong taratgan edi. Peterburg va Moskva teatrlari sahnasida E.Sandunova kabi iqtidorli rus artistlari o‘z san‘atini namoyish etishardi. Ajoyib (krepostnoy - huquqsiz) aktrisa Parasha Jemchugova graf B.P.Sheremetyev xonadoni teatrining bezagi edi (uning oddiy bo‘lmagan taqdiri haqida xalq orasida “Вечор поздно из лесочка” (“Kech bo‘lganda o‘rmondan”) qo‘shig‘i yaratilgan. Biroq rus aktyorlari va musiqachilari iqtidorlarini hisobga olish krepostnoy Rossiya sharoitida ko‘proq fojiviy tus olardi, ko‘pchilik musiqachilar bevaqt halok bo‘lardilar.

Musiqachilarning bunday og‘ir sharoitda huquqsiz ekanliklariga qaramasdan XVIII asrning oxirgi choragiga kelib Rossiyada mahalliy kompozitorlik maktabi shakllandi. Yosh kompozitorlar ta’sirchan romanslar yaratadilar va xalq qo‘shiqlarini qayta ishlaydilar, fortepiano va skripka uchun pyesalar, simfonik uverturalar, spektakllarga uverturalar va, nihoyat, operalar yozadilar. Ular orasida F.M.Dubyanskiy, M.S.Berezovskiy, D.S.Bortnyanskiy, Ye.I.Fomin, I.Ye.Xandoshkin va boshqalar bor edi. Ulardan ayrimlari haqida hikoya qilamiz.

Ye.I.Fomin – birinchi rus operasini yaratuvchilaridandir. Yevstigney Ipatyevich Fomin 1761– yilda Peterburg shahrida artilleriyachi-jangchi oilasida tug‘ildi. Olti yoshidan uni Badiiy akademiyaning musiqa sinflariga qabul qilishdi. Akademiyani zo‘r muvaffaqiyat bilan tugatgandan so‘ng, Ye.I.Fomin malaka

oshirish uchun Italiyaga yuboriladi. Bolonyada u taniqli kompozitor va nazariyachi padre Martini rahbarligida shug'ullanadi. Ye.I.Fomin erishgan yutuqlari yuqori baholandi. Xuddi V.Motsartni saylaganliklari kabi, uni ham Bolonya filarmoniya akademiyasi a'zoligiga saylashadi, bu esa har bir kompozitor uchun katta sharaf edi. Ye.I.Fomin Italiyada uch yil bo'ldi, keyin Rossiyaga qaytdi. Bu yerda uning sermahsul ijodiy faoliyati boshlandi. U operalar va dramatik spektakllarga musiqa yozadi. 1787 – yilda uning “Ямщики на подставе” (“Aravakashlar ot almashtirishda”) yoki “Игры невзначай” (“Tasodifiy o'yinlar”) operasining premyerasi bo'lib o'tadi. Bu operaning ajoyib qo'shiq va xorlarida aravakashlar hayoti, ularning qayg'u va quvonchlari aks ettirilgan. Operaning eng yaxshi sahifalari ichida xor uchun qayta ishlangan, cho'zib ijro etiladigan “Высоко сокол летает” (“Baland parvoz etar lochin”) xori va shu nomdagi qo'shig'ini keltirish mumkin. Operaning finalida “Во поле береза стояла” xorovod qo'shig'i ijodiy yondashilgan holda rivojlantirilgan. Opera uverturasi asosida “Капитанская дочь, не ходи гулять в полночь” (“Kapitan qizi, yarim kecha sayrga chiqma”) hazilona sho'x qo'shig'i yotadi.

Ye.I.Fomin ba'zi boshqa asarlarida, masalan “Новгородский богатырь Боеславич” (“Novgorodlik paxlavon Boeslavich”) operasida ham rus mavzulariga murojaat qiladi.

O'sha yillarda A.Ablesimovning “Мельник-колдун, обманщик и сват” (“Tegimonchi-sehrGAR, aldoqchi va sovchi”) komediyasi keng tanilgan edi. Uning asosida avval skripkachi M.Sokorlovskiy musiqa yaratdi. U ommalashib ketgan rus qo'shiqlari ohanglarini tanlab oldi va ularni orkestr jo'rligida kuylash uchun moslashtirdi. XVIII asr oxirida pyesa musiqasi qayta ishlandi va komediya haqiqiy hajviy operaga aylandi.

Aftidan, shu vaqtning o'zida sonata shaklidagi keng uvertura ham yaratilgan edi. "Tegirmonchi – sehrGAR" operasida yorqin va ifodaviy yakkaxon nomerlar ko'p bo'lib, misol tariqasida Filimonning "Вот спую такую песню" ("Shunday qo'shiq kuylayman") qo'shig'i, Anyutaning "Кабы я, млада, уверена была" ("Men yoshgina, o'zimga ishonganimda edi") ariyasi.

Ye.I.Fomin ijodining eng yaxshi namunasi uning qadimgi yunon mifologiyasi asosidagi "Orfey" melodramasidir, uning adabiy asosi rus dramaturgi Ya. Knyajinning fojiasida ajoyib tarzda qayta ishlangan. Dramatik rivojlanishga ega bo'lgan Ye.I.Fomin musiqasi XVIII asr rus simfonik musiqasining ajoyib namunasi.

Ye.I.Fomin asarlarining muvaffaqiyati uni moddiy ahvolini yaxshilanishiga yordam bermadi. Kompozitor tirikchilik o'tkazish uchun dars berish va jo'navozlik qilishga majbur bo'lardi. U - 1800 yil, atigi 39 yoshida bevaqt vafot etdi.

D.S.Bortnyanskiy - XVIII asrning iqtidorli kompozitoridir. Uning asosiy ijod sohasi xor musiqasi bo'lgan.

Dmitriy Stepanovich Bortnyanskiy 1751-yil, Ukrainaning Gluxovo shaharchasida tug'ildi. 1739-yilda bu shaharchada qo'shiqchilik maktabi ochilgan bo'lib, unda rus saroyi uchun xonandalar tayyorlanar edi. D.S.Bortnyanskiyni yetti yoshida Peterburgdagi Saroy qo'shiqchilari kapellasiga berishadi. Bolaning ajoyib ovozi va musiqiy iqtidori boshqalarni o'ziga tezda jalb qildi. D.S.Bortnyanskiy bolalik chog'laridanoq saroy opera spektakllarida qatnashardi. 1769-yilda u Italiyaga jo'nab ketdi, bu yerda u o'n yilga yaqin yashadi. Rossiyaga qaytganidan so'ng D.S.Bortnyanskiy saroy kapelmeysteri lavozimiga tayinlanadi, 1796-yilda esa saroy kapellasi direktori bo'ldi. Shu vaqtdan boshlab u o'zini faqat xor musiqasiga bag'ishladi. Bortnyanskiy xor kapellasiga ko'p kuch sarfladi, u bor kuchi bilan rus xonandalarini tayyorlash ishini yaxshilashga urindi. D.S.Bortnyanskiy kapellada o'ttiz yildan ortiq xizmat qildi. U 1825-yilda Peterburgda vafot etdi.

D.S.Bortnyanskiy operalar, xor uchun mahobatli asarlar va, bulardan tashqari, ko'plab cholg'u musiqasi: uverturalar, fortepiano uchun sonata va pyesalar, kamer asarlari yozdi. Uning fortepiano sonatalari hozirgi kungacha o'zining qiymatini yo'qotmagan. Ular o'zining shal'li bo'yicha tugallangan va bejirim bo'lib, musiqasi ohista, hotirjam kayfiyati, rivojlanishining ravonligi bilan ajralib turadi.

Boshqa rus musiqachisi – krepostnoylardan chiqqan iqtidorli skripkachi va kompozitor **Ivan Yevstafyevich Xandoshkin** (1747–1804) haqida juda oz ma'lumot saqlanib qolgan.

I.Ye.Xandoshkin – ajoyib skripkachi va gitarachi, rus shaharlari va chet ellarda o'sha davrning taniqli skripkachilari bilan muvaffaqiyatli musobaqalashib, ko'plab konsertlar bergan. I.Ye.Xandoshkin skripka cholg'usi uchun ilk rus sonatasini yaratuvchilaridandir. U skripka konsertlari ham yozdi. Uning bitta yoki ikkita skripka, fortepiano uchun variatsiyalari (masalan “Выйду ль я на реченьку” (“Men daryoga chiqsam”) qo'shig'i mavzusiga variatsiyalar).

D.S.Bortnyanskiy va I.Ye.Xandoshkin kamer va orkestr asarlari, shuningdek, Ye.I.Fomin va boshqa kompozitorlarning opera uverturalari XIX asr rus cholg'u musiqasi gullab-yashnashiga asos bo'ldi.

QO'SHIQ VA ROMANS

XVIII asr oxiri va XIX asr birinchi yarmidagi musiqa san'atida romans janri gullab-yashnadi. O'sha vaqtning ko'pchilik romanslari shahar turmush qo'shig'i bilan yaqindan bog'liq bo'lgan. O'zining tuzilishi bo'yicha ular ko'proq kuplet band-naqarot shaklini saqlagan holda xalq qo'shiqlaridan juda oz farq qilar edi. Ushbu "qo'shiq romanslari" fortepiano, arfa yoki gitara jo'rligida ijro etilardi. Xalq qo'shiqlari kabi romansda ham oddiy kishilarning o'y-xayollari, kayfiyati va kechinmalari aks etgan edi. Ularning eng yaxshilari og'zaki tarzda tarqalar, erkin talqin etilar va asta-sekin xalq qo'shiqlariga aylanib ketardi. Bunga misol qilib, F.M.Dubyanskiyning "Стонет сизый голубочек" ("Ingrar zangori kabutar"), A.Ye.Varlamovning "Красный сарафан" ("Qizil ko'ylak") qo'shiqlarini keltirish mumkin.

XIX asr birinchi yarmi rus romansining rivojlanishiga A.A.Alyabyev, A.Ye.Varlamov, A.L.Gurilyov, A.N.Verstovskiy, P.P.Bulaxov kabi kompozitorlar katta hissa qo'shdilar. Klassik kompozitorlar: M.I.Glinka va A.S.Dargomijskiy ijodida ham romans va kamer qo'shiq janri muhim o'rin egallaydi.

A. A. ALYABYEV

(1787–1851)

Aleksandr Aleksandrovich Alyabyev 1787–yilda Tobolsk shahrida tug'ildi. Ko'plab dvoryan bolalari kabi u maktabga bormasdan o'z uyida ta'lim oldi va keyinchalik Moskva universitetiga o'qishga kirdi. Tog' sohasiga taalluqli idorada xizmat qildi.

1812–yilgi Vatan urushida A.A.Alyabyev o‘z xohishiga ko‘ra rus armiyasi safiga kirdi va Parijgacha bo‘lgan jangovar yo‘lni bosib o‘tdi. Janglarda ishtirok etib, yaralandi va jangovar xizmatlari uchun ordeni bilan mukofotlandi. Urush tugagandan so‘ng Peterburgga qaytib, u ilg‘or rus ziyolilari vakillari bilan yaqinlashdi. Uning do‘stlari orasida A.S.Griboyedov, V.F.Odoyevskiy, bo‘lajak dekabrchilar: P.A.Muxanov, A.A.Bestujev-Marlinskiy bor edi. Dekabrchilarning g‘oyalari kompozitor qarashlari shakllanishida o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Peterburgda A.A.Alyabyev musiqa yozish bilan jiddiy shug‘ullana boshladi. Tez orada u teatr uchun musiqa, opera va romanslar muallifiga aylanib, mashhur bo‘lib ketadi. Kvartet va triolar yozadi. XIX asrning 20–yillarida rus shoiri A.Delvig so‘ziga yozilgan “Соловей” (“Bulbul”) qo‘shig‘i keng ommalashib ketdi. Bu qo‘shiq hozir ham konsert sahnasida jaranglaydi, tinglovchilar mehrini qozongan.

A.A.Alyabyev hayoti nohaqliklarga to‘la edi. 1825–yilda u qarta o‘yini vaqtidagi qotillikda nohaq ayblanib, hibsga olindi. Uni uch yil qamoqda ushlashdi. Nihoyat hukm chiqarildi: u barcha dvoryanlik huquqlaridan mahrum etilib, Sibirga surgun qilinadi. Aftidan, hukumat dekabrchilar bilan yaqin bo‘lgan odamdan qutulish niyatida edilar.

Og‘ir sinovlar A.A.Alyabyevni sindira olmadi. Sibirda u ko‘p ishlaydi, harbiy puflama sozlar orkestrini tuzadi, konsertlarda ishtirok etadi, romans va qo‘shiqlar (shu jumladan, o‘z tarjimaiy holi bilan bog‘liq “Irtish” romansi), shuningdek, simfonik va kamer asarlar yozadi.

Bir necha yil o‘tgandan so‘ng A.A.Alyabyev davolanish uchun Kavkazga borishga ruxsat oldi. Kavkaz tabiati kompozitorda katta taassurot qoldirdi. A.A.Alyabyev ko‘plab

kavkaz xalqlari qo‘shiqlarini tingladi va ayrimlarini yozib oldi, keyinchalik kavkaz mavzularida qator asarlar yaratdi (“Gruzincha qo‘shiq”, “Kabardincha qo‘shiq”, “Ammalat-bek” operasi, Pushkin poemasi asosida “Kavkaz asiri” melodramasi). A.A.Alyabyev shu vaqtning o‘zida ukrain xalq qo‘shiqlari to‘plami ustida ishladi. Keyinchalik, Orenburg shahrida yashay boshlaganida, A.A.Alyabyev boshqird xalq qo‘shiqlarini o‘rganish va to‘plash ishlarini davom ettirdi.

So‘nggi yillarda A.A.Alyabyev Moskvada norasmiy yashadi. Inqilobchi shoir N.P.Ogarev asarlari bilan tanishib, uning she‘rlariga bir nechta ajoyib qo‘shiq yozdi: “Qovoqxona”, “Kulba”, “Qishloq qorovuli”. Ularda rus xalqining og‘ir taqdiri aks etdi. A.A.Alyabyev 1851 yilda Moskvada vafot etdi.

“Соловей” (“Bulbul”) – A.A.Alyabyevning eng sevimli va keng tarqalgan qo‘shiqlaridan biridir. Undagi barcha jihatlar kamtarona va oddiy. Qo‘shiq boshlanishida fortepianoning gitara ohanglariga yaqin bo‘lgan jonli muqaddimasi jaranglaydi. Vokal partiyasining birinchi ohanglaridanoq o‘ziga maftun qiluvchi yumshoq, o‘ychan kuy quyilib keladi. Bu kuy keng va nozik tugallangan bo‘lib, o‘zining qat‘iy go‘zalligi, ta’sirchanligi bilan kishini rom qiladi. Rus xalq qo‘shiqlariga xos bo‘lgan minordan parallel majorga (re minor – fa major) og‘ish qo‘shiq sadosiga yorqinlik bag‘ishlaydi. Jonli naqarot ziddiyatli sadolanadi. U cholg‘u muqaddimasi musiqasiga qurilgan.

Bu qo‘shiqning ajoyib ijrochilari buyuk rus xonandasi A.V.Nejdanova, keyinroq esa qo‘shiqni passajlar va trellar bilan boyitgan V.V.Barsova, D.Ya.Pantofel-Nechetskayalar bo‘lishgan.

A. Ye. VARLAMOV

(1801–1848)

Aleksandr Yegorovich Varlamov 1801–yilda Moskvada, kichik amaldor, iste'foga chiqqan poruchik oilasida tug'ildi. Bolalik chog'idanoq eshitgan kuy va qo'shiqlarini skripka va gitarada chala boshladi. O'n yoshida uni Peterburg shahridagi Saroy qo'shiqchilar kapellasiga berishadi. Bolaning ajoyib ovozi va yorqin iqtidori kapella direktori D.S.Bortnyanskiyni qiziqtirib qo'yadi. U kichkina xonanda bilan alohida shug'ullana boshlaydi. A.Ye.Varlamov keyinchalik o'z o'qituvchisini minnatdorlik bilan eslaydi. Kapelladagi o'qishni tugatib, A.Ye.Varlamov Gaaga (Gollandiya) shahridagi rus elchilari cherkovida ashula o'qituvchisi lavozimida ishlay boshladi, lekin tez orada u Vataniga qaytib keldi. 1829–yildan boshlab u Peterburgda yashay boshladi. M.I.Glinka bilan tanishadi, uning xonadonida o'tkaziladigan musiqali kechalarda ishtirok etadi. Vaqt o'tishi bilan Moskva imperator teatrlari kapelmeysterining yordamchisi lavozimiga erishadi.

XIX asrning 30–yillarida A.Ye.Varlamov romans va qo'shiqlari asta-sekin tanilib boradi. Mazmuni bo'yicha ular turli-tuman. Ular orasida keng, bepoyon, cho'zib aytiladigan rus xalq qo'shiqlariga o'xshash (“Ах ты время, времечко” (“Oh vaqt, sen vaqt”)), o'ychan fikrli “Горные вершины” (Tog' cho'qqilari”), “Тяжело, не стало силы” (“Og'ir, mador qolmadi”)) yoki qizg'in, mardona (“Вдоль по улице метелица метет” (“Ko'cha bo'ylab qorli izg'irin kezar”), “Песня разбойника” (“Qaroqchi qo'shig'i”), “Вверх по Волге” (“Volga bo'ylab yuqoriga”)) qo'shiqlari bor.

A.Ye.Varlamov qo'shiqlari samimiy va oddiy bo'lib, ular XIX asrning 30–yillarida rus odamlarining turmushdan qoniqmaslik, yaxshi kelajakka umid qilish va kurashga intilish kabi kechinmalarini haqqoniy tarzda aks ettirdi. Uning “Река шумит” (“Shovqin solar daryo”) va “Белеет парус одинокий” (“Oqarib ko'rinar yolg'iz yelkan”) qo'shiqlari shular jumlasidandir.

“Белеет парус одинокий” romansi M.Yu.Lermontov so'ziga yozilgan. Kompozitor musiqada she'rdagi keskin shiddat, baxtga chanqoqlik, uning uchun kurashga shaylik kayfiyatini juda yaxshi ko'rsatib bergan. Romans jo'rnavozligi ispancha raqs: boleroning qizg'in ritmida yozilgan.

A.Ye.Varlamov 150 dan ortiq romans va qo'shiqlar, konsertda ijro etish uchun qayta ishlangan rus xalq qo'shiqlari, “Qo'shiq kuylash” darsligini yaratdi.

A.L.GURILYOV (1803–1858)

Aleksandr Lvovich Gurilyov 1803–yilda Moskvada tug'ildi. Otasi graf A.G.Orlovning krepostnoy orkestri musiqachisi bo'lib, ushbu orkestrga rahbarlik qilardi. A.L.Gurilyovning birinchi o'qituvchisi otasi bo'ldi. Bola go'dakligidan krepostnoy orkestrda skripkada chalardi. Graf A.G.Orlov farzandlari bilan birgalikda ko'p yillar davomida Rossiyada yashagan irlandiyalik mashhur pianinochi va kompozitor Jon Filddan fortepiano darslarini oldi. U kompozitor I.I.Genishtada o'qidi.

Krepostnoylik holatidagi kamsitishlar va og'ir kechgan o'smirlik A.L.Gurilyov xarakteriga ta'sir qildi. Faqat 1831–yilga kelib u va otasi ozod bo'lishdi. Yosh musiqachi ko'plab

asarlari yozadi, dars beradi, konsertlarda chiqadi. A.Ye.Varlamov bilan o'rtalaridagi do'stlik A.L.Gurilyov uchun katta ahamiyatga ega edi, ularning birga bo'lishlari A.L.Gurilyovni yolg'izlikdan saqlab turardi. A.Ye.Varlamovning "На заре ты ее не буди" ("Sen uni saharlab uyg'otma") qo'shig'i kuyiga A.L.Gurilyov ajoyib fortepiano variatsiyalarini yozdi. A.L.Gurilyovning hayoti oson kechmadi. Hayotdagi og'ir vaziyatlar uning jiddiy ruhiy kasalga chalinishiga sabab bo'ib, shu kasallikdan u 1858-yilda vafot etdi.

A.L.Gurilyov ko'proq rus qo'shiq va romanslari muallifi sifatida shuhrat qozongan edi. A.L.Gurilyovning barcha asarlari – bu "rus qo'shig'i"mi, qayta ishlangan xalq qo'shiqlarimi yoki fortepiano uchun pyesalarimi – o'zining dilkashligi, samimiyligi, iliqligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, uning "Матушка-голубушка" ("Jonim onam"), "Вьется ласточка сизокрылая" ("Ko'k qanotli qaldirg'och uchar"), "Разлука" ("Ayriliq"), "Колокольчик" ("Qo'ng'iroqcha") qo'shiqlari tinglovchilarning mehrini qozondi.

A.L.Gurilyovning ko'plab romans va qo'shiqlari mazurka, polka, valsning raqsona ritmlariga asoslangan. Chunonchi, "Домик крошечка" ("Mitti uycha") qo'shig'ining kuyi g'ayratli, o'ynoqi vals xarakterida. Aksincha, "Колокольчик" va "Вьется ласточка сизокрылая" qo'shiqlariga mayin valsning dilkash ohanglari va ravon ritmi xosdir.

"Колокольчик" ("Qo'ng'iroqcha") qo'shig'i xalq qo'shig'iga aylanib ketdi. U shoirona xarakterda, samimiy tuyg'u bilan yo'g'rilgan. Yo'l uzoq va uning oxiri ko'rinmaydi. Aravakashning qo'shig'i mungli va o'ychan bo'lib, qo'ng'iroqchalarning jarangi eshitaladi. Kuy vals ritmida

rivojlanadi. Boshlanishdagi ravon va o'ychan kuy oxirida dramatik avjga erishadi.

A.A.Alyabyev, A.Ye.Varlamov va A.L.Gurilyov ijodi rus musiqasi xazinasidagi qimmatli boylikdir. Ularning eng yaxshi qo'shiq va romanslari xonanda va turli xor jamoalari dasturidan o'rin oldi, bu asarlar hozirda ham xalq orasida mashhur.

Savol va topshiriqlar

1. XVII asrdagi siz bilgan musiqali komediyalar va ilk rus operalar nomlarini aytib bering.

2. Kompozitorlar: Ye.I.Fomin, I.Ye.Xandoshkin va D.S.Bortnyanskiy haqida so'zlab bering. Ular qanday asarlar yozishgan?

3. XIX asrning birinchi yarmidagi eng mashhur romans va qo'shiqlar mualliflar nomlarini ayting.

4. A.A.Alyabyev, A.Ye.Varlamov va A.L.Gurilyov qo'shiqlari kuylarini eslang va ularni chalishga harakat qiling.

MIXAIL IVANOVICH GLINKA

(1804–1857)



M.I.Glinka – buyuk rus kompozitori, she'riyatda Pushkin kabi, u rus klassik – opera va simfonik musiqasining asoschisi bo'lgan.

M.I.Glinkaning iqtidori o'sha davr inqilobiy-ozodlik g'oyalari rivojlanishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan rus madaniyatining yuqori cho'qqiga ko'tarilish davrida shakllandi. 1812–yil Vatan urushi voqealarining tengdoshi bo'lgan M.I.Glinka o'zining “Ivan Susanin” nomli vatanparvarlik operasida xalqning o'z ona yurti tarixidagi buyuk ahamiyatini ko'rsatib berdi.

M.I.Glinka musiqasining manbalari rus xalq ijodiyotiga borib taqaladi. Uning asarlari vatanga, o'z xalqiga, rus tabiatiga muhabbat bilan yo'g'rilgan.

HAYOT YO'LI

1804–yil 20–mayda Smolensk guberniyasining Novospasskiy qishlog'ida keyinchalik ajoyib musiqachi, rus musiqasining iftixoriga aylangan bola tug'ildi. U bolalik chog'ida nimjon va kasalmand edi. Hayotining birinchi yillarini bola iste'fodagi kapitan otasining yer-mulkida, Smolensk yurtining qishloq tabiati qo'ynida o'tkazdi. Bu yerda xalq qo'shig'i bilan tanishdi, uni sevdi, u qo'shiqlarni uzoq vaqt tinglashdan charchamasdi.

Uni samimiy va sidqidildan yaxshi ko'radigan krepostnoy enaga Avdotya Ivanovna aytib beradigan ertaklar kichkina Glinkaning ta'sirchan qalbida chuqur o'rnish qoldi.

1812–yil voqealari M.I.Glinkada katta taassurot qoldirdi. Napoleon armiyasining bosqinidan qutulish maqsadida M.I.Glinka oilasi yer-mulkini tashlab ketishga majbur bo'ldi. Bola partizanlarning qahramonligi haqida ko'plab hikoyalar eshitdi va yuragida rus xalqiga, uning qudratli kuchiga hamda qalb go'zalligiga abadiy muhabbat va hurmat paydo bo'ldi.

M.I.Glinka qarindoshlari xonadonida musiqa doimo jaranglab turardi. Ular yaqinida yashovchi amakisining krepostnoy musiqachilardan tashkil topgan yaxshi orkestri bor edi. Musiqa bolani larzaga solar, konsertlardan so'ng u parishonxotir holda yurardi. “Musiqa – mening qalbm”,– dedi u bir kuni. Amakisining krepostnoy orkestri turli asarlarni ijro etardi. Ular orasida rus qo'shiqlari ham bor edi. M.I.Glinka o'zining bolalikdagi taassurotlarini eslab shunday yozgan edi: “...balki bolalik vaqtimda eshitgan bu qo'shiqlar kelajakda men asosan rus xalq musiqasini qayta ishlashimga asosiy sabab bo'lgandir”.

Krepostnoy orkestrning har bir kelishi bola uchun bayramga aylanib ketardi. Kichkina Glinka skripka (u skripkada chalishni krepostnoy musiqachilarining biridan o'rganardi) yoki fleyta cholg'usi bilan musiqachilar yoniga o'tirib olib, eshitganlarini ular bilan qo'shilishib chalar edi. “Otam ko'pincha mehmonlarni tashlab ketishim va raqsga tushmasligimdan mendan xafa bo'lardi, – keyinchalik eslardi M.I.Glinka, – lekin birinchi imkoniyat paydo bo'lgandayoq men yana orkestr yoniga qaytib kelardim”.

Tez orada ular xonadonida gubernant ayol – V. F. Klammer paydo bo'ldi. Glinka u bilan geografiya, rus, fransuz va nemis tillari, shuningdek fortepianoda chalish bilan shug'ullana boshladi. Bolaning o'qishi oson kechdi, ayniqsa uning tillarni o'rganish va rasm chizishga bo'lgan iqtidori yorqin namoyon bo'ldi.

1817–1822–yillarda M.I.Glinka Peterburgda Bosh pedagogik institut qoshidagi Olijanob pansionda o'qidi. Bu pansion eng yaxshi ta'lim muassasasi hisoblanardi. O'quv dargohidagi o'qituvchilar orasida A.Kunitsin (Pushkin sevgan o'qituvchilaridan biri), krepostnoylikka qarshi bo'lgan geografiya professori K.Arsenyev kabi iqtidorli insonlar bor edi. M.I.Glinkaning og'zaki rus tili o'qituvchisi va tarbiyachisi, Pushkinning do'sti, bo'lajak dekabrchi V.Kyuxelbeker edi. V.Kyuxelbeker "sezish va mushohada qilish"ga o'rgatardi. M.I.Glinkada o'z xalqiga bo'lgan muhabbat va hurmat, unga sodiq xizmat qilish hissini aynan Kyuxelbeker shakllantirganligiga shubha yo'q. M.I.Glinka bilan bir xonada Pushkinning ukasi Lev Sergeyeovich yashardi. U sababli M.I.Glinka buyuk rus shoiri bilan tanishdi, Pushkin o'smirlik chog'ida litseyda birga o'qigan V.Kyuxelbeker va ukasini ko'rishga bu yerga kelib turardi. O'sha kezlariyoq M.I.Glinka Pushkin she'rlarini berilib o'qirdi. Bu yillarda u musiqa bilan ham jiddiy shug'ullanardi, fortepianoda chalish va musiqa nazariyasidan dars olardi. Taniqli pianinochi Jon Filddan olgan uchta dars unda chuqur taassurot qoldirdi. M.I.Glinka lotin, fransuz, nemis, ingliz va fors tillarini muvaffaqiyat bilan o'rganardi. Tez-tez teatrga borib, opera va balet tomosha qilishga qiziqardi. Yozgi ta'til kunlarida tinmasdan qarindoshining krepostnoy orkestriga dirijorlik qilib shug'ullanardi.

Pansionni tugatgandan so'ng M.I.Glinka aloqa yo'llari idorasiga ishga kirdi. Biroq xizmat unga og'irlik qilardi: ish uni musiqa bilan shug'ullanishiga, ijod qilishiga xalaqit berardi. Tez orada u iste'foga chiqdi.

Peterburgda Glinka ilg'or ziyolilar bilan yaqinlashadi, shoir A.Delvig tashkil qilgan kechalarda qatnashadi, V.A.Jukovskiy va A.S.Griboyedov bilan tanishadi. Bu vaqtga kelib u ko'plab fortepiano pyesalari va romanslar muallifi edi. Chunonchi, 1825–yilda u "Бедный певец" ("Qashshoq xonanda") va "He

искушай” (“Meni sinama”) elegiyasini yozdi. Yosh Glinkada Kavkazga qilgan safari katta taassurot qoldirdi, u yerga kompozitor ma’danli suvda davolanish maqsadida borgan edi.

1830–yil 25–aprelda M.I.Glinka Italiyaga jo’nab ketadi. Kompozitor bu safar haqida anchadan beri orzu qilar edi. Italiyaning iliq iqlimi uning putur yetgan sog’ligiga yordam qilishiga umid bog’lagandi.

M.I.Glinka Italiyada qo’shiq kuylash bilan qiziqib shug’ullandi, tez-tez teatrqa tashrif buyurib, o’sha davr operalarini maroq bilan tinglar, mohir qo’shiqchilar va kompozitorlar bilan tanishar, italiyancha yo’nalishda qator ariyalar yozardi. Italiyada to’rt yilga yaqin yashab, M.I.Glinka Germaniyaga jo’naydi. Berlinda u iqtidorli nemis nazariyotchisi Zigfrid Den bilan tanishadi va besh oy davomida undan dars oladi. M.I.Glinkaning o’zi aytishicha, Den uning musiqiy-nazariy bilim va ko’nikmalarini tartibli tizimga tushirdi. Chet elda M.I.Glinka bir nechta yorqin romanslar (“Венецианская ночь” (“Venetsiya tuni”), “Победитель” (“G’olib”)), fortepiano, klarnet va fagot uchun “Patetik trio” va ko’plab boshqa asarlar yozdi. Vatandan olisda milliy opera yaratish g’oyasi tug’ildi.

1834–yilda Rossiyaga qaytib, M.I.Glinka Ivan Susaninning vatanparvarlik jasorati to’g’risida opera yozishga qiziqish bilan kirishib ketdi. Unga sujetni shoir V.A.Jukovskiy aytib berdi, lekin va’da qilganidek, librettoni yozib bermadi. Shunda M.I.Glinka baron E.Rozenga murojaat qilishiga to’g’ri keldi. Baron saroy ahliga yaqin bo’lib, uning qarashlari monarxiyaga moyil edi. E.Rozen tomonidan yozilgan libretto o’sha davr tuzumini sharafardi. Kompozitorning istagiga qarshi tarzda operani “Shoh uchun (qurbon etilgan) hayot” deb nomlashdi. Kompozitorning birlamchi g’oyasi boshqacha edi va M.I.Glinka ilk bor tuzgan rejaga ko’ra, “Ivan Susanin” operasi “milliy qahramonona-fojiaiviy opera” deb atalgan edi. O’z asarida

M.I.Glinka vatan uchun o‘z hayotini qurbon qilgan oddiy rus dehqonining qahramonona jasoratini sharafladi.

M.I.Glinka operasi 1836–yil 27–noyabrda Peterburgdagi Katta teatr sahnasida zo‘r muvaffaqiyat bilan qo‘yildi. Rus jamiyatining ilg‘or kishilari unga yuqori baho berdilar. Lekin aristokratik doira musiqani istehzo bilan “aravakashlar musiqasi” deb atadi.

M.I.Glinka uch yil davomida Saroy qo‘shiqchilar kapellasida kapelmeyster lavozimida xizmat qildi. U rus xor san‘atini rivojlantirish uchun ko‘p foydali ishlar qildi. M.I.Glinka yaxshi ovozli bolalarni kapellaga qabul qilish uchun o‘zi Ukrainaga bordi.

“Ivan Susanin”ning premyerasidan so‘ng kompozitor Pushkinning “Ruslan va Ludmila” poemasi sujetiga opera yozish g‘oyasi bilan qiziqib qoldi. Kompozitor unga librettoni Pushkinning o‘zi yozib berishini orzu qilardi, lekin shoirning bevaqt o‘limi bunga xalaqit berdi.

Libretto M.I.Glinka tuzgan reja bo‘yicha asta-sekin yaratildi. Pushkin poemasidagi she‘riy parchalar kompozitor do‘stlarining mohirona yozilgan she‘rlari bilan almashib turardi. Keyinroq havaskor shoir V. Shirkov librettoni tugal holatga keltirdi va uni yakunladi.

M.I.Glinkaning “Ruslan va Ludmila”si birinchi rus ertak-epik operasidir. U xalqona qahramonlik, dostonli epos ulug‘vorligi, vatanparvarlik bilan yo‘g‘rilgan. Opera finalida xalq nafaqat yovuz sehrgar Chernomorni yenggan shavkatli vityaz Ruslanni, balki shuningdek, qadimiy Kiyevning kuch-qudratini sharaflaydi.

Xalq qahramonligini kuylovchi “Ivan Susanin” operasiga voqealarning uzluksizligi va keskinligi xos bo‘lsa, Glinkaning ikkinchi operasi o‘zining ertakona sujeti, vazmin, ohista rivojlanish xususiyatlari bilan ajralib turadi. Butun opera bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan chiroyli sahnalarning almashinuvidan iborat. Kiyev knyazi ko‘shki ravonidagi

qadimgi rus to'yining ulug'vor sahnasidan keyin qahramonlarning goh uzoq shimoldagi (Ruslanning donishmand Finn va bahaybat Bosh bilan uchrashuvi), goh Naina va Chernomorning sehrli bog'laridagi sarguzashtlari bo'lib o'tadi. To'y dasturxonlari yozilgan Kiyev shahrida yangragan qudratli yakuniy xor asarni o'ziga xos tarzda tugallaydi.

Opera ustida ishlash besh yildan ko'proq vaqtga cho'zilib ketdi. Bu yillarda M.I.Glinka aristokratlar doirasini tark etib, N.Kukolnikning adabiyotchilar uyiga ko'chib o'tadi. Bu yerda u yozuvchilar, aktyorlar va musiqachilar bilan uchrashadi. Ayni shu vaqtda u N.Kukolnikning "Knyaz Xolmskiy" fojiasiga musiqa yaratadi (uvertura, simfonik antraktlar¹ va uchta qo'shiq, ulardan biri – "Ходит ветер у ворот" ("Darvoza yonida shamol kezar") – xalq qo'shig'iga aylanib ketgan). Shu davrning o'zida V.Jukovskiy so'ziga "Ночной смотр" ("Tungi ko'rik"), Pushkin so'zlariga "Я помню чудное мгновенье" ("Yodimda u ajoyib damlar") va "Ночной зефир" ("Tungi sabo"), "Сомненье" ("Shubha"), "Жаворонок" ("To'rg'ay") kabi M.I.Glinkaning sara vokal asarlari yaratildi. Chuqur qalb hissiyotlari ta'sirida fortepiano uchun yozilgan "Vals-fantaziya" keyinchalik orkestr uchun moslashtirilgan, 1856-yilda esa kengaytirilgan orkestr pyesasiga aylantirildi. 1842-yil 27-noyabrda, "Ivan Susanin" operasining birinchi marta qo'yilishidan roppa-rosa olti yil o'tgach, M.I.Glinkaning ikkinchi operasi "Ruslan va Ludmila"ning premyerasi bo'lib o'tdi. Ziyolilarning ilg'or vakillari M.I.Glinka buyuk asarining betakror go'zalligini haqqoniy baholay olishdi. Musiqa tanqidchisi V.F.Odoyevskiy yangi operaga bag'ishlangan shunday maqola bilan chiqdi: "Rus musiqa zaminida ajoyib gul unib chiqdi, u sizning quvonchingiz, sizning sharafingiz. Mayli qumursqalar uning novdasiga chiqib, unga dog' tushirishga harakat qilsinlar, – qumursqalar yerga qulab tushadilar, gul esa

¹ Антрактлар — spektakl pardalari oldidan ijro etiladigan, uncha katta bo'lmagan simfonik muqaddimalar.

qolaveradi. Uni asrang: u nozik gul va yuz yilda bir martagina gullaydi". Biroq saroy ahli operani sovuq qarshi oldi. Podshoning ukasi, buyuk knyaz Mixail Pavlovich aristokratik doiralar kayfiyatini yaxshi ifoda etdi: aybdor zobitlarni u gauptvaxtaga hibsga olish o'rniga jazo sifatida "Ruslan va Ludmila" tomoshasiga yuborardi.

Yaxshi mablag' tushishiga qaramasdan, operani tobora kam namoyish eta boshlashdi, keyinchalik esa umuman teatr repertuaridan olib tashlashdi. "Ivan Susanin" operasi ham eskirib ketgan dekoratsiyalar va liboslar bilan kamdan-kam qo'yilar edi.

1844-yilda M.I.Glinka Fransiya va Ispaniyaga jo'nab ketadi. Parijda M.I.Glinka fransuz kompozitori Gektor Berlioz bilan tanishadi. M.I.Glinka asarlaridan tuzilgan konsert katta muvaffaqiyat bilan o'tadi. M.I.Glinka Ispaniyada ikki yil bo'ldi. Uni ispan xalq musiqasi juda qiziqtirib qo'ydi. Kompozitor ispan xalq musiqachilari, gitarachilari bilan tanishdi, til o'rgandi, hatto kastanyetlar bilan raqsga tushishni o'rganib oldi. Ispan xalq raqslari yozuvlaridan foydalanib, Glinka 1845-yilda ajoyib simfonik asar – "Aragon xotasi" konsert uverturasini yozdi, Rossiyaga qaytgandan so'ng, 1848-yilda yana bir uvertura – "Madriddagi tun" paydo bo'ldi. Shu davrning o'zida ikki rus xalq qo'shig'i: nikoh to'yida aytiladigan lirik ("Из-за гор, гор высоких" ("Baland tog'lar ortidan")) qo'shig'i va sho'x raqs ashulasi mavzulariga "Kamarinskaya" simfonik fantaziyasi ham paydo bo'ldi.

Oxirgi yillar M.I.Glinka goh Peterburgda, gohida Varshava, Parij va Berlin shaharlarida yashadi. Kompozitorning ijodiy rejalari juda katta edi, lekin unga bo'lgan dushmanlik va ta'qib ijod qilishga xalaqit berardi. Boshlab qo'yilgan bir nechta partituralarni u yoqib yubordi.

Sevimli singlisi Ludmila Ivanovna Shestakova kompozitor hayotining so'nggi yillarida juda yaqin, sodiq do'sti bo'lib qoldi. Uning Olya ismli kichkina qizi uchun M.I.Glinka

o'zining ayrim fortepiano pyesalarini yaratdi. Kompozitor xonadonida shoirlar, yozuvchilar, aktyorlar va xonandalar, ilg'or musiqachilar to'planishardi. Uning huzuriga o'sha vaqtda o'zining "Rusalka" asarini tamomlayotgan A.S.Dargomijskiy, yosh musiqa tanqidchilari: A.N.Serov va V.V.Stasovlar kelib turishardi. Tez orada ular qatoriga keyinchalik "Moguchaya kuchka" ("Qudratli to'da")ning boshlig'i bo'lgan, iqtidorli yigitcha M.A.Balakirev kelib qo'shildi. M.A.Balakirev bilan tanishuvdan olgan taassuroti ostida M.I.Glinka singlisiga quyidagi mazmunda xat yozadi: "...Balakirevda musiqaga taalluqli bo'lgan barcha qarashlarining mening qarashlarimga juda yaqinligini ko'rdim... vaqt o'tishi bilan u ikkinchi M.I.Glinka bo'ladi".

M.I.Glinka 1857-yilda Berlinda vafot etdi. Uning xokini Peterburgga olib kelib dafn etishdi.

Akasining o'limidan keyin L.I.Shestakova o'zining butun hayotini uning ijodini targ'ibot qilishga bag'ishladi. U M.I.Glinka izdoshlari – "Moguchaya kuchka" kompozitorlarining yaqin do'stiga aylandi.

Savol va topshiriqlar

- 1. M.I.Glinka hayotidagi asosiy voqealarni so'zlab bering.*
- 2. Buyuk rus kompozitori yashab ijod qilgan davrni tavsiflang.*
- 3. M.I.Glinka va A.S.Pushkin qanday shaxsiy va ijodiy munosabatlarda bo'lishgan?*
- 4. M.I.Glinkaning asosiy asarlarini sanab o'ting.*

“IVAN SUSANIN”

M.I.Glinkaning “Ivan Susanin” operasi qahramonona xalq musiqali dramasi. Rus sahnasida birinchi marta orasida so‘zlashuvlarsiz, uzluksiz musiqiy rivojlanishga asoslangan milliy opera qo‘yilgan edi.

Chet ellik bosqinchilar egallab olgan Rossiya uchun juda og‘ir kechgan 1612–yilda kostromalik dehqon Ivan Osipovich Susaninning qahramonona jasorati haqidagi rivoyat opera uchun sujet sifatida xizmat qildi. Polsha askarlari Moskvadan quvib chiqarilgan, biroq uning ba‘zi otryadlari mamlakat bo‘ylab izg‘ib yurardi. Shunday otryadlardan biri Ivan Susanin yashaydigan Domnino qishlog‘iga kelib qoladi. Susanin yo‘l ko‘rsatishga rozi bo‘ladi, lekin polyaklar otryadini o‘tib bo‘lmas changalzor botqoqlikka boshlab boradi va o‘zi ham o‘sha yerda halok bo‘ladi.

Kostromalik dehqonning jasorati dekabrchi-shoir I.Rileyevni ilhomlantiridi va u “Ivan Susanin” nomli asarni yozadi. I.Rileyev va M.I.Glinka oddiy insonning qahramonona harakatida ona yer ozodligi uchun jonini berishga tayyor bo‘lgan butun rus xalqining kuchi va vatanparvarligi namoyon bo‘lganligini ko‘rishdi.

Operada to‘rtta parda va epilog bor.

Birinchi parda Susanin qizi Antonida va asrandi o‘g‘li Vanya bilan yashaydigan Domnino qishlog‘idagi sahnadan boshlanadi. Antonida Vatanini dushmanlardan himoya qilishga ketgan qallig‘i – askar Sobininni kutadi. Susanin e‘tiroz bildiradi: “Nikoh haqida fol ochish cheksiz kulfat keltirar”. Askarlar otryadi bilan Sobinin keladi, u dehqonlarga Minin va Pojarskiy boshchiligidagi rus jangchilarining muvaffaqiyati to‘g‘risida so‘zlaydi. Endi nikoh to‘yini qilsa ham bo‘ladi. Ivan Susanin Sobinin va Antonidaga oq fотиha beradi.

Birinchi parda – rus xalqi va asar asosiy qahramonlarining tavsifidan iborat. U xor ijrosidagi keng *introduksiya*² bilan bogshlanadi. U ikkita – erkaklar va ayollar xoridan tashkil topgan. M.I.Glinka soʻzlari bilan aytganda, erkaklar xori “rus xalqining fidokorona botirligini” namoyish etadi. Bu xorning jasoratli ohanglari rus xalq qoʻshiqlari – qadimiy botirlar va jangchilar qoʻshiqlariga yaqindir:

1

Tez *mf* Kuz jangchisi

По - ши - па - мо - г'

бу - ри - сти - ци - ту - го - в'

Ayollar xorining kuyi avval orkestrda va faqat keyinchalik esa ovozlar ijrosida paydo boʻladi. U jonli va yorqin boʻlib, bahorgi xorovod qoʻshiqlariga yaqin turadi. Uning keng va bir vaqtning oʻzidagi harakatli ohangi keyinchalik oyoqlarni yerga urish bilan raqsona odimga almashadi:

2

Tez *P*

На юв сво - еи род - ной стра - ны и - дут с - е сь - ны. Зо - ло -

гу - ю бра - гу, хлеб и мед пре - тво - но - сит нам ни - ред!


² *I n t r o d u k s i y a* – kirish. Operada bu parda voqealari boshlanishi oldidan ijro etiluvchi vokal ansambli yoki xor.

Introduksiyaning yakuniy qismi – katta xor fugasini tashkil qilib, erkaklar va ayollar xori qudratli kulminatsiya rivojlanishini tugatgach, ohanglari yagona o‘qimga birlashadi.

Introduksiyadan keyin keladigan *Antonidaning kavatina va rondosi*, rus qiziga xos bo‘lgan jil’atlar, jumladan, nozik his-tuyg‘ularni, samimiylilik, sadoqat, va soddalikni aks ettiradi:

3

Sekin




Му - ще - ст - во - му - не - ве - ст - ь
Что - то в те - бя - ест - ь не - то - го - го - ло - ва - ет

O‘ychan kavatina nafis o‘ynoqi rondo bilan almashadi. Musiqaning xarakteri – yorqin va xushchaqchaq – u qiz orzularining shoirona dunyosini ochib beradi:

4

Tez



Сча - ст - ь - ч и не - ве - сто - ют, до - в - е - ст - ь не - ве - ст - ь
гол! Око - ро серд - не в - сто - ют дру - же - лит - ь мыл - мой

“He томи, родимый” triosi Sobinin va Antonidaning qayg‘uli kechinmalarini ifodalaydi. Uning dilkash kuyi shahar turmush qo‘shiqularining ifodali ohanglari asosida tuzilgan. Shu kuyning o‘zi Susanin partiyasida ham sadolanadi. Har bir qo‘shiqchining alohida qo‘shiq jumalari imitatsiya hosil qilib, go‘yo jo‘r bo‘lgan holda, biri ikkinchisiga javob beradi:

5

Shoshilmadan
Sobinin



He - ро - ши, по - лу - ши, не - спе - ши не - ма!
То не о - спе - шит сме - зо - по - ро - ро - ло - ма!

Ikkinchi parda. Polsha qiroli Sigzmund qasrida dabdabali bal bo'Imoqda. Polyaklar o'z g'alabalaridan g'ururlanadilar va tez orada Rus yerlarini zabt etishlariga ishonadilar. Biroq chopar yetib keladi, u polshalik askarlarning yomon ahvolga tushib qolgani, Minin va Pojarskiy dushmanni tugal yakson qilish uchun xalq ko'ngillilar qo'shinini to'playotganligidan xabar beradi. Polyaklar sarosimaga tushadilar. Shu yerning o'zida yangi bosqinchilik rejasi paydo bo'ladi. Katta otryad yurishga otlanadi.

Butun ikkinchi parda birinchi pardaga nisbatan qarama-qarshidir. Undagi musiqali tavsiflar tamomila o'zgacha. Sodda, ko'ngilchan qo'shiqlar, xalq xorlari o'rniga asosan raqsbop musiqa sadolanadi. Oldinma-ketin to'rtta raqs ijro etiladi: dabdabali polonez, krakovyak, vals va mazurka, faqat polyakcha (vals bundan mustasno) raqslardan tashkil topgan o'ziga xos simfonik syuitani tashkil qiladi.

Parda dabdabali polonez bilan boshlanadi:

6


O'rtacha

Operaning dramatik rivojlanishida bal sahnasi katta ahamiyatga ega. Milliy raqslar musiqasida M.I.Glinka ko'plab yorqin va obrazli jihatlarni topdiki, ular mag'rur polshalik shlyaxtani³ ifodalab berdi. Polonez va mazurkaning bo'rttirilgan ritmik kuylari polyaklar paydo bo'lishida doim jo'r

³ Shlyaxta – Polshadagi mayda dvoryanlar.

bo'ladi, qudratli va sho'x mazurkaning ohanglari esa keyinroq (to'rtinchi pardada) o'zgartirilgan ko'rinishda kekkaygan polyak shlyaxtasiga o'zgacha ruhiy tavsif beradi.

7



Uchinchi parda. Ivan Susanin xonadonida Antonida va Sobinin to'ylariga hozirlik ko'rilmogda. To'satdan polyaklar paydo bo'lishadi, ular Susaninidan Moskvaga yo'l ko'rsatishini talab qiladilar. Susanin ularga bildirmasdan Vanyani rus otryadlarini xavfdan ogohlantirish uchun jo'natib yuboradi, o'zi esa, polyaklarni o'rmonning o'tib bo'lmas xilvat joylariga olib borishga qaror qiladi. To'y qo'shig'ini aytib Antonidaning dugonalari kelishadi. Kelinning ko'zlari yoshga to'lgan: qiz otasi uchun xavotirda. Sobinin kirib keladi. U dehqonlar bilan Susanin va polyaklar otryadini izlashga qaror qiladi.

Vanyaning "Как мать убили" ("Onamni o'ldirishdi") qo'shig'i uchinchi pardani ochib beradi va yetim bolaning musiqiy tavsifi sifatida xizmat qiladi. Vanya sodda va ko'ngilchan qo'shiq kuylaydi, unda tutingan otasiga bo'lgan minnatdorlik va sodiqligini izhor etadi. Vanyaning qo'shig'i rus xalq qo'shiqlariga yaqin:

O'ttacha tez

Как мать, убила у меня долго пещища,
о-сталася пещища сиротливая в лесу.

Keyin Susanin, Vanya, Antonida va Sobinin kvarteti sadolanadi. Oilaning do'stona, ohista va osuda suhbatlari polyaklar kelishi bilan buziladi: musiqada ikkinchi pardadagi polonez mavzusi paydo bo'ladi.

Susaninning polyaklar bilan sahnasi dramatik rivojlanuvchi ansamblning ajoyib namunasidir. Polyaklarning musiqali tavsifi polonez va mazurka ritmlarida sadolanadi. Susaninning xotirjam, g'ururga to'la javoblari unga xos bo'lgan vazminlik va jiddiylikni saqlab turadi. Uning musiqiy nutqi ulug'vor va tantanali. Susaninning polyaklarga qarata qilgan javoblari o'zini Vatan uchun qurbon qilishga tayyor insonning mag'rur so'zlari kabi jaranglaydi.

Susaninning "Велик и свят наш край родной" ("Она yurtimiz ulug' va aziz") xitobida opera finalidagi "Славься" ("Senga sharaf-shon") nomli xorning mavzusi paydo bo'ladi:

9


Ulug'vor

Велик и свят наш край родной. Блестят снега там,
где - толь. Над белым снегом дремлет
спящая Русь жемчужина своей. Москва украина наша.

Uning polyaklarga qarata "Страха не страшусь, смерти не боюсь, лягу за свякую Русь" ("Qo'rqmauman men, o'limdan

ham, aziz Rus uchun qurbon bo'laman") javobi introduksiyadagi erkaklar xori mavzusiga aşoslanadi:

10



Музыкальная запись для хора с двумя станами. Первый стан поет: Стру - на от стру - твост... Смер - ти. Второй стан поет: Не бо - юсь, я - вь шь сра - вь - ю Русь.

Susanin ketishidan oldin qizi bilan xayrlashadi. Bu yerdagi musiqa qayg'u va xavotirga to'la. "Разгулялися, разливались воды вешние по лугам" ("Bahor suvlari dalalar bo'ylab oqib, toshdilar") to'y (*nikoh*) xori yorqin qarama-qarshi sadolanadi, u operaning eng dramatik onlarini bo'rttirib ko'rsatadi. O'zining kuy tuzilishi bo'yicha xor rus to'ylaridagi sharaflovchi qo'shiqlarga yaqin turadi. Uning musiqasi yorqin va хотирjam. Xor rus qo'shiqlariga xos bo'lgan besh hissali o'lchovda berilgan; unda yarim tonlarsiz kuy aylanmalari ko'p:

11

Harakat bilan




Музыкальная запись для хора в 5/4 такте. Текст: Ра - вь - ют - ся - шь - сра - вь - ют - ся, ра - вь - ют - ся - шь - сра - вь - ют - ся, ра - вь - ют - ся - шь - сра - вь - ют - ся, ра - вь - ют - ся - шь - сра - вь - ют - ся.

Antonidaning "Не о том скорблю, подруженьки" ("Qayg'um u haqda emas, dugonajonlar") qo'shiq-romansi operaning eng shoirona sahifalaridandir. Uning kuyi sodda va dilkash bo'lib, xalq aytimlarining ta'sirchan ohanglari eshitilib turadi. Qo'shiq-romans Antonida qayg'usining naqadar chuqurligini ochib beradi va shu bilan qiz qalbining boyligini yanada yorqin namoyon etadi:

12

Chozmasdan



Музыкальная запись для хора с двумя станами. Первый стан поет: Не о том скорб - лю, по - дру - жень - ки, я не - ра - вь - ют - ся не о том, что мне. Второй стан поет: жа - ло ко - го де - вать - ей, что о - ста - влю от - чуж - дов?

To'rtinchi parda. Sobinin o'z odamlari bilan polshaliklar otryadi izlarini qidirib, qalin qor bosgan o'rmondan qiyinchilik bilan o'tib boradi.

Ko'ngilli askarlar va shaharliklar joylashgan monastir darvozasi. Kech tunda bu yerga Vanya yugurib keladi va qulflangan darvozani uzoq taqillatadi. Vanyaning "Бедный конь в поле пал" ("Bechora ot maydonda o'ldi") rechitativi hayajonga to'la. Undan so'ng uncha katta bo'lmagan kuychan ariya keladi. Nihoyat, darvoza ochiladi. Vanya polshaliklar otryadi haqida xabar beradi. Askarlar dushmanni izlashga o'tlanadilar.

O'tib bo'lmas o'rmon. Izg'irin sovuq. Susanin bu yerga polyaklarni boshlab kelgan. Polyaklarning mazurka ritmidagi xori dushman qo'shinining alamzada, ezilgan ahvolini yaxshi tasvirlaydi. Ular uyquga ketadilar. Susanin yaqinlashib kelayotgan o'limini sezadi va unga tayyor turadi. Bo'ron ko'tariladi. Polyaklar uyg'onadilar. Ular Susaninning bu yerga ataylab boshlab kelganini tushunadilar va uni o'ldiradilar.

Susanin rechitativi va ariyasi operaning eng keskin va dramatik lavhalaridan biridir. Aynan shu ariyada qahramon va vatanparvar Susanin obrazi tugal ochib beriladi. Uning "Чуют правду" ("Haqiqatni sezmoqdalar") ariyasi ruhiy hayajonga to'la ohangdor rechitativ bilan boshlanadi. Ushbu musiqa M.I.Glinka yaratgan eng ifodali qo'shiq deklamatsiyasi namunasidir:

13

Cho'zmasdan

Чу - ют прав - ду! Смерть близ - ка! Но не страп - на о -
на. свой долг ис - пол - нил я. При - ми мой прах, мать - зем - ля!

Susanin ohanglari avvalgidek vazmin, hotirjam va mardonavor sadolanadi. Rechitativdan keyin keladigan "Ты

взойдѣшь, моя заря” (“Sen chiqasan, mening shafaqim”) ariyasi g'amgin kayfiyatda yangraydi. Susanin o'limi yaqinligini sezadi, farzandlarini eslaydi, ular bilan xayolan vidolashadi va o'limga hozirlanadi. Kuy oddiy, ifodali va ohangdor:

14

Cho'zmasdan

5 Ты взо-йдѣшь мо-я зря-я. Надъ ми-ромъ свѣтъ про-лѣтъ. По-
слѣдъ стѣнъ рѣкъ нѣтъ. Ду-хомъ при-ветъ стѣмъ тѣмъ

Detailed description: This is a musical score for a vocal line. It consists of two staves. The top staff is a vocal line with a treble clef and a key signature of one flat (B-flat). The bottom staff is a piano accompaniment line with a bass clef. The music is in a 4/4 time signature. The lyrics are written below the vocal line. The score starts with a measure rest of 5 measures.

Susanin polshaliklarga: “Sizlarni hatto kulrang bo'ri oyog'i tegmagan joylarga olib keldim...”– deb keskin va mardonavor tarzda javob berib turgan vaqt yechim onlariga to'g'ri keladi. Bu so'zlar M.I.Glinkaning o'zi tomonidan librettoga kiritilgan edi. Orkestrda esa bu vaqtda “Вниз по матушке по Волге” (“Ona Volga bo'ylab pastga”) nomli mardonavor rus qo'shig'ining o'ziga xos kuy aylanmasi takrorlanib turadi:

15

Janti

Ты Susanin
Оркестр

5 Ты вѣдъ я вѣс къ-дѣ и се-рѣмъ
Тыкъ не ты-се-рѣмъ

Detailed description: This is a musical score for a vocal line. It consists of two staves. The top staff is a vocal line with a treble clef and a key signature of one flat (B-flat). The bottom staff is a piano accompaniment line with a bass clef. The music is in a 4/4 time signature. The lyrics are written below the vocal line. The score starts with a measure rest of 5 measures.

Epilog. Moskvadagi Qizil maydonda xalq dushmanlar ustidan qozonilgan g'alabani nishonlamoqda. Antonida va Vanya Sobinin bilan birga paydo bo'lishadi. Ular otasining fojiali halok bo'lganligi haqida so'zlashadi. Yakuniy “Славься” (“Shon-sharaf bo'lsin”) xorida xalq ona zamin va halok bo'lgan qahramonlarni, vatan ozodligi uchun kurashgan K.Minin va

D.Pojarskiy boshchiligidagi askarlarni sharaflaydi. Nisbatan jadal harakatga qaramasdan, xor musiqasi ulug'vor va tantanali yangraydi va bu unga madhiya xarakterini bag'ishlaydi. M.I.Glinkaning o'zi bu xorni madhiya-marsh deb atagan:

16

Tantanal. harakat bilan

Славь - ся славь - ся ты Русь ма - я! Славь - ся ты, рус - ская па - трям -

я - ля! Да - сть ми ра - ки ра - куя сел - ни лю -

сел - и ма - ра - куя отро - ни

“Ivan Susanin” operasi tarixiy voqealar to'g'risida haqqoniy va samimiy hikoya qiluvchi realistik asardir. Operaning musiqasi, tom ma'noda, milliy va kuychan. Operaning boshlanishi va tugashida katta xalq sahnalari: introduksiya va epilog mavjud. Bu narsa operaning asosiy qahramoni xalq ekanligidan darak beradi. Katta xor sahnalarida rus kishilarining kechinmalari aks ettirilgan. Xalqqa har taraflama tavsif berilgan bo'lib, uning qahramonligi, matonati, yuksak qalbligi ifodalangan.

M.I.Glinkaning “Ivan Susanin” hamda “Ruslan va Ludmila” operalari – rus musiqasining bebaho xazinasidir. Glinka tomonidag yaratilgan xalq musiqali dramasining yangi turi rus kompozitorlarining, ayniqsa, fojiviy-tarixiy operalari(Rimskiy-Korsakovning “Pskovlik ayol”, Musorgskiyning “Boris

Godunov”)ga o’zining ulkan ta’sirini o’tkazdi. “Ruslan va Ludmila” ertak-epik operasidan ilhomlanib Borodinning “Knyaz Igor”, Rimskiy-Korsakovning “Sadko” hamda “Ko’rinmas Kitej shaharchasi haqida rivoyat” kabi operalari yaratilgan.

Savol va topshiriqlar

1. M.I.Glinkaning “Ivan Susanin” operasi yaratilish tarixini so’zlab bering. Operaning asosiy g’oyasi, uning sujeti nimadan iborat?

2. Har bir parda mazmunini bayon eting va unga tavsif bering.

3. Operaning asosiy qahramonlari nomlarini ayting. Ularning qanday musiqali tavsif bilan ta’riflangan?

4. Asarning musiqasida xalq obrazi qanday talqin etilgan?

5. “Polshaliklar sahnasi”da polyaklarning musiqiy tavsifi nimalarga asoslangan?

6. Operaning keyingi pardalarida qaysi musiqiy mavzular o’z mohiyatini saqlab qoladi?

7. “Ivan Susanin” operasining tarixiy ahamiyati nimadan iborat?

ORKESTR UCHUN ASARLAR

M.I.Glinka ijodida simfonik orkestr uchun yozilgan asarlar muhim o’rin egallaydi. Yuqorida aytib o’tilganidek, Glinka bolalik chog’laridanoq orkestrni sevar, boshqa musiqalarga qaraganda ko’proq simfonik musiqaga mehr qo’ygan edi.

Glinkaning simfonik orkestr uchun eng ahamiyatli asarlari: “Kamarinskaya”, “Aragon xotasi”, “Madriddagi tun” ispan uverturalari va “Vals-fantaziya” simfonik skersosidir. Simfonik

konsertlar dasturiga ko'pincha M.I.Glinkaning ikkala operasi uverturalari. shuningdek, "Knyaz Xolmskiy" fojiasiga ajoyib musiqasi kiritiladi.

Opera ijodidagi kabi, simfonik ijodida ham M.I.Glinka o'zining badiiy tamoyillariga sodiq qoldi. Uning orkestr uchun yozilgan barcha asarlari yuksak badiiylikka ega va shakl jihatidan mukammal bo'lib, keng tinglovchilar ommasiga yaqinligi bilan ajralib turadi. M.I.Glinka zamonaviy garmonik til, dadil ifodaviy vositalari va yangi orkestr bo'yoqlarini obrazlarning soddaligi va tushunariligi bilan uyg'unlashtirgan holda musiqa bilimdonlari va oddiy ommaga yaqin bo'lgan asarlar yaratish mumkin degan fikrda edi. Oxirgi yillarda yaratgan simfonik asarlarida u doimiy ravishda xalq qo'shiqchiligi mavzulariga murojaat qilganligi bejiz emas. Lekin M.I.Glinka xalq qo'shiq mavzularini o'z asarlariga shundayligicha kiritmay, balki ularni kengaytirgan holda rivojlantirar va shu asosda musiqiy obrazlari hamda go'zal cholg'ulashtirish bo'yicha ajoyib asarlar yaratardi.


"Kamarinskaya" simfonik fantaziyasi (1848) navbat bilan rivojlantirilgan ikki rus xalq mavzusi asosidagi variatsiyalardan tashkil topgan. Bu mavzular bir-biriga qarama-qarshidir. Ulardan birinchisi – keng va ravon ijro etiladigan to'y marosim qo'shig'i "Из-за гор, гор высоких" ("Baland tog'lar ortidan"), kulrang g'ozlar – kuyovning qarindoshlari cho'qib tashlayotgan oqqush – kelin haqidagi qo'shiq:

17



Ikkinchi mavzu – sho'x rus raqsi "Kamarinskaya":

18



Birinchi qo‘shiqning ohangi vazmin, og‘ir, o‘ychan, lirik xarakterda. Variatsiyalashtirishda kuy o‘zgarmaydi, u cho‘zib ijro etiladigan rus qo‘shgiqlariga o‘xshash yangidan-yangi yordamchi ovozlari bilan boyitiladi. Mavzuni rivojlantirishda kompozitor cho‘pon nayi, jaleyka, dudka kabi rus xalq puflama cholg‘ulari ovoziga yaqin bo‘lgan yog‘och puflama cholg‘ularidan foydalanadi.

“Kamarinskaya” ohangi tez va quvnoq. Bu kuyning variatsiyalarida M.I.Glinka rus balalayka cholg‘usini eslatuvchi torli cholg‘ular pitstikosini ishlatadi. Variatsiyalashtirishda raqsona kuy, shuningdek yordamchi ovozlari bilan boyitiladi, gohida o‘zining ko‘rinishini o‘zgartiradi. Chunonchi, qator variatsiyalardan keyin jadal raqsona harakat va keskinlikka qaramasdan, cho‘zib ijro etiladigan to‘y marosimi mavzusiga o‘xshaydigan kuy paydo bo‘ladi:

19



Bu mavzu birinchi – vazmin-ulug‘vor mavzuning sezilmasdan qaytib kelishini ta‘minlaydi, keyin esa sho‘x xalq raqsi yangi kuch bilan sadolanadi.

“Kamarinskaya”da M.I.Glinka milliy xarakter xususiyatlarini talqin etdi, dadil va yorqin bo‘yoqlarda rus xalqining bayramona turmush manzarasini yaratdi. Vazmin lirik va quvnoq, sho‘xchan qo‘shiqni qarama-qarshilikda taqqoslashni xalq xor ijrochiligida ko‘plab uchratish mumkin. M.I.Glinka xalq ijrochiligiga xos bo‘lgan yordamchi ovoz va variatsiyalashtirish orqali rivojlanishni ustalik bilan qo‘llaganligini ta‘kidlash muhim.

Keyinchalik ushbu xususiyatlar boshqa kompozitorlar tomonidan ham rivojlantirildi. P.I.Chaykovskiy “dub daraxti uning urug‘ida joylashgani kabi” butun rus simfonik musiqasi “Kamarinskaya”da joylashgan deb bejiz aytmagan edi.

“Vals-fantaziya” – M.I.Glinkaning eng shoirona lirik asarlaridandir. Avval bu uncha katta bo‘lmagan fortepiano pyesasi edi. Keyinchalik u kengaytirildi va orkestrlashtirildi. O‘limidan sal oldinroq (1856–yilda) kompozitor uni qayta ishlashga kirishdi va kichkina pyesani mukammal hamda takomiliga yetgan simfonik fantaziya darajasiga yetkazdi. Uning asosida dilkash, yoqimli mavzu yotadi. Pastga yo‘nalgan uch tonli ohang tufayli ushbu o‘ychan, ravon kuy keskin va shiddatli sadolanadi. Mavzuning o‘ziga xos, G‘arbiy Yevropa valslaridagi to‘rt taktli “kvadrat”emas, balki rus xalq qo‘shiqlarida ko‘plab uchraydigan uch taktli toq jumladan tuzilgan. Bunday toq tuzilma Glinka kuyiga intiluvchanlik va parvoz bag‘ishlaydi:

20



Asosiy vals mavzusiga yorqin qarama-qarshi bo‘lgan, mazmuni bo‘yicha turli-tuman, gohida yorug‘ va nafis, gohida esa hayajonli, dramatik lavhalar qarshi qo‘yiladi. Bosh mavzu rondo shaklini tashkil etib, ko‘p marotaba takrorlanadi. Ushbu asar ajoyib tarzda nozik cholg‘ulashtirilgan. Ko‘proq torli cholg‘ular guruhining ishtirok etishi butun simfonik asarga yengillik, parvoz, tiniqlik, betakror orzular maftunkorligini baxsh etadi. Rus musiqasida birinchi marta maishiy raqs asosida

ruhiy kechinmalarning turli jihatlarini aks ettiruvchi simfonik asar vujudga keldi.

O'zining "Vals-fantaziya", "Kamarinskaya" asarlari va ikkala operaning balet sahnalarida M.I.Glinka maishiy raqslaridan kelib chiqqan holda, simfonik musiqaning ajoyib, o'lmas namunalarini yaratdi. U boshlagan ishni rus kompozitorlari: P.Chaykovskiy, M.Balakirev, A.Borodin, N.Rimskiy-Korsakov, A.Glazunov va boshqalar davom ettirdilar.

Savol va topshiriqlar

- 1. M.I.Glinkaning orkestr uchun yozilgan asarlarini aytib bering.*
- 2. Orkestr uchun "Kamarinskaya" fantaziyasidagi asosiy mavzular va ularning rivojlantirilishini tavsiflang.*
- 3. "Vals-fantaziya" musiqasi qanday xarakterga ega? Bu asar qanday tuzilgan?*

ROMANSLAR VA QO'SHIQLAR

M.I.Glinkaning romans va qo'shiqlari rus klassikasining faxridir. Kompozitor ularni butun umri davomida yozdi. Glinkaning lirik romanslari uning o'ziga xos qalb nidosidir. Ularning ba'zilarida rus tabiati va turmushining manzarasi aks etgan. Glinka o'z romanslarida o'tmishdoshlari va zamondoshlari yaratgan maishiy romanslarining barcha jihatlarini umumlashtirdi. Uning o'zi vokal ijrochiligining ajoyib ustasi edi va inson ovozi imkoniyatlarini juda yaxshi bilardi. Romans shaklini yuksak mukammallik darajasiga ko'tara olganligi buning yorqin dalilidir.

M.I.Glinka romanslari o'zining samimiyligi va oddiyligi, tuyg'u va kayfiyatni talqin etishdagi kamtarligi va vazminligi, shaklning klassik bejirimligi va qat'iyligi, doimo ohangdor,

ifodaviy, matn mazmunini haqqoniy ochib beradigan kuyning go'zalligi va chiroyli garmoniyasi o'ziga maftun etadi.

M.I.Glinka romans va qo'shiqlari orasida turli-tuman janrlarni: "rus qo'shig'i", his-tuyg'ularga boy turmush romansi ("Qashshoq xonanda")dan dramatik ballada, qo'shiq-rivoyatgacha ("Tungi ko'rik), quvnoq to'y marosimi va "yo'l" qo'shiqlaridan to "suv ustidagi qo'shiq" – barkarolagacha uchratish mumkin. Uning vals, mazurka, polonez, ispancha bolero, nihoyat marsh ("Прости, корабль взмахнул крылом" ("Kechir, kema qanot qoqdi")) ritmidagi qo'shiq-raqslari betakror va o'ziga xosdir. Glinka romanslaridagi vokal va fortepiano partiyalarining garmonik uyg'unlashuvi ham o'ziga xos xususiyatlardandir.

M.I.Glinka rus vokal qo'shiqchiligi maktabining asoschisidir, uning romanslari – go'zallik va mukammallik bulog'i bo'lib, undan barcha keyingi avlod rus kompozitorlari foydalanishgan.

M.I.Glinka o'z zamondoshlari: V.Jukovskiy, A.Delvig, A.Pushkin she'rlariga romanslar yaratgan. Romanslarning ko'pchiligi yaqin do'stlari, masalan, N.Kukolnik so'zlariga yozilgan. Ushbu shoir she'rlariga 1840–yilda kompozitor "Прощание с Петербургом" ("Peterburg bilan xayrlashuv") vokal turkumini yaratdi. Turkum romanslari ichida "To'rg'ay" va "Попутная песня" ("Yo'lovchi qo'shiq") bor.

"To'rg'ay" yengil oqib keluvchi, tabiiy va sodda, ravon kuyli, va o'ychan qo'shiqdir:

21

O'rtacha

Мель-до-не-бом и к-мелой не-сми-ра-да-ст-си

Fortepiano partiyasida ifodali tarzda rus zamini manzarasi: uning bepoyon kengliklari, shabadada tebranayotgan boshloqlar va maysalari bilan dala va yaylovlari gavdalanadi. Xonanda qo'shiq boshlashi oldidan jo'mnavozlikda to'rg'ayning sayrashi eshitiladi.

“Yo‘lovchi qo‘shiq” yorqin, shodon lirikaning namunasidir. Unda barcha narsa – harakat va shiddat, uchrashuvni orziqib kutish, betoqatlik, qalbning hayajonli urishi mavjud. Qo‘shiqdagi hamma narsa shu kayfiyatga bo‘ysundirilgan:

22

Juda tez

Дум стал - божь ки - шп ды - миг - ся па - ро - ход! Пе - стро -

5
та, рат - тул, вод - не - нье, о - жи - да - нье, пе - тер - це - нье

Fortepiano partiyasi aniq ritm bilan go‘yo paroxodning tez harakatlanishi, g‘ildiraklarining taqirlashi va deraza ortidan tabiat manzarasining lipillab o‘zgarishini ifodalaydi. Har bir misra boshlanishidagi g‘ayratli va to‘liq ovozli akkord o‘ziga xos bo‘lib, kuy boshlanadi va to‘xtatib bo‘lmas shiddat bilan olg‘a intiladi. Keyin esa tez, intiluvchan harakatdagi kuy kutish onlaridagi orziqishni ifodalovchi keng va ravon ohanglar bilan almashadi:

23

Poco meno mosso

Нет! Гли - на - я ду - ма бы - стре - е ле - нг и

серд - це, мно - ве нья счи - та - я, слу - чил

“Я помню чудное мгновенье”. M.I.Glinkaning vokal lirikasida A.Pushkin so‘zlariga yozilgan romanslar muhim o‘rin egallaydi. Ular orasida “Я помню чудное мгновенье” rus vokal lirikasining durdonasi bo‘lib, unda shoir va kompozitor daholari birlashib ketgan. Romansning uch qismli shakli she‘r mazmuniga muvofiq keladi, unda qahramon ruhiy hayotining uchta muhim lavhalari: birinchi uchrashuv, sevgilisi bilan

ajralishgan vaqtdagi alamlar va qaytadan uchrashuv quvonchi aks ettirilgan. Romans kuyi o'zining ravonligi va mayin nafisligi bilan chuqur taassurot qoldiradi:

24

O'rtacha tez

Я пол-но-чи-сто-и-ми-но-вни-е пре-ду-мно-и-ти-лас-ты, как ми-но-во-с-ни-
де-лас-ка-ге-ши-чи-сто-и-кра-со-ты. Как ге-ши-чи-сто-и-кра-со-ты

O'rta qism yorqin qarama-qarshilikda sadolanadi. Bu yerda musiqa rehitativ-deklamatsiya xarakterida bo'lib, keskinlashadi. Uchinchi qismda avvalgi yorqin kuy qaytib keladi, lekin u shodon, hayajonli, jo'rnavozlik esa harakatchan, iztirobli sadolanadi.

Romans M.I.Glinka ijodining yetuklik davriga mansub, shu sababli unda kompozitor mahorati shunchalar yorqin namoyon bo'ladi. A.Pushkin va M.Glinkagacha hali hech kim tuyg'ularning go'zalligini bunday mahorat bilan namoyon etmagan edi.

M.I.Glinka – rus klassik musiqasi asoschisidir. U qahramonona va ertak-epik tarzdagi rus milliy klassik operasining yaratuvchisi, rus klassik simfonizmining asoschisi, go'zalligi bo'yicha o'lmas qo'shiq va romanslar ijodkoridir.

M.I.Glinka o'zining musiqiy tilini rus xalq qo'shig'i asosida yaratdi. Bir vaqtning o'zida u boshqa mamlakatlar musiqasi bilan ham juda qiziqardi. Rus kompozitorlari ichida birinchilardan bo'lib Glinka o'z musiqasida Sharq xalqlari musiqasining o'ziga xos xususiyatlarini joriy qildi. Rus qo'shiqlari bilan bir qatorda "Ivan Susanin" operasida Polsha milliy raqs ritmlari, ispancha uverturalarda esa ispan xalq ohanglari jaranglaydi. M.I.Glinka ravon italyan qo'shiq ohanglaridan o'z asarlarida keng foydalandi.

M.I.Glinkaning yorqin va hayotbaxsh musiqasi – rus musiqasi madaniyatining xazinasidagi bebaho boylikdir. Uning asarlari misolida keyingi avlod rus kompozitorlari saboq oldilar, ular Glinka ijodining turli qirralarini o‘ziga xos tarzda rivojlantirdilar. Glinkadan meros bo‘lib qolgan an’analar rus musiqasining kelajak rivoji uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Glinka boshlagan ishni davom ettiruvchilar uning o‘zi kabi o‘z san’atlari bilan xalqqa xizmat qilish, asarlarida xalq hayotini haqqoniy aks ettirishga harakat qildilar. Glinka ijodining muhim ahamiyati ham ana shunda.

Savol va topshiriqlar

- 1. M.I.Glinka qaysi shoirlar so‘ziga romanslar yozgan?*
- 2. M.I.Glinkaning qaysi romanslarini bilasiz?*
- 3. Bilgan romanslaringiz ohanglarini eslang va ulardan parcha ijro etib bering.*

ASOSIY ASARLARI

“Ivan Susanin” va “Ruslan va Ludmila” operalari.

N.Kukolnikning “Knyaz Xolmskiy” fojiasiga musiqasi.

Ovoz va fortepiano uchun 80 ta asar: romanslar, qo‘shiqlar, ariyalar.

Simfonik pyesalar: “Aragon xotasi” va “Madridagi tun” ispancha uverturalar; “Kamarinskaya”, “Vals-fantaziya” simfonik fantaziya.

Cholg‘u ansambllari.

Fortepiano uchun pyesalar (variatsiyalar, mazurkalar, valsalar, nokturnlar va boshqalar).

**ALEKSANDR SERGEYEVICH
DARGOMIJSKIY
(1813 – 1869)**



A.S.Dargomijskiy M.I.Glinkaning zamondoshi va izdoshidir. U “musiqiy haqiqatning buyuk ustози”, dadil novator sifatida rus musiqasi tarixiga kirdi.

A.S.Dargomijskiy qarashlari XIX asrning 30–40–yillari davomida, rus madaniyatining avj olib rivojlanishi vaqtida shakllandi. A.S.Dargomijskiy rus san’atidagi barcha ilg’or va progressiv voqealarga o’ta sezgirlik bilan munosabatda bo’ldi. Uning ijodiy g’oyalari Rossiyaning demokratik yozuvchilari va san’atkorlariga yaqin turardi. Ayniqsa, A.S.Dargomijskiyning vokal musiqasi A.Pushkin, N.Gogol, M.Lermontov bilan yaqin aloqada bo’lgan. Dargomijskiyning eng sara asarlari A.Pushkin va M.Lermontov so’zlariga yaratilganligi bejiz emas.

HAYOT YO’LI

Aleksand Sergeevich Dargomijskiy 1813–yil 2–fevralda Tula guberniyasi Troitskiy qishlog’ida tug’ildi. 1817-yilda oilasi Peterburgga ko’chib o’tdi. Kompozitorning otasi tijorat banki devonxonasining boshqaruvchisi edi. Onasi, ma’lumotli va iqtidorli ayol, san’atni yaxshi ko’rar, she’rlar yozib turardi.

Ulardan ba'zilari hatto nashr ham etilgan. Dargomijskiylar oilasida bolalarning ma'lumotli bo'lishlariga katta e'tibor berilar edi. Ko'plab dvoryan oilalarida bo'lgani kabi, bolalar uyda tarbiyalanishar, ular uchun o'qituvchilarni taklif qilishardi.

A.S.Dargomijskiyning onasi o'z farzandlarida san'atga bo'lgan muhabbatni rivojlantirardi. Kompozitorning akasi Erast mohir skripkachi edi. Aleksandr Sergeyeovich ikkala opasi: Sofya va Erminiya bilan juda yaqin do'stona aloqada bo'lgan. Katta opasi Sofya keyinchalik taniqli rassom Stepanovga turmushga chiqadi va Dargomijskiy ularning oilasida yashay boshlaydi. Sofya aqlli, xo'jalik ishlarini yaxshi yuritar edi. U Aleksandrni juda yaxshi ko'rar va uning ishlariga ko'p vaqtini ajratardi.

Kichkina Aleksandrning musiqaga bo'lgan qobiliyati erta namoyon bo'ldi. U yetti yoshidan fortepianoda chalishni o'rgana boshlashdi.

1821-yildan A.T.Danilevskiy A.S.Dargomijskiyni musiqaga o'qita boshladi. O'n yoshidan boshlab bolada ijodga intilish paydo bo'ldi. U fortepiano uchun kichik pyesalar va romanslar yoza boshladi. Biroq o'qituvchisi bunga yaxshi munosabat bildirmadi. Keyinchalik kompozitor shunday yozgan edi: "U bu narsani rus dvoryaniga yarashmagan ish deb o'ylarmidi, yoki men o'z vaqtimni berilgan fortepiano darsi uchun sarflaganim ma'qul deb hisoblarmidi, lekin har safar, men unga yangi yozgan asarimni olib kelganimda, mening xulq daftarimga juda yomon deb yozilgan belgi qo'yilardi, natijada men jazolanar edim".

Fortepiano mashg'ulotlaridan tashqari, A.S.Dargomijskiy skripkada chalishni va qo'shiq kuylashni o'rganardi. Shunday bo'lsa-da, fortepianoda ijro etish birinchi o'rinda edi. Bu vaqtlarda Rossiyada taniqli mohir ijrochi Frans Shoberlexner yashardi, uning chiqishlari katta muvaffaqiyat bilan o'tar edi. Uning ijrosi yosh yigitchada o'chmas taassurot qoldirdi.

A.S.Dargomijskiy uch yil davomida Shoberlexnerdan fortepianoda chalish sirlarini o'rgandi. Bu mashg'ulotlar uning uchun juda foydali bo'ldi va vaqt o'tishi bilan u usta pianinochi bo'lib yetishdi.

O'n sakkiz yoshga to'lgan A.S.Dargomijskiy fortepiano, skripka uchun ko'plab asarlar, ikkita kvartet, kantatalar va romanslar muallifi edi. Bu asarlardan ba'zilari nashr etildi. Biroq kompozitorlik texnikasi hali yetarli darajada emas edi.

A.S.Dargomijskiyning 1835–yildagi M.I.Glinka bilan uchrashuvi uning hayotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Yosh musiqachilar tezda yaqin bo'lib qoldilar, do'stlashdilar va tez-tez birgalikda musiqa bilan shug'ullanib turdilar. O'sha vaqtda M.I.Glinka “Ivan Susanin” operasi ustida ishlardi. U A.S.Dargomijskiyga o'zining o'qituvchisi Z.Denning ma'ruzalari yozilgan daftarni berdi va A.S.Dargomijskiy musiqiy-nazariy fanlarni jiddiy o'rganishga kirishdi.

Tez orada A.S.Dargomijskiy Viktor Gyugoning “Bibimaryam Parij ibodatxonasi” romani sujetiga “Esmeralda” operasi ustida ishlay boshladi. Sujetni tanlashda yosh kompozitorning o'sha vaqtdagi fransuz madaniyatiga bo'lgan qiziqishi namoyon bo'ldi. U “Esmeralda” operasini 1841–yilda yozib tugatdi. A.S.Dargomijskiyning do'stlari – ilg'or adabiyotchilar – operani yaxshi kutib olishdi, ammo uning sahnalashtirish jarayoni bir necha yillarga cho'zilib ketdi. Opera repertuardan o'rin ololmadi. Kompozitor bu muvaffaqiyatsizlikni og'ir kechirdi.

“Esmeralda” operasi ustida ish tugagandan so'ng, A.S.Dargomijskiy boshqa asarlar: havaskorlik spektakllari uchun musiqa, A.Pushkin so'zlariga “Vakx tantanasi” kantatasini yozadi, bu kantata keyinchalik opera-baletga aylantirilgan. A.S.Dargomijskiy ayniqsa, romanslarni jon-dili bilan yozar edi. Bu vaqtga kelib, u Peterburgda tan olingan qo'shiq o'qituvchisi sifatida tanildi. Uning xonadonida musiqiy

kechalar uyushtirilar, ularda rus musiqasi, birinchi navbatda, M.I.Glinka va A.S.Dargomijskiy asarlari ijro etilardi.

A.S.Dargomijskiyda asta-sekin chet el safari haqida fikr paydo bo'ldi. Hammadan ham u Parijga tashrif buyurishni, atoqli musiqachilar bilan tanishishni istardi. Bolalik yillaridanoq u fransuz adabiyoti va she'riyati, fransuz operasiga qiziqardi.

1844-yilda A.S.Dargomijskiy chet elda bo'lib, Berlin, Bryussel, Parij, Vena shaharlari bilan tanishdi. Safar yarim yilga yaqin davom etdi. Mazkur safar davomida u ko'plab yangi taassurotlar oldi, musiqachilar, kompozitorlar bilan tanishdi. Parij jamiyatidagi muhit keskin edi, inqilobiy harakat borgan sari o'sib borardi. Buning hammasi san'atda, ayniqsa teatr san'atida o'z aksini topdi. A.S.Dargomijskiy katta qiziqish bilan opera va teatr tomoshalariga borardi.

O'zga yurtlarda, Vatanidan uzoqda u o'zini haqiqiy rus san'atkori sifatida sezdi. A.S.Dargomijskiy quyidagicha yozgan edi: "Dunyoda rus xalqidan yaxshiroq xalq yo'q va... agar Yevropada she'riyat unsurlari mavjud bo'lsa, bu faqat Rossiyada".

Bu davrga kelib A.S.Dargomijskiyning realist san'atkor sifatida dunyoqarashi tugal shakllandi. Badiiy jihatdan yetuklik davri boshlandi. Buning hammasi uning ijodida o'z aksini topdi. Aynan shu yillarda A.S.Dargomijskiy rus kishilari hayoti mavzusiga murojaat qiladi, musiqada inson nutqining jonli ohanglarini haqqoniy talqin etishga harakat qiladi. Vataniga qaytgandan so'ng, u A.Pushkin pyesasi sujeti bo'yicha "Rusalka" operasini yaratishga kirishadi. Bu opera ijtimoiy-fosh etuvchi xarakterga ega edi. Shu vaqtning o'zida u ko'plab ajoyib romanslar yozadi.

Yetuk qo'shiqlari va romanslarida A.S.Dargomijskiy o'zini dadil novator sifatida namoyon qildi. M.Glinka izidan borib, u bir vaqtning o'zida ko'plab an'anaviy vokal janrlirini qayta ko'rib chiqdi va yangilarini yaratdi. Shu tarzda M.Lermontov so'zlariga "И скучно и грустно" ("Ham zerikarli, ham

qayg'uli"), "Мне грустно" ("Men g'amginman") monolog-o'ylar paydo bo'ldi. M.Lermontov she'riyati o'zining g'azab va achchiq ta'sirchanligi, yaramas rus voqeligini ehtirosli fosh etishi bilan endi A.S.Dargomijskiyni, ayniqsa, o'ziga tortadi. Agar M.Glinka, o'z romanslarini yaratayotib, ravon qo'shiq kuyidan foydalangan holda matnning umumiy kayfiyatini ko'rsatib berishga harakat qilgan bo'lsa, A.S.Dargomijskiy boshqa yo'ldan boradi. Uning ohanglari matndagi barcha nozik burilishlar izidan boradi ("Men g'amginman"), ular "so'zlovchi" nutq ohanglariga to'la.

1853-yilda taniqli rus musiqa tanqidchisi va ma'rifatchisi V.F.Odoyevskiy tashabbusi bilan A.S.Dargomijskiy asarlaridan konsert tashkil qilinadi. Konsert katta muvaffaqiyat qozonadi. Musiqachilar va keng omma tarafidan iliq qarshi olinishi A.S.Dargomijskiyda yangi ijodiy kuch paydo qildi. U "Rusalka"("Suv parisi") ustida ishlashni davom ettiradi, librettoni o'zi yozadi.

1856-yilda Peterburgdagi Teatr-sirk sahnasida qo'yilgan "Suv parisi" aristokratik omma tomonidan sovuq qarshi olindi. Faqat demokratik kayfiyatdagi yoshlar operani hamdardlik bilan kutib oldilar. Tanqidchilar orasidagi fikrlar ham ikkiga bo'lindi. Ajoyib rus musiqa tanqidchisi A.S.Dargomijskiyni yoqlab chiqish qildi. U mazkur operadagi xalq musiqasi bilan aloqadorlikni, undagi haqiqatgo'ylik va samimiylikni ta'kidladi. Sahnada opera sezilarli darajadagi qisqartirishlar bilan qo'yildi, mashhur qo'shiqchi O.A.Petrov Tegirmonchi rolini muvaffaqiyatli ijro etishiga qaramasdan, yomon sahnalashtirilgan spektakl repertuardan olib tashlandi.

1850-yillar oxirida A.S.Dargomijskiy shoirlar va adabiyotchilarning demokratik to'garagi bilan yaqinlashadi. "Iskra" hajviy jurnali ishida faol ishtirok etadi. Shu vaqtning o'zida u ijtimoiy fosh etuvchi xarakterdagi qo'shiqlar yaratadi. Ayrim qo'shiqlarni u "Iskra" jurnalining taniqli shoiri

V. Kurochkin so'zlariga yozdi. Ular orasida "Старый капрал" ("Keksa kapral") va Kurochkin tarjimasida Pyer Beranje she'riga "Червяк" ("Chuvalchang") hajviy qo'shiqlari bor edi.

1860-yillar boshlarida yorqin orkestr pyesalari: "Kazachok", "Baba-yaga" va "Chuxonskaya fantaziya" (fin xalq mavzulariga) paydo bo'ldi. M.Glinka kabi, A.S.Dargomijskiy ularda xalq ohanglaridan foydalanadi. Ko'p hollarda kompozitor M.Glinka an'analariga tayanadi, ammo bu pyesalarda uning o'z iqtidoridagi o'ziga xoslik va yorqinlik namoyon bo'ladi.

A.S.Dargomijskiy Rus musiqa jamiyatining a'zosi sifatida ko'p vaqtini ijtimoiy-ma'rifiy faoliyatga bag'ishlaydi.

1864-yilda A.S.Dargomijskiy yana chet el safariga o'tlanadi, endilikda u yetuk kompozitor darajasiga erishgan edi. Leypsig shahrida uning sharafiga musiqiy kecha tashkil qilindi. Kompozitorni Bryusselda katta hayajon bilan kutib olishdi, bu yerda "Rusalka" operasi uverturasi va "Kazachok" simfonik pyesasi ijro etildi. Keyin A.S.Dargomijskiy Parij, Londonga tashrif buyurdi va 1856-yil may oyida Peterburgga qaytib keldi.

Uning xizmatlari jamoatchilik tomonidan e'tirof etildi. 60-yillarda teatr tomoshabinlari tarkibi sezilarli darajada o'zgardi: teatrga demokratik yoshlar o'zlarining yangi talablari bilan kirib keldilar. Peterburgda qayta tiklangan "Suv parisi" endi yangi tomoshabinlar tarafidan qizg'in kutib olindi. Bosh rollarni iqtidorli rus artistlari: A.Petrov (Tegirmonchi) va Yu.F.Platonova (Natasha) ijro etishdi.

50-yillar oxirida M.Balakirev rahbarligida kompozitorlarning "Moguchaya kuchka" ("Qudratli to'da") hamdo'stligi vujudga keldi. A.S.Dargomijskiy M.Balakirev to'garagining yosh kompozitorlari bilan yaqindan tanishadi. Bu do'stlik uning uchun ijodiy qudrat manbayiga aylandi, yangi estetik g'oyalar uchun undan kuch oldi. Kompozitor A.Pushkinning kichik fojiasi matniga "Каменный гость" ("Tosh mehmon") operasi ustida ish boshlaydi. U katta ilhom bilan juda ko'p asarlar

yaratadi. Hatto qattiq bemorlik ham A.S.Dargomijskiyni zahmatli mehnatdan chalg'ita olmaydi.

O'zining yangiligi va g'ayrioddiyligi bilan bu opera "Moguchaya kuchka" kompozitorlarining samimiy olqishiga sazovor bo'ldi. A.Pushkin fojiasi qahramonlarining yorqin obrazlarini A.S.Dargomijskiy ohangdor, rechitativ dialog vositasida qayta tikladi. A.S.Dargomijskiyning juda ifodali va moslanuvchi rechitativi bu yerda mahorat cho'qqisiga erishdi. Operada odatdagi nomerlarga bo'linish mavjud emas. Unda ko'proq to'xtovsiz, "yalpi" rivojlanish bor. Faqatgina Lauraning ikkita qo'shig'i tugal, yakunlangan shaklga ega. O'z operasini to'la yakunlash A.S.Dargomijskiyga nasib etmadi. U 1869-yil 5-yanvarda vafot etdi. Uni M.Glinka bilan yonma-yon dafn etdilar. A.S.Dargomijskiy vasiyatiga ko'ra, "Tosh mehmon" operasini kompozitor S.Kyui yakuniga yetkazdi, N.Rimskiy-Korsakov esa uni orkestrlashtirdi. 1872-yilda "Qudratli to'da" kompozitorlari ushbu operani Peterburgdagi Mariin teatrida sahnalashtirilishiga muvaffaq bo'ldilar.

Savol va topshiriqlar

- 1. A.S.Dargomijskiy tarjimayi holini so'zlab bering.*
- 2. Uning hayotidagi M.Glinka bilan uchrashuv va "Qudratli to'da" kompozitorlari bilan do'stlik qanday ahamiyatga ega bo'lgan?*
- 3. A.S.Dargomijskiyning muhim asarlarini sanab o'ting. Uning ijodiga qisqacha tavsif bering.*

“SUV PARISI”(“PYCAJKA”)

“Suv parisi” – ruhiy maishiy musiqali drama xarakteridagi birinchi rus operasidir. Kompozitor tomonidan qo‘yilgan asosiy vazifa qahramonlar ichki dunyosi, ular kechinmalari va xarakterlarini aks ettirishdan iborat edi.

Yangi vazifa yangi musiqiy-ifodaviy vositalarni ham talab etardi. Mana shuning uchun ham operada tugal musiqali nomerlar, ariyalar va lirik ansambllar nisbatan kam. Ansambldagi birgalikda kuylash erkin tarzda qahramonlar o‘rtasidagi dialog bilan almashadi. Chunonchi, aynan dialoglarda ko‘pincha qahramonlarning yorqin musiqiy tavsiflari beriladi. Bu dadil va yangi uslub boshqa rus kompozitorlari: M.Musorgskiy, P.Chaykovskiy ijodida o‘z rivojini topdi.

“Suv parisi” mazmuni asosida ijtimoiy ziddiyat yotadi. Operada katta badiiy kuch va haqiqat bilan knyaz tomonidan aldangan va tashlab ketilgan oddiy rus qizining taqdiri haqida hikoya qilinadi. Natashaning fojiasi – bu pomeshik-krepostnoy tuzum sharoitidagi boyvachchalarning bema’ni havaslari tufayli taqdiri buzilgan ko‘plab rus qizlarining fojiasidir. A.Pushkin dramasi mazmunini kompozitor deyarli o‘zgartirmadi, faqat A.Pushkin asarida mavjud bo‘lmagan yakunni qo‘shib qo‘ydi. Bunda Pushkin dramasining ba’zi qahramonlariga nom berildi. Chunonchi, Tegirmonchi qiziga Natasha, knyaz xonim dugonasiga Olga ismi berildi.

Operada to‘rtta parda bor. Sahna voqealari oldidan sonata shaklidagi uvertura ijro etiladi. Unda operaning ba’zi mavzulari, masalan, ikkinchi parda uverturasi boshlanishidagi madh etish to‘y xori mavzusi; yondosh partiya birinchi pardadagi Natasha ariozosi mavzusiga asoslangan. Lekin uvertura asar dramatik rivojlanish uzviyligini aks ettirmaydi, unda faqat “Suv parisi” musiqasining umumiy xarakteri tiklanadi, xolos.

A.S.Dargomijskiy o'z operasida avvalo qahramonlar ichki dunyosini, ularning xarakterini ochib berishga intildi. Dramatik voqealar ta'siri ostida qahramonlar xarakteri o'zgaradi. Nozik va fidokor Natashada g'azab va keskinlik, uni aldagan odamga nisbatan nafrat hissi uyg'onadi. U operaning oxiriga borib qat'iy va qasoskor suv parisiga aylanadi.

Natashaning otasi, tegirmonchi – quvnoq va qiziqchi inson. Biroq o'zini qanday tutish kerakligini uqtiradi, u qizini gohida koyib ham turadi. Uchinchi pardada, boshiga tushgan kulfatdan keyin, tomoshabin ko'z oldida mutlaqo boshqa obraz namoyon bo'ladi. U o'zining fojaviyligi bilan kishini dahshatga soladi, o'zini telbalikkacha olib borib qo'ygan odamlarga nisbatan nafrat tuyg'usini uyg'otadi.

Operada birinchi parda muhim ahamiyatga ega. Unda bosh qahramonlar: Natasha, tegirmonchi, knyazning musiqali tavsifi beriladi. Shu pardaning o'zida dramaning yechimi ham ro'y beradi: Natasha o'z joniga qasd qiladi va haqiqiy qizdan u go'zal suv parisiga – Dnepr daryosining malikasiga aylanadi.

Birinchi parda. Tegirmonchi Dnepr daryosi qirg'og'ida turibdi. Natasha, tegirmonchining qizi va yosh knyaz sevishib qoladilar. Natasha otasining ogohlantirishlariga quloq solmaydi, u samimiy, sadoqat bilan sevadi, kelajakni o'ylamaydi. Shu bilan birga, knyaz tegirmonga borgan sari kam keladigan bo'ladi.

Tegirmonchi ariyasi birinchi pardani ochadi. Ariya musiqasida A.S.Dargomijskiy tegirmonchi xarakteri – quvnoq qiziqchilikka bo'lgan moyillik va, shu bilan birga ezmalik xususiyatlarini aniq talqin etdi. Tegirmonchi ariyasi mavzusi kuydagi jonli, raqsona ritm, keskin ajralib turuvchi zarblar bilan berilgan. Bu mavzu uncha katta bo'lmagan orkestr muqaddimasida sadolanadi.

O'rtacha tez

“Одно и то же надо вам твердить сто раз” (“Bir narsani sizga yuz bor takrorlash kerak”) bir xildagi kuy aylanmasini bir necha marta takrorlash asosida aytiluvchi so‘zlari o‘ziga xosdir.

Natashaning qiyofasi birinchi marta lirik tersetda ochib beriladi. *Terset* uchchala qahramon: Natasha, knyaz va tegirmonchining g‘amgin kayfiyatini ifodalaydi. Birgalikda kuylash erkin tarzda qahramonlar o‘rtasidagi dialogga o‘tadi. Natashaning nafis va dilkash partiyasi bir vaqtning o‘zida keskin va shiddatli sadolanadi. Keng odimli kuy unga xos. Bu qizning samimiy va jo‘shqin xarakterini aks ettiradi. Uning obrazi, ayniqsa, “Ах, прошло то время, время золотое” (“Oh, o‘tdi u damlar, oltin damlar”) fa minor Andante boshlanishida yorqin ochib beriladi. Qo‘shiqning dilkash kuyi shahar lirik romansiga janr jihatidan yaqin turadi bu yengil va valsга o‘xshash jo‘rnavorlik ham ta‘kidlaydi:

Shoshilmasdan

Ах ты сердце - ты сердце - ми сердце - до-то-е.
 как мыши по-бел ты сердце тем и до-то-е.

Knyaz qizni yupatadi va unga qimmatbaho taqinchoq sovg'a qiladi. "Ах ты сердце" ("Oh, sen yurak") lirik qo'shig'ini kuylab dehqonlar guruhi kirib keladi. O'zining tembri bo'yicha xalq puflama cholg'ulari – svirel, jaleykaga yaqin bo'lgan goboy yakkanavozligi nafis, ohista va mungli sadolanadi. Shu ohangni qo'shiq kuylayotganlar ham ilib oladilar. Qo'shiq asta-sekin variatsiyalashtiriladi, yordamchi ovozlar bilan boytiladi. Tegirmonchi dehqonlardan knyaz ko'nglini ochish uchun quvnoq qo'shiq aytishlarini so'raydi.

"Заплетися, плетень" ("To'qila qol, qamchi") xorovod qo'shig'i quvnoq va jonli ijro etiladi. Uni alt va klarnet cholg'ularining harakatchan va tiniq jo'rligida ayollar xori boshlab beradi. Bu qo'shiqdagi rus xorovod qo'shiqlariga xos bo'lgan olti taktli tarkibi qiziqarlidir. U qo'shiqning xalqona xarakterini yanada bo'rttirib ko'rsatadi:

Jonli
За-пе-ти - ся, пе-те-те-нь. За-пе-ти - ся, пе-те-те-нь. За-пе-ти - ся!

За-пе-ти - ся, пе-те-те-нь!

Xursandchilik tobora avjiga chiqadi. Ravon xorovod qo'shig'i bevosita jadal, chaqqon va harakatchan mavzuli, quvnoq tez aytishlari bilan uchinchi – "Как на горе мы пиво варили", ("Biz tog'da pivo pishirganda") qo'shig'iga ulanib ketadi. Ushbu xor asosida asl xalq qo'shig'i yotadi:

Juda tez

Как на го-ре мы ши-во ва-ри-ли. Ла-до мо-е. Ла-до. Ни-во ва-ри-ли.

Ой, лю-ли. Ой, лю-ли. Лю-ли. Ла-до, ла-до ты мо-е

Qo'shiqqa oyoqni yerga urib, raqsga tushish bilan quvnoq xorovod o'yini qo'shiladi.

Dehqonlar ketishadi. Knyaz xafa, uning ma'yusligidan Natasha ham xijolat bo'ladi. Xavotirli tuyg'u bilan u knyazni savolga tutadi va knyaz unga ayriliq haqida xabar beradi. Avvaliga Natasha uni tushunmaydi. U knyaz bilan istalgan yoqqa, hatto safarga ham borishga tayyor. Ammo keyin gap nimada ekanligini tushunib yetadi. Bu yerda kompozitor katta haqqoniylik va dramatik qudrat bilan musiqada Natashaning

ruhiy holatini ochib bera oldi. Natasha tortinib va cho'chib, o'z so'zlaridan qo'rqan holda Knyazdan sekin so'raydi: "Uylanyapsanmi?". Knyaz sukut saqlaydi. Endi Natasha hammasini tushunadi. G'azab va nafrat bilan u ikkinchi marta o'sha jumlaning takrorlaydi: "Uylanyapsanmi?". A.S.Dargomijskiy musiqada inson nutqi ohanglarini topadi, unda turli ohangda aytiluvchi bir xil so'zlar, musiqada ham turli kayfiyat, kechinmalarni ochib beradi. Kuy dinamikasi va uning interval munosabati, nihoyat ladning noturg'un pog'onasida to'xtalish bunga yordam beradi.

Knyaz Natashani yupatishga harakat qiladi. Uning ovozi o'g'rincha sadolanadi: "Суди сама, ведь мы не вольны жен себе по сердцу брать" ("O'zing o'ylab ko'r, biz yoqtirganimizga uylana olmaymiz"). Natasha yaqinda farzandlik bo'lishiga qaramasdan, u aslzoda qizga uylanishi lozim. Knyaz qiz boshiga qimmatbaho ro'mol o'raydi, bir xalta pulni qo'yib, shoshilganча chiqib ketadi. Natashaning esankirashi g'azab va kulfat portlashi bilan almashadi. U otasiga Knyazning uylanishi haqida xabar beradi. Bu tushuntirish ham operaning eng dramatik lavhalaridan biridir. Natasha Knyaz so'zlarini eslab, achchiq kinoya bilan takrorlaydi:

Qarang, uylanolmasmish knyaz

O'zi yoqtirgan qizga.

Qo'shiq knyaz kuylagan ohangda sadolanadi, lekin unda ritm yanada o'tkirroq bo'rttirilib, yana forshlaglar bilan ta'kidlanadi. Bu narsa "achchiq kinoya", g'azab taassurotini uyg'otadi.

Otasi va qishloq ahlining so'zlariga quloq solmasdan, qiz noumidlik bilan o'zini Dnepr daryosi qa'riga otadi. Hamma dahshatga tushadi.

Ikkinchi parda. Knyaz xonadonida shohona to'y marosimi. Mehmonlar xori kelin-kuyovni olqishlaydi. Knyagina dugonalari bilan xayrlashadi. Olqish xori quvnoq slavyancha,

lo'licha raqslar bilan almashadi. Qizlar hazilona "Сватушка" ("Sovchi xonim") qo'shig'ini kuylaydilar. Bu qo'shiq xalq so'zlari bilan ijro etiladi.

29

Ўrtacha

Сва - туш - ка, сва - туш - ка, бес - тол - ко - выи сва - туш - ка По не - вес - ту е - ха - ли.
во - то - род за е - ха - ли. Пш - ва боч - ку про - ли - ли, все ка - нус - ту по - ли - ли.

Qo'qqisidan Natasha ovozi jaranglaydi: uning qayg'uga to'la qo'shig'i sarosimaga sabab bo'ladi.

Natasha qo'shig'i voqealar rivojlanishida burilish lahzasi sifatida xizmat qiladi. Xursandchilik avjiga chiqqanda, orkestrda arfa cholg'usining mayin, shu bilan birga, tiniq sadolari eshitiladi, mungli kuyni esa goboy ijro etadi. Keyin Natashaning ovozi eshitiladi:

Eshitingmi, singlim
baliq,
Jilg'amiz xabarini?
Go'zal qiz g'arq
bo'lganin,
O'z do'stini
qarg'aganin...

Toshlar uzra, sariq
qumlardan
Sho'x jilga oqib o'tar,
Bu tez suvda ikki baliq,
Jajjigina o'ynab, suzar.

30

Sekin

По ка - муш - кам по жел - ту не - дол - ю про - бе - га да ба -
стра - я ре - ка, про - бе - га да ба - стра - я ре - ка...

Qo'shiq oddiy va ta'sirchan, og'ir, cho'zib ijro etiladi. U qattiq sevib qolgan Natashani emas, balki ertakona rusalkaning obrazini tasvirlaydi. Birinchi pardada Natashaning vokal partiyasiga orkestrdagi torli yoki puflama cholg'ularning iliq temblari jo'r bo'lgan edi. Arfa cholg'usi torlarining sadosi afsonaviy sovuq mahluqot obrazini yaratadi.

Barcha xijolat va hayajonda. Knyaz qo'rqqani holda xizmatkordan tegirmonchi qizini topishni va olib chiqishni talab qiladi. Yosh knyagina xunuk voqeani oldindan sezadi:

To'yimizda qayg'uli qo'shiq
Yangragani yaxshilikkamas...

Knyaz yosh rafiqasini o'payotganida ham Natashaning achchiq ingrashi eshutilib turadi. Hamma vahimaga tushadi va boyonlar to'yi g'amgin tugaydi.

Uchinchi parda. Knyagina xonasi. Oradan o'n ikki yil o'tdi. Nikoh to'yi knyazga ham, knyaginaga ham baxt keltirmadi. Knyaz ma'yus, ko'pincha uydan chiqib ketadi, Natasha bilan baxtiyor yurgan joylarga boradi. Knyagina esa yolg'iz zerikadi. Uning dugonasi Olga, knyaginani xursand qilish maqsadida, "Как у нас на улице" ("Ko'chamizda bir kuni") hazil qo'shig'ini kuylaydi. Xizmatkordan knyaz yolg'iz Dnepr daryosi bo'yida ekanligidan xabar topib, Knyagina Olga bilan birga o'sha tomonga borishga qaror qiladi.

Dnepr qirg'oqlarida rusalkalar xorovod kuylashadi. Knyagina paydo bo'lishi bilan ular g'oyib bo'ladilar. Qachonlardir tegirmon bo'lgan joy endi xarobaga aylangan: "Веселый шум колес ее умолкнул" ("So'ndi g'ildiraklar sho'x shovqini"). Knyaz Natasha bilan birgalikda o'tgan baxtli onlarini alam bilan eslaydi. Yillar o'tdi, u esa Natashani, uning samimiy va ulkan muhabbatini unuta olmadi. Endi knyaz o'kinch va pushaymonda. Tanish joylar unda g'amgin xotiralarni uyg'otdi.

“Невольню к этим грустным берегам...” (“Beixtiyor shu g’amgin qirg’oqlar sari...”) knyaz kavatinasi kuychan rechitativ bilan boshlanadi. Uning musiqasi o’ychan va mungli:

31

O’rtacha

Не-воль-но я-тим груст-ным бе-ре-гам ме-ня впе-чёт не-ве-до-ма-я

си-ла, ни-ко-мы-с, ис-челп-ны-с ме-ста!

Natashaning otasi, tegirmonchi, bunday kulfatdan esini yo’qotib, o’zini qarg’aga aylanib qolganman deb o’ylardi. U bechora ahvolda knyaz bilan uchrashadi va uni tanimaydi. Ushbu dramatik sahna boshidan oxirigacha, operaning birinchi pardasi kabi, uzluksiz, “yalpi” rivojlanish asosida qurilgan. Knyaz bilan uchrashuv tegirmonchini qattiq hayajonlantiradi. Baxtsiz tegirmonchi Natashaning kulfatli taqdirini eslaydi. Uning qizi go’yo atrofdagi daryolar malikasi – suv parisiga aylanib qolgandek tuyuladi. Uning kichkina qizi bor, ba’zida unga qarab turadi.

Knyaz eshitganlaridan dahshatga tushadi. U tegirmonchini uyiga taklif qiladi, biroq tegirmonchi qizining dahshatli o’limini eslab, qo’rquvda ko’nmaydi. Baxtsiz chol g’azab bilan qichqiradi: “Aldab olib kirarsan, keyin marjon bilan bo’g’arsan”. U tushkunlikka tushib, qizini qaytarishni so’rab Knyazga yolboradi. G’azabli jazavada u knyazga tashlanadi. Xizmatkorlar o’z xo’jayinlarini qutqarib qoladilar.

To’rtinchi parda. Suv parilarning suv ostidagi uyi. Natasha Dnepr daryosi malikasi. Kech kirmoqda. U rusalkalarning qirg’oqqa chiqishlariga ruxsat beradi va qizi – kichkina rusalkadan yuqoriga suzib chiqib, uning otasi – knyazni aldab chaqirib olib kelishni so’raydi. Natasha payt poylab, qasos olmoqchi:

Noumid, tashlandiq qiz	O'tdi to'liq o'n ikki yil.
kabi	O'yladim qasosni har kun;
O'zni suvga otgandim men	Ko'rinar, endi keldi vaqt!
Va Dnepr daryosi tubida	
ochdim ko'z	
Sovuq va qudratli suv	
parisi bo'lib,	

Dnepr daryosi qirg'og'i. Knyaz yana bu yerga qaytib keladi. Knyagina bilan Olga ham paydo bo'ladi. Knyazni ko'rib, ular yashirinadilar. Knyazning o'z qizi – kichkina rusalka bilan uchrashuvi ro'y beradi. Kichkina rusalka onasi haqida so'zlab, uni o'zi bilan birga borishga chaqiradi. Knyagina va Olga Knyazni ushlab qolish uchun qilgan harakatlari bekor ketadi. Dnepr daryosi tubidan Natashaning ovozi eshitiladi – u knyazni chaqirmoqda. Kichkina rusalka knyazni ergashtiradi, tegirmonchi unga ko'maklashadi. Rusalkalarning achchiq istehzoli kulgilari jaranglaydi.

Epilogda suv osti saltanati tasvirlanadi. Rusalkalar knyazning jonsiz tanasini o'zlarining malikalari oyog'i ostiga qo'yadilar. Rusalka shu yo'sinda aldangan qiz – Natasha uchun qasos oladi. Orkestrda uning xalq alla qo'shiqlari ohangi asosida tuzilgan chaqiruv mavzusi mag'rur va hukmron ruhda sadolanadi.

“Suv parisi” operasi rus klassikasining eng sevimli operalari qatoridan munosib o'rin olgan. Unda A.S.Dargomijskiy dadil novator sifatida o'zini ko'rsatib, bir vaqtning o'zida samimiy, tushunarli, o'sha vaqtdagi rus voqeligining qora tomonlarini jo'shqin va nafrat bilan ochib beruvchi asar yarata oldi.

Savol va topshiriqlar

1. “Suv parisi” operasining yaratilishi va sahnalashtirilishi haqida so'zlab bering.

2. Bu operada kompozitor o'z oldiga qanday yangi vazifalar qo'ydi?

3. Opera tuzilishining xususiyatlari va musiqiy uslublarning novatorligi nimada?

4. Asarning mazmunini bayon qiling.

5. Bosh qahramonlar Natasha, tegirmonchi, knyaz xarakterlari operaning qaysi sahnalarida va qanday musiqiy ifodali vositalar orqali ochib berilgan?

ROMANSLAR VA QO'SHIQLAR

A.S.Dargomijskiy ijodida romanslar va qo'shiqlar muhim o'rin egallaydi. Ularning soni yuztadan ortadi. A.S.Dargomijskiy vokal musiqasining mazmuni juda boy. Bu yerda dilkash lirika, hazilona sho'xlik va dramatism, xotirjam manzara(peyzaj)lar va o'ziga xos turmush ko'rinishlari, ba'zida o'tkir ijtimoiy satira mavjud, A.S.Dargomijskiyning novatorligi ham ana shunda bilinadi. Romanslarda ayniqsa insonning ichki dunyosi, uning fikr-o'ylari, his-tuyg'usi va xarakteri bilan chuqur va ruhiy tomondan haqqoniy tarzda ochib berilgan.

“**Мне минуло шестнадцать лет**” (“Men o'n olti yoshga to'ldim”) (A. Delvig so'zi) – xarakter talqinining namunali misolidir. Musiqaning birinchi taktlaridanoq tinglovchi ko'z o'ngida sal ayyorroq, mehribon, quvnoq va nozikkina yosh qiz obrazi namoyon bo'ladi. Bunday taassurot yaratilishiga major ladi va erkin vals ritmi yordam beradi. Kuy, o'zining kutilmaganda nozik burilishlari bilan ifodali sadolanadi. U go'yo sho'x qizning o'zgaruvchan, biroz tantiqroq didini, uning nafis harakat va imolarini tasvirlaydi:

32

O'rtacha tez

Мне ми - ну - ло шес - ть - на - цать лет. Но сер - це не ста - ло во - ле
ду - му - те вес - е - ная сме - ть. Се - ная сме - ть - ням гор, но - ток и по -

M. Lermontov so'ziga yozilgan "Мне грустно" ("Men xafaman") romansi, chuqur lirizm bilan yo'g'rilgan. Pushkin va Lermontov Dargomijskiyning sevimli shoirlari bo'lishgan. Ularning dahosi ko'plab rus kompozitorlari uchun ilhom manbayi bo'lib xizmat qilgan. Ushbu romans musiqasi she'r mazmunini noziklik bilan talqin etadi, uning ma'yus kayfiyatini yanada kuchaytiradi. Bu yerdagi ifodaviy vositalar tamomila o'zgacha.

Fortepiano partiyasi maishiy romanslaridagi gitara jo'navozligini eslatadi. Gitara torlarining shunday o'ychan, mayin va ohista jarangida deklamatsiya xususiyati bo'lgan vokal kuyida samimiy iqrorlik sadolanadi. Bu go'yo odamning orada xo'rsinish bilan to'xtashlari bo'lgan jonli nutqi, ravon kuy. U turli o'ylar va g'amginlikka to'la. "Men xafaman" so'zlariga aytiladigan birinchi jumla pastga yo'nalgan kamaytirilgan kvinta (triton) hamda o'zining ohang ifodaviyligi bilan chuqur taassurot qoldiradi:

33

O'rtacha

Musiqiy qo'shiqning o'rtacha tempoda ijro etilishi. Ushbu qisqa parcha, aslida romansning boshida uchraydigan mavzuni taqdim etadi. Ushbu mavzu, aslida qo'shiqning boshida uchraydigan mavzu bilan bir xil bo'lgan. Ushbu mavzu, aslida qo'shiqning boshida uchraydigan mavzu bilan bir xil bo'lgan.

19

15 - 10 - 10 - 10 - 10 10 - 10 - 10 - 10 - 10 10 - 10 - 10 - 10 - 10

Kuy o'zining rivojlanishida matnga ergashadi, uning yakuniy kulminatsiyasi she'rning asosiy g'oyasi – munofiqlar jamiyatida, makkor va yovuz odamlar orasida baxtga erishish mumkin emas degan fikrni ta'kidlaydi. Lermontov she'ri aziz inson taqdiriga nisbatan qayg'urish bilan yo'g'rilgan va bu kayfiyat Dargomijskiy romansida noziklik bilan talqin etiladi. Unda kompozitorning asosiy tamoyili yorqin namoyon bo'ldi: "Tovush to'g'ridan-to'g'ri so'zni ifodalashini istayman. Haqiqatni istayman".

“**Keksa kapral**” – balladaga o‘xshash dramatik qo‘shiq, fransuz inqilobi shoiri Pyer Beranje, so‘zlariga yozilgan (V.Kurochkin tarjimasi). U A.S.Dargomijskiy ijtimoiy adolatsizlik, tengsizlik g‘oyalarini aks ettirgan qo‘shiqlar sirasiga kiradi.

Qo‘shiqda keksa askar taqdiri to‘g‘risida hikoya qilinadi, u yosh zobit tomonidan qilingan haqoratni ko‘tara olmaydi va shuning uchun otib tashlashga hukm qilinadi. Qatl joyiga qadam tashlar ekan, u o‘z o‘rtoqlarining ko‘nglini ko‘tarishga harakat qiladi: “Birgalikda, yigitlar! Bir! Ikki! Ko‘krakni ko‘tar, nolima, to‘g‘ri tur! Bir! Ikki! Bir! Ikki!”

Musiqada A.S.Dargomijskiy keksa askarning mardonavor qiyofasini haqqoniy va haqiqiy badiiy qudrat bilan tasvirladi, uning kechinmalarini chuqur aks ettirdi. O‘zining kuy tuzilishidagi turli xarakterli naqaroti bo‘lgan kupletlarda kompozitor keksa askarning o‘z o‘rtoqlariga qarata aytgan nutqini hamda uning hayot razilliklari haqidagi o‘ylarini, achchiq alam va o‘tmish xotiralarini tikladi. O‘rta qism kuychan va sekinroq bo‘lib, unda u ona qishlog‘ini, u yerdagi keng yaylovlar va kampirini eslaydi.

Aniq marsh ritmida takrorlanuvchi naqarot – uning o‘rtoqlariga murojaati – xuddi safdagi kapral tomonidan beriladigan buyruqqa o‘xshaydi. Qo‘shiqning musiqasi matnga ravon ergashadi, tabiiy va erkin rivojlanadi. Qo‘shiqda marsh ritmi muhim ifodaviy rol o‘ynaydi:

34

O‘rtacha

Bir - ikki, bir - ikki, bir - ikki, bir - ikki. Bir - ikki, bir - ikki, bir - ikki, bir - ikki.
 Bir - ikki, bir - ikki, bir - ikki, bir - ikki. Bir - ikki, bir - ikki, bir - ikki, bir - ikki.
 Bir - ikki, bir - ikki, bir - ikki, bir - ikki. Bir - ikki, bir - ikki, bir - ikki, bir - ikki.
 Bir - ikki, bir - ikki, bir - ikki, bir - ikki. Bir - ikki, bir - ikki, bir - ikki, bir - ikki.

Rus musiqasi tarixida A.S.Dargomijskiy ijodi katta ahamiyatga ega. U M.Glinka ishining davomchisi bo'lib, ijtimoiy fosh etish mavzusini o'z ijodida ko'tarib chiqqan birinchi rus kompozitorlaridan bo'ldi. Hajviy va satirik qo'shiqlar yaratib, kamer-vokal lirika obrazlari doirasini kengaytirdi. A.S.Dargomijskiy hayotining so'nggi kunlarigacha o'z davrining ilg'or kishilari bilan birga bo'ldi, u kompozitor-realist sifatida tarixga kirdi. M.Musorgskiy uni "musiqiy haqiqatning buyuk o'qituvchisi" deb atagani ham bejiz emas.

Savol va topshiriqlar

1. *A.S.Dargomijskiyning sizga ma'lum bo'lgan qo'shiq va romanslari nomlarini aytib bering.*

2. *A.S.Dargomijskiyning she'riy matnga bo'lgan munosabatini aytib bering.*

3. *"Men o'n olti yoshga to'ldim" romansi musiqiy obrazini tavsiflang.*

4. *"Men xafaman" romansi kimning so'ziga yozilgan? Kuyini tavsiflab bering.*

5. *"Keksa kapral" dramatik qo'shig'i mazmuni va musiqasi haqida gapirib bering.*

ASOSIY ASARLARI

Operalar: "Esmeralda", "Suv parisi", "Vakx tantanasi" va "Tosh mehmon".

Simfonik pyesalar: "Kazachok", "Baba-Yaga", "Chuxon fantaziyasi".

Yuzta qo'shiq va romanslar (Kolsov, Kurochkin, Pushkin, Lermontov va boshqa shoirlar so'zlariga).

Vokal ansambllar.

Fortepiano pyesalari.

XIX ASR IKKINCHI YARMIDA RUS MUSIQASI

XIX asrning ikkinchi yarmi, butun rus san'ati kabi, rus musiqasining gullab-yashnagan davri bo'ldi. Ijtimoiy ziddiyatlarning o'ta keskinlashuvi 60–yillar boshida jamiyatning ulkan ko'tarilishiga olib keladi. Rossiyaning Qrim urushidagi (1853–1856) mag'lubiyati uning qoloqligini ko'rsatdi, krepostnoy huquq mamlakat rivojlanishiga to'siq bo'layotganligini isbot qildi. Dvoryan ziyolilarining eng ilg'or vakillari va boshqa tabaqadagilar samoderjaviyega qarshi otlandilar.

Rossiyada inqilobiy harakatning rivojlanishida A.Gersen va uning “Kolokol” (“Qo'ng'iroq”) norasmiy jurnali muhim ahamiyatga ega bo'ldi. N.Chernishevskiy va N.Dobrolyubovlar faoliyati ham jiddiy ahamiyat kasb etdi. “Sovremennik” (“Zamondosh”) jurnalida hamkorlik qilib, shoir N.Nekrasov bilan birgalikda N.Chernishevskiy va N.Dobrolyubov krepostnoy istibdodga qarshi katta fosh etuvchi kuch bilan chiqdilar, hukumatning reaksiyon islohotlarini fosh etdilar, dehqonlar inqilobi g'oyasini ilgari surdilar.

60–yillar inqilobiy g'oyalari adabiyot, tasviriy san'at, musiqada o'z aksini topdi. Rus madaniyatining ilg'or arboblari san'atning oddiyligi va hammabopligi uchun kurashdilar, asarlarda ezilgan xalq hayotini haqqoniy tarzda aks ettirishga harakat qildilar.

N.A.Nekrasov (1821–1877) o'zining fosh etuvchi she'rlarida 60–yillar inqilob yoshlarining yuksak g'oyalarini talqin etdi. Uning eng yaxshi she'r va poemalari rus xalqi og'ir taqdirining

o'ziga xos solnomasidir. Uni "qasos va qayg'u" kuychisi deb bekorga atashmagan. N.Nekrasov she'rlarining barcha ilg'or rus kishilari berilib o'qishardi, ular N.Chernishevskiy va N.Dobrolyubov maqolalari singari inqilobiy targ'ibot vositasi edi.

XIX asr ikkinchi yarmida rus tasviriy san'atida V.Perov, I.Kramskoy, I.Repin, I.Surikov, V.Serov, I.Levitan kabi ajoyib rassomlar ijod qilishdi. Ularning nomlari "Ko'chma badiiy ko'rgazmalar o'rtoqligi" bilan bog'liq bo'lgan. Tasviriy san'at ko'rgazmalari butun Rossiya bo'ylab tashkil qilina boshlandi. Shu sababli ularni "ko'chma ko'rgazmalar" deb atashgan, ushbu birlashmaga kirgan rassomlarni "peredvijniklar" deb nomlashgan. Peredvijniklar san'ati rivojlanishiga ajoyib rus arbobi V.V.Stasov maqolalari yordam bergan. O'zining tanqidiy chiqishlarida V.Stasov «Peredvijniklar san'ati – bu Rossiyaning faxri va shuhrati», – deb ta'kidlagan. Peredvijniklarni o'z rasmlari bilan "san'atni tubanlashtiradilar" deb ayblovchilarni u achchiq tanqid ostiga olgandi.

Peredvijnik rassomlarga P.M.Tretyakov katta yordam ko'rsatdi, u hozirda o'zining nomi bilan yuritiladigan galereya uchun rus rassomlarining sara asarlarini sotib oldi. O'zining ajoyib to'plamini u 1892–yilda Moskva shahriga tuhfa qildi.

Musiqiy hayotda ham ko'plab o'zgarishlar ro'y berdi. Oldinlari faqat aristokratiya davrasida sadolanadigan kamer va simfonik musiqa bu doiradan chetga chiqdi va keng tinglovchilar ommasi mulkiga aylanib bordi. Bunda 1859–yili Peterburg shahrida va bir yil o'tgach Moskvada Rus musiqa jamiyatining (RMO) tashkil qilinishi katta ahamiyat kasb etdi.

RMO tashkil qilinishiga ajoyib rus pianinochisi Anton Grigoryevich Rubinshteyn ko'p kuch va harakatini sarfladi. Rus musiqa jamiyati o'z oldiga "yaxshi musiqani katta omma tinglay olishi uchun imkoniyat yaratish"ni maqsad qilib qo'ydi.

RMO tomonidan tashkil qilinadigan konsertlarda rus artistlari chiqish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

1862–yilda Peterburgda birinchi rus konservatoriyasi ochildi. A.Rubinshteyn uning direktori etib tayinlandi. 1866 - yilda esa Moskva konservatoriyasining ochilish marosimi bo'lib o'tdi, uni Anton Grigoryevichning ukasi – Nikolay Grigoryevich Rubinshteyn boshqardi, u ham yuqori ma'lumotli musiqachi, ajoyib pianinochi, dirijor va yaxshi pedagog edi. N.Rubinshteyn uzoq yillar Moskva konservatoriyasiga rahbarlik qildi, u P.Chaykovskiy va Moskvadagi boshqa ilg'or musiqachilar, artistlar hamda yozuvchilarning do'sti edi.

Peterburg va Moskvada konservatoriyalarning ochilishi bir necha yildan so'ng o'zining birinchi samarasini bera boshladi. O'qishni birinchi bo'lib tugatganlar keyinchalik Rossiyaning faxri va shuhratiga aylandilar. Ular orasida 1865–yilda Peterburg konservatoriyasini tugatgan P.Chaykovskiy bor edi.

1862–yilda M.Balakirev tashabbusi bilan ochilgan bepul musiqa maktabi ommaviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ta'lim muassasasi edi. Uning maqsadi oddiy musiqa shinavandasiga asosiy musiqiy-nazariy ma'lumotlar va xor bo'lib kuylash, shuningdek, orkestr cholg'ularida chalish ko'nikmalarini berishdan iborat edi. Shunday qilib, 60–yillarda Rossiyada ilk bor turli yo'nalishlardagi musiqa ta'limi muassasalari paydo bo'ldi.

60–yillar musiqa ijodida P.Chaykovskiy va M.Balakirev to'garagiga kirgan bir guruh kompozitorlar yetakchi o'rin egalladilar. Gap “Новая русская школа” (“Yangi rus maktabi”) yoki, uni o'z maqolasida V.Stasov “Могучая кучка” (“Qudratli to'da”) deb atagan to'garagi to'g'risida ketmoqda. V.Stasov o'zining M.Balakirev rahbarligidagi konsertga atab yozgan maqolasida shunday degan edi: “...rus musiqachilarining kichkina, lekin qudratli to'dasida qanchalar poeziya, tuyg'u, iqtidor va mahorat bor”.

“Moguchaya kuchka”ga M.Balakirevdan tashqari S.Kyui, M.Musorgskiy, A.Borodin va N.Rimskiy-Korsakovlar kirishgan. M.Balakirev yosh kompozitorlar faoliyatini rus musiqasining milliy rivojlanish yo‘lidan borishiga yo‘naltirishga intildi, ularga kompozitorlik texnikasini egallashlarida amaliy yordamlashdi. O‘zi mohir pianinochi va kompozitor bo‘lgani holda, u yosh do‘stlari oldida katta obro‘ga ega edi. N.Rimskiy-Korsakov keyinchalik o‘zining “Летопись моей музыкальной жизни” (“Musiqiy hayotim solnomasi”) kitobida shunday yozgan edi:

“Unga so‘zsiz quloq solishardi, zero M.Balakirev shaxsining jozibasi o‘ta kuchli edi. Yosh, o‘t chaqnaq turgan harakatchan ko‘zlari... ishonchli, e‘tiborli va to‘g‘ri so‘zligi; fortepinoda har daqiqada ajoyib improvizatsiyaga tayyor turishi, unga ma‘lum bo‘lgan har bir takti yodida tutishi, chalayotgan asarni shu zahotiyoyq yodlab olishi... u hech kimchalik bunday jozibaga ega bo‘lishi shart edi. Boshqa kishida iqtidorning eng kichkina belgisini qadrlagan holda, u o‘zining shu kimsadan yuqori turganligini sezmaslari mumkin emas edi va ushbu kimsa ham uning o‘zidan yuksakroq ekanligini sezardi. Uning atrofdegilarga bo‘lgan ta‘siri chegarasiz edi...”

“Moguchaya kuchka” kompozitorlari o‘zlarini M.Glinka vorislari deb atashardi va o‘z maqsadlarini uning ishini davom ettirish, rus musiqasini rivojlantirishda deb bilardilar. Xalq hayotini musiqada haqqoniy, yorqin, ortiqcha bo‘yoqlarsiz, ommaga tushunarli tarzda talqin etish ularning bosh maqsadlari edi. “Moguchaya kuchka” kompozitorlari san‘at ulkan tarbiyaviy ahamiyatga ega deb hisoblardilar, Barcha Rossiya san‘at arboblari singari ularning shiorlari N.Chernishevskiyning “San‘at odamlar bilan suhbat qilish vositasidir” so‘zlari edi.

Rus xalqining tarixi va turmushi bilan tanishib, “Moguchaya kuchka” kompozitorlari (S.Kyuidan tashqari) rus xalq qo‘shiqlarini sevib to‘plashar va o‘rganishardi. Xalq

qo'shiqlarini ular o'z asarlarida keng va har taraflama qo'llashdi.

“Moguchaya kuchka” kompozitorlari o'z musiqa ijodlarida rus va qisman ukrain qo'shiqlari uslubiga tayanishga harakat qildilar. M.Glinka kabi ularda Sharq xalqlari, ayniqsa Kavkaz va O'rta Osiyo musiqasi juda katta qiziqish uyg'otdi. Xalq qo'shiqlari bilan P.Chaykovskiy ham qiziqdi. Biroq M.Balakirev to'garagi kompozitorlaridan farqli ravishda u ko'proq shahar xalq qo'shig'iga, turmush romansi ohanglariga murojaat qilardi.

60– va 70–yillarda rus musiqasi rivojlanishi eskilik tarafdorlari bo'lgan tanqidchilar va mansabdorlar bilan to'xtovsiz kurash jarayonida kechdi, ular xorijiy ijrochilar va chet el mualliflarining rusumga kirgan operalarini yoqtirishar, bu esa rus operalarini sahnalashtirishga xalaqit berardi. P.Chaykovskiyning so'zlariga ko'ra, rus musiqasi uchun “na makon, na vaqt qolmagan” edi.

60– va 70– yillar rus musiqasi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Turli to'siqlar, quvg'inlarga qaramasdan u xalqqa ozodlik, ulkan orzularni ro'yobga chiqarish yo'lida kurashishiga yordamlashdi. San'atning barcha turlari va adabiyotda ko'plab ajoyib asarlar yaratildi. O'sha davrning rus san'ati milliy-xalq badiiy ijodining kelajak rivoji uchun yangi ufqlar ochib berdi.

Savol va topshiriqlar

1. XIX asrning 60–yillari Rossiyanin ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida qanday ahamiyatga ega bo'ldi?

2. N.Chernishevskiy va N.Dobrolyubov tanqidchilik faoliyatining ahamiyati nimada?

3. 60–70–yillar yozuvchilari va rassomlari, ular ijodining g'oyaviy va estetik tamoyillari haqida so'zlab bering.

4. "Moguchaya kuchka" guruhiga kiruvchi kompozitorlarni aytib bering. Ular ijodidan o'rin olgan g'oyaviy-estetik qarashlar nimalardan iborat?

5. "Moguchaya kuchka" tashkilotchisi va rahbari sifatida M.Balakirev haqida so'zlab bering.

6. V.Stasovning tanqidchilik faoliyati va uning rus san'ati rivojlanishidagi ahamiyatini tavsiflang.

**MODEST PETROVICH
MUSORGSKIY,
(1839–1881)**



“Moguchaya kuchka” kompozitorlari orasida M.P.Musorgskiy XIX asrning 60–yillari inqilobiy-demokratik g’oyalarini musiqada eng yorqin ifodalagan ijodkorlardan biri edi. Aynan Musorgskiy musiqada rus xalqi hayoti haqidagi achchiq haqiqatni har taraflama, katta fosh etuvchi kuch bilan ochib bera oldi, V.V.Stasov aytganidek, “rus odamlarining butun okeani, hayoti, xarakterlari, munosabatlari, baxtsizligi, chidab bo’lmas qiyinchilik, xo’rlanishlarni” tasvirlay oldi. M.P.Musorgskiy operami, qo’shiqmi, xor yozadimi, – hammasida u ijtimoiy adolatsizlikni o’tkir va jo’shqin fosh etuvchi sifatida namoyon bo’ladi. A.Dargomijskiy ko’rsatmalariga rioya qilgan holda, uni “musiqahqiqatining buyuk o’qituvchisi” deya atab, M.P.Musorgskiy undan ham nariga, xalq hayotining hali ochilmagan tubigacha yetib bordi. Butun hayoti davomida u san’atda yangi yo’llarni izladi, hech qachon topilgan narsalardan qoniqmadi va doimo “yanada yaxshiroqni izlash uchun yaxshidan voz kechdi”.

HAYOT YO’LI

Modest Petrovich Musorgskiy 1839–yil 9–martda Pskov guberniyasi Toropetsk uezdining Karevo qishlog’ida

pomeshchik oilasida tug'ildi. Bo'lajak kompozitorning buvasi krepostnoy dehqon edi. Modest Petrovichning otasi mansabdorlik xizmatida, onasi uncha boy bo'lmagan pomeshikning qizi edi. U musiqa sohasida savodli va yaxshi pianinochi edi, o'g'lining birinchi musiqa o'qituvchisi bo'ldi.

Modestning tarbiyachisi unga sodiq va sevuvchi enaga edi. A.Pushkinning enagasi kabi, u ko'plab qo'shiq va ertaklar bilardi. Aynan uning ertaklari, eslaydi M.P.Musorgskiy, fortepianoda musiqiy improvizatsiyalarga sabab bo'ldi, bu vaqtda u fortepianoda chalishning boshlang'ich qonun-qoidalari to'g'risida hali tasavvurga ham ega emasdi. Bolalik yillari esdaliklari uning ilk fortepiano uchun pyesalari va "Bolalar uchun" vokal turkumining ayrim nomerlarida aks etgan. Ona qishlog'i, ona yurtining boy va ayovsiz tabiatida eshitgan xalq qo'shiqlari va ayimlari unda unutilmas yorqin taassurot qoldirgandi.

M.P.Musorgskiy musiqa bilan besh yoshidan shug'ullanishni boshladi va tez orada muvaffaqiyatga erishdi. Chunonchi, to'qqiz yoshida u mehmonlar oldida Fildning murakkab konsertini ijro etdi. Uning musiqiy qobiliyatini sezishdi, lekin musiqachi kasbi to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas edi: pomeshiklar doirasida bu mashg'ulot dvoryanga noloyiq deb hisoblanardi. Uydagilarning istagi bo'yicha, Modest oiladagi boshqa yigitlar kabi zobit bo'lishi kerak edi.

1849-yilda M.P.Musorgskiyni akasi bilan Peterburgga olib borib, Petropavlovsk nemis maktabiga berishdi. Bir vaqtning o'zida o'sha vaqtdagi taniqli pedagog A.Gerke bilan musiqa mashg'ulotlari boshlandi. Keyin M.P.Musorgskiy gvardiya podraporshiklari maktabiga o'qishga kirdi, uni tugatgach, Preobrajensk polkiga qabul qilindi. M.P.Musorgskiy mustaqil hayotining birinchi yillari harbiy xizmatdagi o'rtoqlari hayotidan farq qilmadi. U dunyoviy va yengil hayot kechira boshladi: turli ko'ngil ochishlarda qatnashar, ballarda raqsga

tushar, raqslarni bajon-u dil ijro etar va ommalashib ketgan italyan operalaridan parchalar kuylardi.

Tez orada muhim voqealar M.P.Musorgskiy hayotida burilish yasadi. 1957–yilda u avval A.Dargomijskiy bilan, keyin yosh M.Balakirev bilan tanishadi. Shu vaqtdan boshlab musiqa mashg‘ulotlari va ularning o‘rtasidagi qalin do‘stlik boshlandi. Biroq zobitlik xizmati ko‘p vaqt olar, ijodiy ishdan chalg‘itardi. Shuning uchun bir yildan so‘ng M.P.Musorgskiy iste‘foga chiqadi va o‘zini butunlay musiqaga bag‘ishlaydi. Ammo tirikchilik o‘tkazish uchun u kichik xizmatchi sifatida ishlashga majbur bo‘ldi.

Yosh yigit “Moguchaya kuchka” kompozitorlari: M.Balakirev, S.Kyui, A.Borodin, N.Rimskiy-Korsakov, shuningdek, tanqidchi V.V.Stasov bilan muloqotdan juda xursand bo‘ladi. Do‘stlar to‘planishar, o‘z asarlarini ijro etishar, ularni muhokama qilishardi. O‘sha yillarda M.Balakirev jamoaning jon-dili bo‘lib, katta obro‘ga ega edi.

1863–yilda M.P.Musorgskiy ilg‘or talaba yoshlar bilan yaqinlashdi va bir qancha vaqt kommunada besh nafar do‘stlari bilan yashadi. Ular ko‘p o‘qishar, adabiyotdagi yangiliklarni muhokama qilishar, san‘atning o‘rni, ijtimoiy hayot haqida bahslashishardi. N.Chernishevskiyning “Nima qilmoq kerak” romani ta‘sirida paydo bo‘lgan bunday kommunalar 60- yillarda ilg‘or, demokratik kayfiyatdagi yoshlar va talabalar orasida keng tarqalgan edi.

1860–yillar boshlarida M.P.Musorgskiy Flober romani asosidagi o‘zining birinchi “Salambo” operasi ustida ishlaydi. Bu asarning ulkan xalq sahnalarida kompozitorning o‘ziga xos xususiyatlari namoyon bo‘ladi (opera tugallanmasdan qoldi). 1867–yilda birinchi tahrirda “Иванова ночь на Лысой горе” simfonik manzarasi yaratiladi. Shu vaqtning o‘zida N.Nekrasov so‘zlariga ajoyib qo‘shiqlar: “Kalistrat”, “Yeremushkaga alla” paydo bo‘ladi. 1868–yilda M.P.Musorgskiy N.Gogol hajviyasi matniga “Uylanish” operasini boshlaydi. Faqat birinchi parda

yozilganiga qaramasdan, kompozitor uchun bu ish juda muhim bo'ldi. A.Dargomijskiy singari, u musiqiy ifodaviylikning yangi vositalarini izlaydi, musiqiy tilni inson ovozi ohanglari, so'z nutqiga yaqinlashtirishga harakat qiladi.

M.P.Musorgskiy iqtidorining butun kuchi A.Pushkinning fojiasiga yozilgan "Boris Godunov" operasida namoyon bo'ldi.

"Boris Godunov" sujeti M.P.Musorgskiyni juda qiziqtirib qo'ydi. U doimiy ijodda yonib yashadi. Asar yozilishi tez kechdi va 1869–yilda opera partiturasini birinchi tahrirda tugatilgan edi. Vafotidan birmuncha vaqt oldin operaning ayrim sahnalarini tinglashga ulgurgan A.Dargomijskiy uni hayajon bilan ma'qulladi. M.Balakirev to'garagidagi do'stlari ham operani qizg'in kutib oldilar. Biroq opera sahnalashtirishga qabul qilinmadi. Teatr qo'mitasi M.P.Musorgskiyning quloq eshitmagan dadil g'oyasidan g'azabda edi.

Operaning rad etilishi kompozitorda og'ir taassurot qoldirdi. Do'stlari operani qayta ishlashga uni ko'ndirishdi. Ikkinchi tahrirda Marina Mnishkek roli bilan ikkita polyak sahnasi kiritildi va, bundan tashqari, xalq isyoni, "Kroma ostidagi sahna" deb ataluvchi kulminatsiya sahnasi qo'shildi. M.P.Musorgskiy do'stlari, ayniqsa V.Stasov va N.Rimskiy-Korsakov, "Boris Godunov"ning ikkinchi tahririni zavqlanib kutib oldilar. Ikkinchi tahrir 1872–yilda tugatildi. Lekin faqat sahnalashtirish uchun uzoq va sabotli kurashdan so'ng, 1874–yil 8–fevralda nihoyat, "Boris Godunov" operasining premyerasi bo'lib o'tdi. Opera zo'r muvaffaqiyat qozondi.

"Boris Godunov"ning sahnalashtirilishi bilan bog'liq hayajon va iztiroblar Modest Petrovichning sog'lig'iga og'ir ta'sir qildi va u faqat do'stlarining samimiy qo'llab-quvvatlashlarida o'zining yuksak g'oyalari, san'atdagi haqiqat uchun kurashga kuch topa oldi. Uning N.Rimskiy-Korsakov bilan do'stligi alohida ahamiyat kasb etardi, bu do'stlik qiyinchilik yillarida yanada mustahkamlandi. 1817–yilda ular hatto bir joyda

yashab, bir xonada, bitta cholg'u asbobida ishladilar. M.P.Musorgskiy hayotida V.Stasov bilan doimiy muloqot katta rol o'ynadi. Kompozitor tez-tez uni ko'rgani borar, og'asi Dmitriy Vasilyevich Stasovning dala hovlisida mehmonda bo'lar, ko'p vaqtini bu do'stona oila farzandlari bilan o'tkazardi. Kichkina bolalar bilan uchrashuvlar, ular hayotini kuzatish M.P.Musorgskiy "Bolalar uchun" vokal turkumini yaratishga undadi. Ushbu qo'shiq turkumida u katta sezgirlik bilan bolalar qalbining o'ziga xos dunyosini aks ettirdi.

1870–yillarda M.P.Musorgskiy yana rus tarixiga murojaat qildi. Uni XVII asr oxiridagi voqealar – o'qchilar isyoni va raskol mazhabdagilar harakati qiziqtiradi. Bu eski boyarlar Rusining endigina taxtga o'tirgan Pyotr I islohotlariga qarshi keskin kurash vaqti edi. V.Stasov maslahati bilan M.P.Musorgskiy 1872–yilda "Xovanshina" operasi ustida ish boshladi. XVII asr oxiridagi Pyotr I islohotlariga qarshi o'qchilar isyoni va raskol mazhabidagilarning noroziligi progressiv tarixiy ahamiyatga ega bo'lmasada, xalq harakatida kompozitor rus xalqining kuchi va qudratining namoyon bo'lishini ko'rdi.

"Xovanshina" operasi V.V.Stasovga bag'ishlangan edi, u M.P.Musorgskiyga ish jarayonida o'zining maslahatlari bilan, kerakli tarixiy hujjatlarni izlab topishda ko'p yordam berdi. "Xovanshina" operasi ustida ishlash kompozitor hayotining deyarli oxirgi o'n yilini band qildi.

Bir vaqtning o'zida, 1874–yili, M.P.Musorgskiy N.Gogol povesti bo'yicha "Sorochinsk yarmarkasi" hajviy operasini yoza boshladi. Uning xushchaqchaq musiqasi xalq yumori, yorqin lirikaga to'la. Unda ukrain xalq qo'shiqlaridan keng foydalanilgan.

1874–yilda M.P.Musorgskiy yana bir betakror o'ziga xos asar – "Ko'rgazmadan rasmlar" fortepiano pyesalari turkumini yozdi, bu turkum iqtidorli rassom va arxitektor

V.Gartman rasmlari ko'rgazmasidan olingan taassurotlar asosida yaratildi.

1870–yillar o'rtasi va oxiri M.P.Musorgskiy hayotida og'ir davr bo'ldi. Tomoshabinlar yaxshi qabul qilishlariga qaramasdan “Boris Godunov” operasi qisqartirishlar bilan buzilgan holda juda kam qo'yilardi. Operaning birinchi marta qo'yilishidayoq senzura bir nechta sahnalarni ta'qiqlab qo'ygan edi. 60–yillardagi rus san'atkorlarini jonlantirgan ko'tarilish 70–yillarga kelib shafqatsiz bostirish (reaksiya) bilan almashdi. Sezgir va ta'sirchan M.P.Musorgskiy butun vujudi bilan reaksiya azoblarini boshidan o'tkazdi. Bu yillarda u yolg'izlikdan iztirob chekadi.

Vaziyat taqozosi bilan o'sha yillarda “Moguchaya kuchka” ijodiy yig'ilishlari to'xtab qoldi. Uzoq davom etgan og'ir kasallik M.Balakirevni do'stlaridan, musiqadan ajratib qo'ydi. A.Borodin hatto “Knyaz Igor” operasi ustidagi ishni ham tashlab, ijtimoiy-ma'rifiy faoliyatga berilib ketdi, o'sha vaqtda Peterburg konservatoriyasining professori N.Rimskiy-Korsakov esa o'zining butun vaqtini kompozitsiyaning texnik tomonlarini o'rganishga sarflardi. “Xovanshina” operasini yaratish kabi ulkan g'oyaga berilib ketgan M.P.Musorgskiyga bularning hammasi “Yangi rus maktabi” ishiga nisbatan sotqinlik bo'lib tuyilardi: “Moguchaya kuchka” yuraksiz sotqinlarga aylanib qoldi”, – o'kinch bilan o'z xatida shikoyat qiladi u V.Stasovga.

Ushbu vaqtning og'ir kechinmalari “Quyoshsiz” deb nomlangan zulmatli romanslar turkumi va fojiviy “O'lim qo'shiqlari va raqslari”da o'z aksini topdi (ikkala turkum ham A.Golenishev-Kutuzov so'zlariga yozilgan). M.P.Musorgskiyning ikkinchi turkumdan “Trepak” qo'shiq-raqsi nodir asarlardan bo'lib, u tundagi bo'ronda qolib, muzlab qolayotgan qashshoq dehqonning achchiq taqdiriga bag'ishlangan.

M.P.Musorgskiy hayotining so'nggi yillarida ayniqsa o'zini yolg'iz sezadi. Ishni yo'qotishi bilan haqiqiy muhtojlik

boshlandi. Kompozitorning sog'ligi ham yomonlashib bordi. Faqatgina janubga qilgan safari unga qandaydir yorug'lik olib keldi. 1879–yil yozida taniqli rus xonandasi D.Leonova M.P.Musorgskiyning jo'rnavoz sifatida Rossiyaning janubiga o'zi bilan konsert safariga taklif qildi. Bu konsertlarda M.P.Musorgskiy o'z asarlari, ko'proq operalardan parchalar ijro etdi. Safardan katta taassurot qoldi va qaytib kelganda u yangi ijodiy rejalariga to'lib-toshgandi. Biroq 1881–yil boshida uning sog'ligi keskin yomonlashdi. 14-fevralda og'ir bemor kompozitorni harbiy gospitalga yotqizishadi, shu yerda u 16-mart kuni vafot etdi.

Oxiriga yetkazilmagan “Xovanshina”ni N.Rimskiy-Korsakov yakunladi. Moskva shahridagi Mamontov xususiy opera sahnasida qo'yilgan “Xovanshina” Dosifey partiyasini yosh rus xonandasi F.I.Shalyapin mohirona ijro etganligi tufayli juda katta muvaffaqiyat qozondi. Shu yillarning o'zida F.Shalyapin Boris Godunov rolini betakror ijrochisiga aylandi.

Keyinroq, 1917–yilda, keksayib qolgan S.Kyui “Sorochinsk yarmarkasi” operasini oxiriga yetkazdi va o'zi tahrirdan o'tkazdi. Bu og'ir vazifaga kompozitor V.Shebalin yanada chuqurroq yondashdi, u “Sorochinsk yarmarkasi” operasini yangidan ko'rib chiqib, uni mohirona orkestrlashtirdi. Hozirgi kunda opera aynan uning tahririda ijro etiladi.

Savol va topshiriqlar

- 1. M.P.Musorgskiy hayotidagi asosiy voqealarni eslang.*
- 2. Uning ijodidagi bosh mavzu nimadan iborat?*
- 3. Kompozitor hayoti va ijodidagi 60–yillar haqida so'zlab bering. Bu davr uning demokratik qarashlari qaror topishida qanday rol o'ynadi?*
- 4. Kompozitor hayoti so'ngida uning taqdiri qanday kechdi? U 70–yillarda qaysi asarlarni yozdi?*

“BORIS GODUNOV”

A.Pushkinning “Boris Godunov” fojiasida M.P.Musorgskiyni operada xalq qudratining uyg‘onishini talqin etish imkoniyati o‘ziga tortdi, bu kuchning uyg‘onishi ochiq norozilik, pirovard natijada esa tabiiy isyonga aylanadi.

M.P.Musorgskiy operasining asosiy g‘oyasi, A.Pushkin pyesasi kabi, bu jinoyatga qo‘l urgan shoh Boris va xalq o‘rtasidagi ziddiyat bo‘lib, u natijada qo‘zg‘olonga olib keladi. Fojia qotil shoh Borisning ichki ruhiy dramasi, uning vijdoni azoblanishi bilan murakkablashadi. Kompozitorning diqqati asosiy fikr – shoh bilan xalq to‘qnashuvini ochib berishga qaratiladi. M.P.Musorgskiy operasida xalq – harakatdagi bosh qahramondir.

Prolog. Birinchi ko‘rinish. Novodevichiy monastiri hovlisida boyarlar buyrug‘i bilan Boris Godunovdan “taxtni va Monamax shapkasini” qabul qilish – shoh bo‘lishini so‘rash uchun haydab kelingan xalq to‘plangan. Uncha katta bo‘lmagan orkestr muqaddimasi ezilgan xalq obrazini tasvirlaydi. Muqaddimaning qayg‘uli mavzusi cho‘zib aytiladigan rus xalq qo‘shiqlariga yaqin:

35



Mavzu bir necha marta o‘tadi, jo‘r bo‘luvchi ovozlari unga qo‘shiladi, yanada qudratli va kuchliroq sadolanadi.

Prolog musiqasida zo‘ravonlik ohangi muhim rol o‘ynaydi, “uriluvchi” ohang go‘yo to‘qmoq taqirlashiga o‘xshaydi. “Tezroq! Tizzangga cho‘k!” – qichqiradi pristav. Xalq achchiq yig‘lab: “Bizni kimga tashlab ketmoqdasan, otajonimiz!”–

deydi. Ushbu xor musiqasi ohangi muqaddima mavzusiga yaqin:

36

O'rtacha

Па-ко-то ты нас по-ки-да-ешь, о-теп-лям! Ах, па-ко-
-то-то ты о-ста-вя-ешь, кор-ми-лец

Ushbu aytib yig'lashda ezilgan, och-yalang'och xalqning obrazi namoyon bo'ladi. Yangi shohni saylashga dehqonlar va shaharliklar beparvolik bilan qaraydilar. Ayrim luqmalar ro'y berayotgan voqealarga nisbatan beparvolikni bildiradi: "Митюх, а Митюх, чево орем?" ("Mityux, nega qichqiryapmiz?").

37

O'rtacha tez

Mityuxa

Ми-тюх, а Ми-тюх, че-во о-рем?
Ца-ря на Ру-си хо-тим по-ста-вить

Kompozitor xorning alohida ovozlari, Mityuxa va ba'zi ayollar luqmalarini ta'kidlab ko'rsatadi. Butun sahna xalqning sodir bo'layotgan voqealarga nisbatan bo'lgan munosabatini haqqoniy tarzda aks ettiradi. Masalan, pristav xalqni "tomoqlarini ayamasliklariga" majbur qiladi. Xor guruhlarining javobi xalqning umumiy kayfiyatini ochib beradi: "Faqat biroz dam olib, yangidan qichqiramiz biz", "Nafas olishga ham bermaydi, la'nati".

Musorgskiy kompozitorlar ichida birinchi bo'lib yakkaxon luqmalarni ajratgan holda xorni alohida guruhlarga ajratish uslubini qo'lladi. Odamlar to'dasining tasviri unda ajoyib tarzda haqqoniy chiqdi.

38

mf Soprano
Не сер-чай. Ми-ки-гич. не сер-чай. ро-ди-мы!

Tenorlar
Теп-ко шо-от-дох-нем.

Altlar
И вздох-нуть во-двст. Про-кля-тый
за-о-рем мы спо-ва

Baslar
И вздох-нуть во-двст. Про-кля-тый

Sahna kulminatsiyasi – duma mirzasi ariozosi. U Borisning shoh bo'lishga rozilik bermaganligi to'g'risida xabar qiladi. Ariozo musiqasi mungli va e'tiborli sadolanadi:

39

Sekin
Пря-во-слав-ны-е! Не-у-мо-лим бо-я-рин! На скорб-ный мн бо-яр-ской

O'rtacha
дв-мд и пат-ри-ар-ха и слы-шат-ис хо-тел о тро-ис цар-ском

Sahnada paydo bo'lgan jarchilar xalqni Boris Godunovni saylashga targ'ibot qiladilar: yangi podshoh rahbarligida Rus mamlakatida nizolar va o'zboshimchaliklar tugatiladi. Jarchilar ketadilar.

Ikkinchi ko'rinish. Moskva Kremli maydoni. Qo'ng'iroqlarning qudratli jarangi Borisning taxtga o'tirish marosimiga jo'r bo'ladi. Xalq tiz cho'kib yangi shoh paydo

bo'lishini kutadi. Boris Godunov paydo bo'lganda xalq – boyarin Shuyskiy buyrug'i bilan – uni sharaflaydi:

40

O'rtacha tez

Уж как на не - бе сози - ту стра - хо - му ста - ва, ста - ва!
ва! Уж и ста - ва на Ру - си ца - рю Бо - ри - су, ста - ва!

Biroq Boris xursand emas. Uning eng birinchi musiqiy tavsifi (ariozo) ruhiy tushkunlik, og'ir xavotirlikni ochib beradi:

41

Shoshilmasdan

Скор - бит ду - ша! Ка - кой - го страх не -
воль - ный что - ве - щим пред - чув - стви - ем ско - пал мне серд - це

Shu "Shon-sharaf" xori bilan ikkinchi ko'rinish tugaydi. Xorning mavzusi – rus kompozitorlari tomonidan ko'p marta ishlatilgan sharaflovchi xalq qo'shig'idir.

Birinchi parda. Birinchi ko'rinish. Chudoviy monastiridagi sokin hujra. Rohib solnomachi Pimen o'z ishlari bilan mashg'ul. U ancha yillardan beri barcha o'tmish va zamonaviy tarixiy voqealar solnomasini olib boradi.

Pimen monologi birinchi pardani ochadi. Ulug'vor va e'tiborli musiqa keksa donishmand obrazini tasvirlaydi. Qisqa muqaddima go'yo yozayotgan qo'lning ohista va ravon harakatini tasvirlaydi:

42

Notirjam

Musical score for 'Notirjam' in 3/4 time. The score consists of three systems of piano accompaniment. The first system features a treble clef with a whole rest and a bass clef with a piano (pp) dynamic marking and a continuous eighth-note accompaniment. The second system continues the piano accompaniment with some chords in the treble. The third system shows a change in the treble clef to a 3/8 time signature and includes a 'dim' (diminuendo) marking over the piano accompaniment.

Pimen o'zining monologida kelgusi avlodlarga butun haqiqatni qoldirishni istagan tarix solnomachisining burchi haqida gapiradi. Pimen musiqiy tavsifi (leytmotivi) operada yana uchraydi:

43

Jonliroq

Musical score for 'Jonliroq' in 4/4 time. The score consists of a single system of piano accompaniment. The treble clef has a piano (p) dynamic marking and a melodic line with eighth notes. The bass clef has a steady eighth-note accompaniment. The piece ends with a double bar line and a repeat sign.

Shu ko'rinishning o'zida yosh shogird bola Grigoriy birinchi marta paydo bo'ladi. O'zining ko'rgan tushi haqidagi xavotirli hikoyasida uning obrazi jonli tasvirlanadi. Yosh yigit shuhratparast, u beqaror va hayajonga to'la dunyoviy hayot, shon-shuhrat qozonish haqida orzu qiladi. Pimenning Uglich monastrida o'ldirilgan kichik shahzoda Dimitriy Grigoriy bilan tengdosh ekanligi haqidagi hikoyasidan Grigoriy chuqur hayajonga tushadi. Unda dadil reja paydo bo'ladi: monastirdan qochib, o'zini o'ldirilgan shahzoda deb ko'rsatish. Shahzoda

Dmitriy mavzusi keyinchalik biroz kengaytirilgan ko'rinishda o'zini shahzoda qilib ko'rsatuvchi qallob mavzusiga aylanadi.

Ikkinchi ko'rinish. Litva chegarasidagi karvonsaroy. Bu yerga qochoq monaxlar: Varlaam va Misail bilan Grigoriy yetib kelgan. Uning yo'ldoshi, darbadar monax Varlaam obrazi operadagi eng yorqin obrazlardandir. Varlaamning "Qozon shahrida shunday bo'lgan edi" (xalq so'zlariga) qo'shig'i Ivan Grozniy tomonidan Qozon shahrini lahm qazish va porox portlatish yordamida qamal qilinishi va zabt etilishi to'g'risidagina emas. U kuchli va bebosh Varlaamning tavsifi sifatida ham xizmat qiladi, u o'zining qudratli kuchini qayoqqa ishlatishni bilmaydi va butun kuchni kayf-u safo va darbadarlikka sarflaydi:

44

Tez

Как во го - ро - де от - ло - во Ка - ча - ни.

Гроз - ни! Гроз - ни! По - ще - да ве - се - сти - ся

Qo'shiq shakl jihatidan xalq yo'lidagi o'zgarmas mavzuga yozilgan simfonik variatsiyalardir. Kuy matnga qarab goh chaqqon va sho'x, goh o'ychan va sekin ("Задумилася свечка воску ярово" ("Chiroq mumi tutadi qattiq")) gohida esa hatto dramatik tarzda sadolanadi. Har bir variatsiya o'zining bayon etilish fakturasiga, yorqin va o'ziga xos orkestronkasiga ega.

Bu vaqtda Grigoriy karvonsaroy bekasidan chegaraga olib boradigan yo'lni surishtiradi. To'satdan pristavlar paydo bo'lishadi, ular qochoq rohib Grishka Otrepyevni izlashmoqda. Soqchilarning savodsizligidan foydalangan Grigoriy, buyruqni ovoz chiqarib o'qiyotib, o'zining belgilari o'rniga Varlaamning belgilarini aytadi. Biroq rohib uning ayyorligini fosh qiladi. Grigoriy derazaga sakrab chiqib, qochib ketadi. Butun ushbu

sahna M.P.Musorgskiyning xalq nutqining jonli va o'ziga xos ohanglariga asoslangan aniq va yorqin ifodali rechitativining ajoyib namunasidir.

Ikkinchi parda. Kreml saroyidagi podshoh xonasi. Boris Godunovning qizi Kseniya halok bo'lgan qallig'ini eslab muttasil g'am chekadi, yig'laydi. Parda uning qayg'uli yig'iyaytimi bilan boshlanadi. Enaganing uni yupatishga bo'lgan urinishlari zoye ketadi va u chivin haqidagi hazil qo'shiq kuylaydi. Keyin qo'shiq quvnoq savalash o'yiniga o'tadi. Unda Boris Godunovning o'g'li Fyodor qatnashadi. Boris paydo bo'ladi. U o'g'lidan mashg'ulotlari haqida so'raydi, Kseniyaga qayg'uradi.

Bu ko'rinishda Boris obrazi yanada to'laroq va ko'p qirrali tarzda ochiladi, bu yerda uning barcha murakkabliklari va qarama-qarshiliklari namoyon bo'ladi. Boris farzandini o'ldirish hisobiga taxtga o'tirgan jinoyatchi shohgina emas. U aqlli va uzoqni ko'radigan hukmdor va bundan tashqari, o'z farzandlariga e'tiborli, ularni yaxshi ko'radigan ota. Bolalar bilan bo'ladigan sahnada shoh xarakterini shu taraflari: qizini erkalashi, o'g'lining kelajagi haqida qayg'urishi ko'rsatiladi ("Что, Ксения..." ("Nima gap, Kseniya..."), "А ты, мой сын, чем занят?" (Senchi, o'g'lim, nima qilyapsan?")).

"Men oliy hukmdorlikka erishdim" monologi jinoyatchi shohning chuqur iztirobini ochib beradi.

45

Shoshilmadani

Дос - тиг я вяс - шей вяс - ти Шес - той уж гол я царст - лу - ю спо -

кой - ю Но счи - стьянет мой из - лу - чей - ной ду - ше

Uning ariyasi ohangi ulug'vor va qat'iy sadolanadi:

Sekin

Тиз - ка эс-син-на гро-мо-го су-зи-и, у - жи-сих гро-ту-вер-ст-ни про-суз - ной.

Boris ongida asta-sekin sodir etilgan jinoyat uchun jazoning muqarrarligi haqida fikr paydo bo'лади. Ariyaning keng ohangi hayajonli deklamatsiya bilan almashadi. Borisning ko'z o'ngida turli dahshatli manzaralar gavdalanadi:

47

Sekin

И - та - же с сои го-сит, и в суи - па-юс

но - му та-ти о-гро-ни - ши - но-с не-та-от.

Orkestrda Boris dahshatining leytmotivi sadolanadi.

Makkor saroy xodimi Shuyskiy kiradi, u – raqib boyarlar qarshi harakatining vakili. U o'zini o'lgan shahzoda Dimitriy deb e'lon qilgan qallob haqida Borisga xabar beradi. Hayajonga tushgan Boris ancha yillar oldin shahzoda qanday o'ldirilganligi to'g'risida batafsil gapirib berishini Shuyskiydan talab qiladi. U ketgandan so'ng, Boris Godunov ko'ziga ko'rinayotgan dahshat yangi kuch bilan avj oladi.

Uchinchi parda. Birinchi ko‘rinish. Sandomir sarkardasining qizi Marina Mnishek xonasida dugonalar bekalarining go‘zalligini maqtaydilar. Mag‘rur Marina hokimlikni, Moskva shohining taxtini orzu qiladi. O‘zini shahzoda Dimitriy deb atagan qo‘rqmas yigitning unga bo‘lgan sevgisi qanday ahamiyatga ega ekanligini u tushunadi. Bu sahna musiqasi mazurka ritmida bo‘lib, o‘ziga xos qo‘shiqsimon sadolanishi bilan avvalgi ko‘rinishlarga qarama-qarshidir.

Moskva taxtini qo‘lga kiritishni, shuningdek, makkor Rangoni ham niyat qiladi. Siyosiy manfaatlar yo‘lida u Dimitriyning Marinaga bo‘lgan sevgisidan foydalanmoqchi bo‘ladi. Maxfiy undashlar va to‘g‘ridan-to‘g‘ri do‘q bilan u Dimitriyga ta‘sir qilishga Marinani ko‘ndiradi.

Ikkinchi ko‘rinish. Sandomirdagi Mnishek qasri. Favvora yonida tun vaqti. Oshiq soxta Dimitriy bog‘da Marinani kutadi. Ayyor Rangoni unga Marinaning bog‘ga kelishi va uni sevishini ma‘lum qiladi.

Orkestr sadolari ostida mehmonlar polonezga raqs tushib, uydan chiqadilar. Ular ortidan bog‘ga Marina tushadi. Soxta Dimitriy unga sevgi izhor qiladi. Mag‘rur Marina “qo‘pol daydi” sevgisini rad qiladi va u Rus shohi bo‘lgandan keyingina rozi bo‘lishga va‘da beradi. Favvora yonidagi sevgi dueti ajoyib darajada shoirona va ifodaviy sadolanadi.

To‘rtinchi parda. Birinchi ko‘rinish. Vasiliy Blajenni sobori oldidagi maydon. Sobor yonida qashshoq va ochyalang‘och xalq to‘dasi aylanib yuradi. Mityuxa soborda Grishka Otrepyevning la‘natlanganligi haqida so‘zlaydi. Bu vaqtda u o‘z askarlari bilan Kroma yoniga kelib Godunov polklarini tor-mor qila boshlaydi. Sahnada xalq noroziligining tobora ortib borishi seziladi. Ushbu sahnadagi bosh qahramon – devona (юродивый). Kamsitilgan odam ona yurtining baxtsizliklarini oldindan sezib, iztirob chekadi. Uning musiqiy tavsifi xalq aytim va yig‘ilari ohanglariga asoslangan. Devona

“Месяц уде, котенок плачет” (“Oymo‘ma ko‘kda suzar, yig‘lar mushukcha”) mungli ashulani yengil chayqalgan holda kuylab, o‘z chorig‘ini yamaydi:

48

Shoshilmadan

Me - ся е - дет, ко - те - нок пла - чет ко - ро - ди - выи вста - выи.
 ба - гу по - мо - ли - ся, Хри - сту по - кло - ни - ся

Kulgili qo‘shiqni kuylab, bolalar devonani o‘rab olishadi. Uni adab, bir tiyinini olib qo‘yishadi. Devona zorlanib yig‘laydi. Sobordan shoh a‘yonlari bilan chiqa boshlaydi. Xalq non so‘raydi. Bu xor juda past ovozda boshlanadi, unda Iso haqqiga sadaqa so‘rashadi, keyin u fojiviy, dahshatli faryodga aylanadi, unda och-yalang‘och xalqning og‘ir azoblari aks etadi:

49

Tez

Хле - ба! Хле - ба! Дай го - ло - дам нам! Хле - ба! хле - ба!
 Хле - ба по - дай нам, ба - пош - ка. Хри - та ра - ди

Shoh Boris devonadan nima uchun yig‘layotganini so‘raydi. U bolalar bir tiyini o‘g‘rilab qo‘yganliklarini aytadi va: “O‘zing kichkina shahzodani so‘yganingdek ularni so‘yib tashlashlarini buyur” – deb so‘raydi. Bu so‘zlar bilan Devona Borisga uning qotil shoh ekanligi haqidagi xalqning asl fikrini

aytadi. Devona Boris uchun ibodat qilishdan bosh tortadi, zero, bunday qotil shoh uchun ibodat qilish mumkin emas.

Ikkinchi ko‘rinish. Moskva Kremlidagi ko‘p qirrali palata. Boyarlar dumasi majlisida qochoq monax Grishka Otrepyevni o‘lim jazosiga hukm etadilar. Shuyskiy ehtiyotkorlik bilan boyarlarga shoh Borisning og‘ir ahvoli to‘g‘risida so‘zlab beradi. Boris paydo bo‘ladi. U alahsiraydi, ko‘ziga turli dahshatlar ko‘rinadi. O‘ziga kelib, u majlisda ishtirok etadi. Solnomachi Pimen go‘yo shahzoda Dimitriyning qabrida sodir bo‘lgan buyuk mo‘jiza haqida hikoya qiladi. Boris o‘zini yomon his qilib, hayajonga tushadi. Boyarlar qo‘liga yiqilgan holda u shahzoda Fyodorni chaqiradi, uning podshohlik qilishiga fотиha berib, azoblangan holda jon beradi.

Uchinchi ko‘rinish. Kroma yonidagi o‘rmon yalangligi. Isyon ko‘targan xalq qo‘l-oyog‘i boylangan boyar Xrushchyovni olib keladi va uning ustidan mazax qilib, “Не сокол летит по поднебесью” (“Ko‘kda parvoz etuvchi burgut emas”) sharaflavchi qo‘shig‘ini aytadilar. Musorgskiy “То не ястреб совыкался с перепелочкой” (“Bedana bilan o‘ynashgan u lochin emas”) rus xalq qo‘shig‘idan foydalandi, unda faqat so‘zlarini o‘zgartirdi: bu yerda xalq barcha xo‘rlanishlar uchun o‘ch olib, boyar ustidan kuladi. Shaxzoda qotili, Borisga o‘lim tilovchi daydi monaxlar: Varlaam va Misail ovozlari eshitiladi.

Ko‘rinish kulminatsiyasi – isyon ko‘targan xalqning “Расходилась, разгулялась сила, удаль молодецкая” (“Dovyurak mardlar kuchi to‘lib-toshgan chog‘da”) qudratli xori mardonavor qo‘shiqlar ohanglariga qurilgan. Unda xalqning butun mardonavor kuchi va qudrati namoyon bo‘ladi. Xor musiqasi tabiiy shiddat bilan yo‘g‘rilgan. Ovozlarining turli vaqtda tushishi (imitatsiya uslubida) sadolanishni yanada faollashtiradi.

Xorning “Заиграй, моя волынка” (“Chal, mening volinkam”) xalq xorovod qo‘shig‘ining sho‘x-shodon kuyiga asoslangan

o'rta qismi "Ой ты, сила, силушка" ("Sen kuch, qudratginam")
 yorqin qarama-qarshilikda sadolanadi:

50

O'rtacha tez

a) *f*

Рас-хо-ди-лись, раз-гу-ля-лись си-ла, у-даль-мо-ло-деи-ка-я

b) *mf*

Ой, ты си-ла, си-луш-ка, ой, ты си-ла бе-до-ва-я!

7

Ой, ты си-ла, си-луш-ка, ой, ты си-ла гроу-па-я!

Keyin asosiy mavzu qaytib keladi. Xorning dinamikasi asta-sekin o'sib boradi, tempi tezlashadi. Ushbu qudratli kuch yo'ldagi barcha narsalarni yo'q qilib tashlayotgandek tuyiladi..

Harbiy chaqiriqlar sadosi ostida otda soxta Dimitriy paydo bo'ladi. Uning atrofida a'yonlar va askarlar bor. Xalq unga qo'shiladi. Rus zamini va xalqi boshiga kulfat tushishini aytib yig'layotgan devona qo'shig'i bilan opera tugaydi:

To'kil, achchiq yoshlar, to'kil,
 Yig'la, yig'la, pravoslav qalbi!
 Tezda g'anim kelar va zulmat qo'nar,
 Qop-qora, ko'rib bo'lmas zulmat.
 Rus kulfati, musibati!
 Yig'la, rus xalqi, och rus xalqi!...

"Boris Godunov" rus musiqasining buyuk asaridir. Rus xalqi hayotini, uning tarixiy taqdirini chuqur ochib beruvchi ushbu xalq musiqali dramasining yaratilishi musiqali teatr rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Opera nafaqat XVI asr oxiri – XVII asr boshlaridagi uzoq tarixiy davrga kirib borishi bilan, balki xalqning podshohlik bilan inqilobiy-demokratik kurashi g'oyasining chuqur zamonaviyligi bilan ham kishini xayratga soladi.

Savol va topshiriqlar

1. *“Boris Godunov” operasi yaratilish tarixini so‘zlab bering.*
2. *Har bir parda mazmunini bayon eting. Bosh qahramonlar nomlarini ayting.*
3. *Operaning asosiy g‘oyasi nimadan iborat?*
4. *Operada xalq obrazi qanday rivojlanadi va uning tavsifi qanday o‘zgaradi?*
5. *Boris Godunov, Pimen, Grigoriy, Varlaam va Misail operaning qaysi lavhalarida va qanday tavsiflanadi?*
6. *Ushbu operada kompozitorlikning yangiligi nimalardan iborat?*

QO‘SHIQLAR VA ROMANSLAR

M.P.Musorgskiy butun hayoti davomida kamer vokal musiqasini yaratdi. U mazmuni va talqin etilish shakli bo‘yicha turlicha bo‘lgan 70 ga yaqin asarlar yozdi. Bu shoirona-yorqin va dramatik iqroriy lirika; xalq hayotining yorqin realistik ko‘rinishlari – “xalq manzaralari”; o‘zining ruhiy tavsifi chuqurligi bilan xayratga tushiruvchi musiqiy portretlardir. A.Dargomijskiy an‘analarini davom ettirib, kompozitor monolog-sahna, monolog-hikoya, ballada, dramatik va hajviy qo‘shiq janrini qo‘llaydi.

M.P.Musorgskiy muloqotda bo‘lgan shoirlar doirasi ancha keng: bu A.Kolsov, N.Nekrasov, A.Plesheyev, L.Mey, A.Tolstoy, V.Kurochkin, A.Golenishev-Kutuzov kabi shoirlar she‘rlari, shuningdek, I.V.Gyote va G.Geyne poeziyasidir; kompozitor ba’zi asarlariga o‘zi matn yozgan.

M.P.Musorgskiy qo‘shiq va romanslari o‘zining yorqinligi va musiqiy tilining yangiligi bilan kishini xayratga soladi. Lirik,

alla, yig'i va aytimlar vokal partiyalarida kuychan dehqon qo'shiqlarining ohanglari mavjud bo'lib, ular muallifning aytishi bo'yicha inson nutqining "eng nozik taraflari"ni ifodalovchi deklamatsiyalik bilan garmonik ravishda uyg'unlashib ketadi. Fortepiano partiyasi doimo umumiy badiiy g'oyaga bo'ysunadi va uning fakturasi, tembr va garmonik bo'yoqlari turli-tuman ko'rinishga ega.

1860-yillarda yaratilgan "Xalq manzaralari" orasida "Светик Савишна" ("Savishna, qarog'im") qo'shig'i o'zining o'tkir haqqoniyligi bilan ajralib turadi, bu qo'shiq qishloq voqeasidan olingan taassurot asosida yozilgan. V.V.Stasov kompozitor hikoyasini shunday eslaydi:

"Bir kuni u deraza oldida turganida ko'zi oldida kechayotgan voqeadan hayratga tushdi. Baxtsiz devona yoshgina ayolga sevgi izhor qilar, bu ayol unga yoqardi... o'z-o'zidan, badbasharaligidan va baxtsizligidan uyalardi; u dunyoda hech bir narsa, ayniqsa, muhabbat baxti unga kulib boqmasligini tushunardi. M.P.Musorgskiy chuqur hayratga tushdi; bunday sahnadan uning qalbi larzaga keldi; uni hayratga tushirgan obrazlarni ifodalash uchun o'ziga xos shakl va tovushlar bir zumda paydo bo'ldi".

Kuy bilan birga yaralgan qo'shiq so'zlarini M.P.Musorgskiyning o'zi yozdi. Butun pyesa devonaning hayajonli nutqini ifodalovchi yolborish ohangining takrorlanishiga quriladi, u aytib yig'lash ohangiga asoslangan va xalq poeziyasi va musiqasiga xos bo'lgan besh hissali o'lchovga ega:

Tezroq

Сне мой, Ся - нин - па со - кул ве - нь - ин.

по - по - су ме - ня не - ра - ум - но - ва, при - го - ду - ме - ня, то - ре - мя - по - па

Obrazni jo'mavozlikning bir xil tondagi, raqsona ritmi to'ldiradi, u personajning beo'xshov harakatlarini tasvirleydi.

"Bu musiqadagi Shekspir",— degan edi qo'shiq haqida kompozitor va musiqa tanqidchisi A.N.Serov.

Boshqa vokal sahna – M.P.Musorgskiyning o'z so'zlariga yozilgan "**Seminarchi**" qo'shig'ida kompozitorning hajviy iqtidori yorqin namoyon bo'ldi. Muallifning so'zlariga ko'ra, bu "naturadan olingan manzara"da qishloq yigiti befahmlik va bema'nilik bilan tushunarsiz va keraksiz lotinchani zo'r berib yod oladi. O'zining butun fikri-xayolida esa ibodat vaqtida ko'rib qolgan pop qizi – qizil yuzli Stesha obrazi paydo bo'laveradi, qizga tikilib qaragani uchun u pop tomonidan kaltaklangan. Monologda ikkita musiqali obraz: bir xil tovushda, mexanik tarzda takrorlanuvchi lotinchani "yod olish" rechitativi va go'zal Stesha haqidagi o'y bilan bog'liq keng va ravon kuy qarama-qarshi qo'yilgan.

"**Bolalar uchun**" vokal turkumi (M.P.Musorgskiy so'zlariga) yettita miniatyura-sahnadan iborat, unda kompozitor bolalar his-

tuyg'ularini ochib beradi. "Bola dunyosida nimaiki shoirona, sodda, yoqimli, bir oz ayyorlik, olijanoblik, joziba, bolalarcha qaynoq, orzu-umidlar va ta'sirchanlik bo'lsa, bu yerda ular avval bo'lmagan va hech kim tomonidan qo'llanmagan shakllarda namoyon bo'lgan", – deb yozgan edi "Bolalar uchun" turkumi haqida V. V. Stasov.

Birinchi kichik sahna "Enaga bilan" A.Dargomijskiyga bag'ishlangan bo'lib, bola nutqining eng nozik jihatlarini haqqoniy tarzda ifodalaydi. Vokal partiyasining moslanuvchan rechitativi, o'lchovning doimiy o'zgarib turishi ($7/4 - 3/4 - 3/2 - 5/4 - 6/4$ va hokazo.) bolaning turli ovoz ohanglarini talqin etadi. Dinamika, registr, jo'rnavozlikdagi garmoniya o'zgarishining yorqin turfa xilligi esa enaga ertagidagi ajoyib obrazlarni ("harf haqida" va "kulgili") ham, bola taassurotlari va kechinmalarini ham yaratishga yordam beradi:

52

Joali

Рас - сса - жи мис, ти - мом - ка, рас - сса - жи мис, ми - ли - я про то - то, про бу - ку стра - шно - ти

"Unutilgan" balladasi (A.Golenishev-Kutuzov so'zi) – M.P.Musorgskiy so'nggi ijodiy davrining eng yorqin "dramatik qo'shiq"laridan biri – o'lim mavzusiga bag'ishlangan. U rassom V.Vereshchaginning shu nomdagi rasmidan olingan taassurot

ostida yaratilgan, unda jang maydonida qolib ketib vafot etgan rus jangchisi tasvirlanadi⁴.

V.V.Stasov V.Vereshchagin asarini shunday ta'riflaydi: "... Bu jangda o'ldirilgan va maydonda unutilib qoldirilgan bechora jangchi. Uzoqda, daryo ortida "o'zinikilar" balki bu jangchi tushgan ahvolga har biri navbat bilan tezroq tushib qolishi uchun ketayotgandirlar. Osmondan esa bulut kabi mehmonlar uchib kelmoqdalar: burgutlar qanotlarini keng qoqadilar, quzg'unlar bir to'lda bo'lib pastga tushdilar va quyuq ziyofat boshlamoqchilar... Bu rasmni o'ylagan va uni yaratganning qalbi qattiq og'riganga o'xshadi mening nazarimda. Muhabbat jo'shqinligi, nafasat va g'azab haqida bu yerda gap bo'lishi mumkin emas!"

Shoir va kompozitor go'dak o'g'lini emizayotgan va erining kelishini kutayotgan xotini obrazini o'ldirilgan jangchi obraziga qarama-qarshi qo'yib, tasviriy san'at asari mazmunini kengaytirdilar.

Balladaning birinchi bo'limi jangchi o'limini tasvirlab, qayg'uli mi-bemol minorda sadolanadi va dafn marshi xususiyatiga ega. Uning bir tekisda, vazmin harakati mahkum sadosi bilan o'ziga jalb qiladi. Deklamatsiya va qo'shiq kengligi uyg'unlashib ketgan keskin vokal partiyasi barqaror punktirli ritm bilan yo'g'rilgan. Asta-sekin yuqoriga ko'tarilib, u avjga chiqadi va shu zahoti boshlang'ich joyiga qaytadi. Avval kuyni takrorlovchi fortepiano partiyasi, keyinchalik o'tkir sekundali sado bilan boyitiladi:

⁴ Ushbu tasviriy san'at asari rassomning "Turkiston turkumi" deb ataluvchi to'plamiga kirgan, unda Rossiyaning O'rta Osiyodagi harbiy harakatlari (1860–yillar), oddiy odamlar taqdiri, rus jangchilarining qahramonligi haqida hikoya qilinadi. Rassom tasvirida urush umumiy fojia sifatida namoyon bo'ladi. Ko'rgazma vaqtida V.Vereshchaginni rus armiyasiga bo'hton qilganida ayblashadi; bunday hujumlar natijasida umidsizlikka tushgan rassom uchta rasm, jumladan "Unutilgan"ni ham yo'qotib yuboradi.

Vazmin, marsh xarakterida

Он смерть не шел в кра-ю чу-жом, в кра-
чу-жом, в бо-ю с при-туом, не врл дру-ья - ми по-беж-ден...

Keyingi lavhada qayg'uli va nafis, ta'sirchan musiqa uzoqdagi muhabbat va kutishning osoyishta obrazini yaratadi.

Vokal kuyi yorqinlashadi, u dilkash sadolanadi va xalq-qo'shiqchilik xarakteriga ega bo'ladi. Registrlarning ajralishi tufayli fortepiano partiyasida ikki yo'nalish paydo bo'ladi: jo'mavozlikning yuqori ovozlari ravon allasimon ohanglar va yumshoq osoyishta garmoniya bilan to'ladi; biroq basda qat'iy takrorlanuvchi kvartali jumla o'zining marsh-yurish punktir ritmi bilan go'yo muntazam ravishda o'limni eslatib turadi:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALO TALIMI VAZIRLIGI
SURXONDARYO VILOYATI
ANGOR TUMANI
9-BOLALAR MUSIQA VA
SAN'AT MAKTABI

20__ y. __. __.

№ 107

Manzili: _____

Vazmin, marsh karakterida

The musical score is for a piece titled "Vazmin, marsh karakterida" by M.P. Musorgskiy. It is written in G major and 3/4 time. The score consists of two systems. Each system features a vocal line and a piano accompaniment. The lyrics are: "24 - 20 - 10 TIL, B KIM-TO DOL - BOML." and "MAYL, KIM-AYT QIL-IB DOL DOL - BOML." followed by "A - 15 - 15" and "15 - 15".

M.P.Musorgskiyning novatorlik g'oyalari, uning musiqa tili sohasidagi kashfiyoti, inson tabiati va ruhiyati murakkabliklariga chuqur kirib borishi ko'pda o'z davri xususiyatlarini aniqlab berdi. Bu narsa keyinchalik XX asr rus va Yevropa kompozitorlari: S.Prokofyev, D.Shostakovich, G.Sviridov, K.Debyussi, M.Ravel, F.Pulenk va boshqalar ijodida rivojlandi. V.V.Stasovning aytishicha, "M.P.Musorgskiy o'z ishini uzoq, ajoyib, ko'z ko'rmagan va tengi yo'q "yangi sohillarga" olib boradigan ozchilikni tashkil qiluvchi kishilardan biri edi".

Savol va topshiriqlar

1. *M.P.Musorgskiy vokal musiqasining obrazlar doirasi qanday?*
2. *Kompozitor vokal asarlarining asosiy janrlarini aytib bering.*

3. *M.P.Musorgskiy o'z qo'shiq va romanslarini kimning she'rlariga yozgan?*

4. *M.P.Musorgskiy vokal kuylarining xususiyatlari nimalardan iborat? Uning qo'shiqlarida fortepiano partiyasining roli qanday?*

5. *Kompozitorning qo'llanmada ko'rib chiqilgan ayrim vokal asarlari haqida so'zlab bering.*

ASOSIY ASARLARI

Operalar: “Salambo”, “Uylanish” (birinchi akt), “Boris Godunov”, “Xovanshchina”, “Sorochinsk yarmarkasi”.

Vokal asarlari: 70 ga yaqin qo'shiq va romanslar.

Fortepiano asarlari: “Ko'rgazmadan rasmlar”, alohida pyesalar.

Simfonik asarlar: “Иванова ночь на Лысой горе” (“Lisaya tog'ida Ivan o'tkazgan tun”) simfonik manzarasi, Intermetstso.

**ALEKSANDR
PORFIRYEVICH
BORODIN
(1833–1887)**



Borodin – serqirra ijodkorlidir. U buyuk kompozitor, yirik kimyochi-olim, taniqli o‘qituvchi, faol jamoat arbobi, musiqa tanqidchisi sifatida muvaffaqiyatli faoliyat olib borgan. U musiqa sohasida ham har tarafdin qobiliyatga ega bo‘lgan: “Borodin iqtidori, – yozgan edi V.V.Stasov, – simfoniya ham, operada ham, romansda ham birdek qudratli va ajoyibdir. Uning asosiy sifatleri: ulkan kuch va kenglik, mislsiz darajada keng ko‘lamli, intiluvchanlik va shiddat – bularning hammasi ajoyib ehtiros, nafislik va go‘zallik bilan birlashtirilgan”. M.Glinkaning sodiq davomchisi sifatida A.P.Borodin dunyo kelajagiga ishonch bilan qarash, abadiy hayotiy yuksak maqsadlar: ong va go‘zallik g‘alabasiga ishonchda ayniqsa unga yaqin turadi. O‘zining hajmi bo‘yicha uncha katta bo‘lmagan ijodida u epik siymolarga diqqatini qaratdi, ular ko‘proq “Knyaz Igor” operasida, simfoniyalarda va hatto romans janrida yorqin namoyon bo‘ldi. N.Rimskiy-Korsakov va P.Chaykovskiy bilan birgalikda Borodin rus klassik simfoniya sining yaratuvchisi bo‘ldi. Uslubining uzviyligi, shaklning bejirimligi, kuy yorqinligi, go‘zal garmoniya, rus va Sharq obrazleri milliy

xususiyatlarining uyg'unlashuvi A.P.Borodin musiqasining originalligini, takrorlanmas go'zalligini belgilab berdi.

HAYOT YO'LI

Bolalik. Aleksandr Porfiryevich Borodin 1833–yil 31-oktyabrda Peterburg shahrida tug'ildi. Uning otasi – knyaz L. S. Gedianov⁵, onasi esa oddiy jangchi qizi, go'zal ayol A.K.Antonova edi. A.P.Borodin olti yilga yaqin otasi uyida yashadi, lekin uning tarbiyasi bilan onasi, Avdotya Konstantinovna shug'ullandi. Kompozitorning rafiqasi E.S.Borodinaning eslashicha, bu ayol “aqli, unda o'qituvchilikka moyillik va katta salohiyat bor edi... U (bolaga) erkalatish bilan zarar keltirmaslikni yaxshi bilar... g'ayrioddiy sezgirlik bilan uning nozik va nodir tabiatini o'rganar, unda mavjud bo'lgan barcha yaxshi tomonlarni aniqlab, ularni rivojlantirardi; bir so'z bilan aytganda, bularning hammasi oqilona va mulohazali tarbiya usullari edi... Sashaning onasi... musiqiy iqtidorga ega emasdi. Biroq bu narsa o'zi tezda ilg'ab olgan o'g'lidagi musiqiy qobiliyatni rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlardan foydalanishga hech xalal bermadi”.

Onasining g'amxo'rligi tufayli A.P.Borodin uy sharoitida a'lo darajada ma'lumot oldi: adabiyot, tarix, matematika, geografiya mashg'ulotlari fransuz va ingliz tillari, rasm va chizmachilik darslari bilan almashib turardi. Ammo bolani ayniqsa, kimyo va musiqa o'ziga tortardi. Bu ikki ehtirosga u butun hayoti davomida sodiq qoldi. Turli xil idishlar va

⁵ L.S.Gedianov Ivan Grozniy davrida Rusga kelib qolgan tatar knyazi Gedey avlodidan edi; M.P.Borodinning o'zi otasining gruzin avlodidan ekanligini ham aytgan. Bola nikohsiz tug'ilgani sababli, otasi (o'sha vaqt taomiliga ko'ra) uni o'z xizmatkori P.I.Borodin o'g'li sifatida hujjatlarga yozdirib qo'ydi, bola shu xizmatkor ismi-sharifi bo'yicha ataldi.

moslamalar, kimyo tajribalari uchun jihozlar va reaktivlarga xona to'lib ketgandi; Sasha turli tajribalar o'tkazar, mushaklar tashkil qilar va kimyo mo'jizalarini namoyish qilardi. Uning musiqiy qobiliyati ham erta namoyon bo'ldi. "O'shanda ular Semenov maydonida yashashardi, – hikoya qiladi E.S.Borodina, – Sasha endigina sakkiz yoshga kirgan edi. Maydonda ba'zan harbiy orkestr chalar va Sasha Luiza⁶ kuzatuvida, albatta, orkestr tinglashga borardi. U jangchilar bilan tanishar, cholg'ularni ko'zdan kechirar, ularda qanday ijro etishlarini kuzatardi. Uyda esa fortepiano yonida o'tirib, eshitganlarini chalardi. Musiqaga bo'lgan bunday qiziqish va iqtidorni ko'rgan onasi uning fleyta cholg'usidan dars olishini tashkil qildi; harbiy orkestrning musiqachisi har bir dars uchun ellik tiyin haq evaziga u bilan dars o'ta boshladi". Sasha fortepiano chalishni ham o'rgana boshladi, keyinchalik esa mustaqil ravishda violonchel cholg'usini o'zlashtirdi. To'qqiz yoshida u asarlar yoza boshladi: yosh muallif yaxshi ko'rib qolgan xonimga bag'ishlab yozilgan "Elen" polkasi uning birinchi musiqiy asari bo'ldi.

O'n ikki yoshida A.P.Borodin yaqinlashib qolgan o'rtog'i bilan do'stlik butun hayoti davomida uzilmadi. Bu Misha Shchiglev bo'lib, u Borodinlar oilasida bir necha yil yashagan, gimnaziya kirish uchun birgalikda tayyorlanishgan edi. Ularni musiqaga bo'lgan muhabbat yaqinlashtirdi: ular birga konsertlarga borishar, I.Bax, Y.Gaydn, V.Motsart, J.Rossini, G.Donitsetti va boshqa kompozitorlar asarlarini to'rt qo'lda ijro etishar va M.Shchiglevning eslashicha, "L.Betxovenning barcha simfoniyalarini deyarli yoddan bilishar va, ayniqsa, F.Mendelson asarlarini ko'p chalishar va undan zavq olishardi". O'z ijrolari uchun A.P.Borodin shu vaqtda fleyta uchun konsert va J.Meyerberning "Robert-Iblis" operasi mavzulariga ikkita skripka bilan trio yozdi.

⁶ Luiza – Borodinning guvernantka (tarbiyachi)si edi.

Kimyo bilan qiziqish asta-sekin oshib boradi va 1850–yilda A.P.Borodin Peterburg Sog'liqni saqlash-jarrohlik akademiyasiga kiradi.

O'qish yillari. Chet elga safar. Sog'likni saqlash-jarrohlik akademiyasi A.P.Borodin uchun ikkinchi uyga aylandi va u bilan umrining oxirigacha aloqada bo'ldi. Akademiya Rossiyaning yirik o'quv va ilmiy markazi edi; unda ko'plab buyuk olimlar, jumladan jarroh N.I.Pirogov, embriolog va geografiyachi K.M.Ber, kimyochi N.N.Zininlar ishlashardi. Botanika, zoologiya, mineralogiya fanlarini o'rganishga ko'p vaqt sarflab, A.P.Borodin professor Zinning sevimli o'quvchisiga aylandi va butun hayotini kimyoga bag'ishladi. U o'z vaqtining ko'p qismini fanlarni o'rganish va laboratoriyaga sarflasa-da, ko'p o'qishga ulgurardi: u A.Pushkin, M.Lermontov, N.Gogol asarlari hamda I.Turgenev, I.Goncharov, V.Belinskiylarning yangi asarlarini, shuningdek, jurnallardagi falsafiy maqolalarni sevib o'qirdi. Musiqa bilan shug'ullanish ham davom etardi: A.P.Borodin turli musiqiy yig'ilishlarga qatnashar, violonchelchi sifatida kvartet kechalarida muntazam ishtirok etardi. Bunday yig'ilishlarning birida A.P.Borodin ilk bor M.Glinkaning musiqasini eshitdi va uni umrbod sevib qoldi. U cholg'u ansambllari, romanslar va hatto fugalar yozdi, shuningdek musiqa nazariyasi va kompozitsiya bo'yicha nemis risolalarini o'rgandi (N.Zinin musiqa uni chalg'ityapti deb o'ylar va bundan norozi bo'lardi).

1856–yilda A.P.Borodin akademiyaning tugatdi va shifokor-ordinator sifatida Harbiy-piyodalar gospitaliga ishga yuborildi, bu yerda u bir necha yil ishladi. U tibbiyot doktori darajasi dissertatsiyasini muvaffaqiyat bilan yoqladi va berilib kimyo bilan shug'ullandi. Shu vaqtning o'zida u Preobrajensk polkining yosh zobiti, shu gospitalda ishlayotgan o'n yetti yoshli M.Musorgskiy bilan tanishadi: A.P.Borodin navbatchi

shifokor, M.Musorgskiy esa navbatchi zobit vazifasini bajarardi.

1859–yilda akademiya A.P.Borodinni o‘zining eng yaxshi bitiruvchisi sifatida ilmiy malakasini oshirish uchun chet elga safarga yuboradi. U uch yil Germaniyada, mashhur universitet shahri bo‘lgan Geydelbergda, Shveytsariya, Fransiya, Italiyada, Gollandiyada bo‘ldi. O‘sha yillarda Geydelbergda yosh rus olimlari yig‘ilishardi va A.P.Borodin ular bilan do‘stlashib qoldi. Ular orasida kimyochi D.Mendeleyev, fiziolog I.Sechenov, shifokorlar I.Yunge va S.Botkin va boshqalar bor edi. Ular nafaqat ilmiy ish bilan shug‘ullanishar, balki ularni hayajonlantirgan ijtimoiy hayot, adabiyot va san‘at masalalarini qizg‘in muhokama qilishar, N.Nekrasov va N.Chernishevskiy muharrir bo‘lgan “Современник“ (“Zamondosh”) jurnali yangi sonlarini, Londonda chop etiladigan A.Gersenning “Колокол” (“Bong”) gazetasini chanqoqlik bilan o‘qishardi.

Chet elda bo‘lgan vaqtda kimyo tadqiqotlari A.P.Borodinni keng ommaga tanitdi, biroq, laboratoriyada ko‘p ishlashiga qaramay, u musiqani esdan chiqarmaydi: ansambllarda jon-dili bilan chaladi, opera va simfonik konsertlarga boradi, u yerda K.Veber, F.Mendelson, F.List, G.Berlioz, R.Vagner kabi zamonaviy Yevropa kompozitorlari musiqasi bilan tanishadi, shuningdek, kamer cholg‘u musiqasi yozishni davom ettiradi (shu jumladan – si minor violonchel sonatasi va fortepiano kvinteti).

1861–yilda A.P.Borodin bo‘ljak rafiqasi – moskvalik iqtidorli pianinochi ayol E.S.Protopopova bilan tanishadi, u Geydelberg shahriga davolanish uchun kelgan edi. Yekaterina Sergeevna tufayli F.Shopen va R.Shuman musiqasining muxlisiga aylanadi. Ko‘p yillar o‘tgandan keyin Yekaterina Sergeevna shunday xotirlaydi:

“Men chalayotganimda, A.P.Borodin royal yonida turar va butun vujudi quloqqa aylangandi... U menda qanaqa taassurot qoldirganini sizga qanday tushuntirsam ekan? Uning ko‘rinishi haqiqatan ham o‘ktam edi... U juda aqlli ekanligi menda shubha

tug'dirmasdi; u tabiiy hozirjavoblik va ziyraklikka to'lib-toshgan edi. Menga undagi musiqaga bo'lgan muhabbat yoqdi, buni o'ta qadrlardim. F.Mendelsonni fidoyilarcha yaxshi ko'radigan odamni menga qadrligini bo'lgan F.Shopen va R.Shumanni jon-dili bilan yaxshi ko'rib qolishga majbur qilganimdan xursand bo'ldim".

“Могучая кучка” (“Qudratli to'da”). Ijodiy yuksalish. 1862-yil kuzida A.P.Borodin Peterburgga qaytib keldi. Tez orada u Sog'liqni saqlash-jarrohlik akademiyasi professorligiga saylandi, bu yerda u umrining oxirigacha kimyo kursini olib bordi va tadqiqot ishini davom ettirdi. Talabalar o'z ustozlarini juda yaxshi ko'rishardi. A.P.Borodin hamma uchun qayg'urardi: muhtojlarga tez-tez moddiy yordam ko'rsatar, ishga joylashishda ko'maklashardi. Uning xayrixohligi darhaqiqat chegarasiz edi. Unga ko'ngilchanlik-shodon kayfiyat, qalban muloyimlik va atrofdagilarga nisbatan o'ta jonkuyarlik xos edi.

O'sha vaqtda A.P.Borodin hayotida shunday voqea ro'y berdiki, bu uning butun kelajakdagi kompozitorlik hayotini belgilab berdi. Akademiyaning professori va uning do'sti S.P.Botkin uyida u M.Balakirev bilan tanishadi. M.Balakirev bu vaqtda M.Musorgskiy, S.Kyui, N.Rimskiy-Korsakov a'zo bo'lgan kompozitorlar to'garagini boshqarar, shuningdek Bepul musiqa maktabiga rahbarlik qilardi. M.Balakirev A.P.Borodinning o'ziga xos iqtidorini tezda sezib, uni kompozitsiya bilan jiddiy shug'ullanishga undadi va shu zahotiyiq simfoniya yozishni boshlashni taklif qildi. A.P.Borodin g'ayrat bilan M.Balakirev boshchiligida ish boshladi; u tez-tez M.Balakirev xuzuriga kelib yozganlarini ko'rsatar va asta-sekin to'garakning boshqa a'zolari (M.Musorgskiy bilan tanishuv oldinroq bo'lib o'tgandi) va

ushbu yig'ilishlarda doimo ishtirok etuvchi V.V.Stasov bilan tanishib oldi⁷.

Bir oy davomida birinchi qismni yozib, A.P.Borodin simfoniyani besh yil deganda tugatdi. Bu va boshqa asarlarni yaratish jarayonining bunday uzoq davom etishi kompozitorning ilm, pedagogika va jamoat ishlarida bandligi sababli edi, biroq, bundan tashqari u o'z ijodiga jiddiy va talabchanlik bilan qarar, u ijodda yuzakilikni yoqtirmasdi. Glinka an'analariga va M.Balakirev maslahatiga ergashib, A.P.Borodin Birinchi simfoniya uchun o'zining individual kompozitorlik uslubini ishlab chiqdi, unga yorqin ruscha obrazlar va kuylar, sharqona ohanglar, yangi hamda original garmoniya, bejirim shakl, nihoyat, doston va ertaklar bilan bog'liq bo'lgan butun asarning epik xarakteri xos edi. Simfoniya 1869–yilda Peterburgda RMO konsertida M.Balakirev boshqaruvida muvaffaqiyat bilan ijro etildi va birinchi rus simfoniya janridan biri bo'ldi⁸.

1860–yillarning ikkinchi yarmida A.P.Borodin romans janriga murojaat qiladi, ajoyib hamda mavzusi bo'yicha turli-tuman bo'lgan asarlar yaratadi. Bular “Спящая княжна” (Uyqudagi knyajnya), “Песня темного леса” (“Qorong'u o'rmon qo'shiqlari”), “Морская царевна” (“Dengiz malikasi”), “Фальшивая нота” (“Falsh nota”), “Море” (“Dengiz”) (hammasi o'z so'zlariga), “Отравой полны мои песни” (“Zaqqumga to'la qo'shiqlarim”) (Geyne she'rlariga). V.Stasov ularni shunday tavsifladi: “go'zallik, ehtiroslar, ifodaviylik, iqtidorli deklamatsiya va original, o'ziga xos shakllar haqiqiy nodir durdonalarining uzluksiz qatoridir”.

⁷ A.P.Borodinning M.Balakirev to'garagiga kirishi bilan “Moguchaya kuchka”ning shakllanishi tugadi.

⁸ 1865–yilda N.Rimskiy-Korsakovning Birinchi simfoniya, 1866–yilda esa P.Chaykovskiyning ilk simfoniya paydo bo'ldi.

Simfoniyaning muvaffaqiyati kompozitorni ilhomlantirdi va unga yangi ijodiy kuch baxsh etdi. 1869–yilda u Ikkinchi simfoniya yaratish rejasini tuzadi va shu vaqtning o‘zida “Knyaz Igor” operasi ustida ish boshlaydi. Bu asarlarni yaratish uzoq yillarga cho‘zildi – simfoniyaning A.P.Borodin 7 yil, operani 18 yil davomida yozdi: uning uchun muhim bo‘lgan boshqa mashg‘ulotlar ko‘p hollarda uning musiqiy ijodini to‘xtashiga sabab bo‘lardilar. Faol ilmiy va pedagogik faoliyatdan tashqari, ko‘p vaqt va kuch Ayollar oliy sog‘liqni saqlash kurslariga, keyin esa u yerda dars berishga ketardi⁹. Bir vaqtning o‘zida A.P.Borodin Rus kimyo jamiyatining muassislaridan biri, Rus shifokorlari jamiyatida ishlar, RMO direktorlaridan biri, “Знание” ilmiy-ommabop jurnali muharriri, o‘zi tashkil qilgan Sog‘liqni saqlash-jarrohlik akademiyasi talabalar xori va orkestriga rahbarlik qilardi va bu jamoalar xayriya konsertlarida chiqishardi. Bunday ko‘plab majburiyatlar, shuningdek rafiqasining surunkali kasalligi va uy turmushidagi tartibsizliklar musiqa uchun deyarli vaqt qoldirmasdi, bundan kompozitorning do‘stlari afsuslanardilar.

Hayotining oxirgi yillari. 1877–yilning yozida A.P.Borodin chet el safariga – Germaniyadagi Yena universitetiga bordi. Yena yaqinida go‘zal qadimiy shahar –Veymar bo‘lib, bu yerda turli davrda Germaniyaning buyuk insonlari: I.Gyote, F.Shiller, faylasuf G.Gegel yashagan. Ko‘p yillar Veymarda vengriyalik kompozitor, pianinochi va dirijor Ferens List yashagan va ishlagan. A.P.Borodin anchadan beri u bilan tanishishni orzu qilardi va nihoyat bu orzu ushaldi. List hali Rossiyada bo‘lganidayoq rus musiqasiga qiziqib qolgandi. U A.P.Borodin

⁹ Ayollar oliy sog‘liqni saqlash kurslari Rossiyada ayollar uchun birinchi oliy ta‘lim muassasasi bo‘ldi.

ijodini yuqori baholadi, uning musiqasining yangiligi va milliy o'ziga xosligini ta'kidlaydi. Keyingi yillarda A.P.Borodin yana ikki marta List huzurida bo'ldi, List uni iliqlik bilan kutib oldi hamda "Yangi rus musiqa maktabi"¹⁰ xususida o'zining samimiy, ijobiy fikrlarini bildirdi.

80–yillar boshlaridan A.P.Borodin kompozitor sifatida tobora tanilib boradi. Germaniyadan tashqari uning simfoniyalari va kvartetlari Yevropaning boshqa mamlakatlari: Avstriya, Fransiya, Norvegiya, Belgiya, Gollandiya, shuningdek AQShda muvaffaqiyat bilan ijro etiladi.

Kompozitor hayotining so'nggi o'n yilida "Knyaz Igor" ustidagi ishni davom ettiradi. Shu vaqtning o'zida u ikkita torli kvartet yaratadi, bu bilan u P.Chaykovskiy bilan birgalikda rus klassik kamer-cholg'u musiqasining asoschilaridan bo'ldi.

Re major ikkinchi torli kvarteti Yekaterina Sergeevna Borodinaga bag'ishlangan edi. Asar musiqasi nafislik va ehtirosga, iliqlik va hayajonli samimiyatga to'la edi. Klassik to'rt qismli turkumning birinchi uchta qismida (I qism – sonata allegrosi, II qism – skerso, III qism – Nokturn, IV qism – bayramona final) lirik hissiyotlar ustuvorlik qiladi, o'zining betakror, ajoyib, inson muhabbatining ilhomli serenadasi kabi sadolanuvchi mavzusi bilan Nokturn bu qismlarning kulminatsiyasi bo'ldi.

A.P.Borodin, shuningdek, fortepiano uchun "Kichik suite", manzarali musiqiy peyzaj – "O'rta Osiyoda" simfonik manzarasi va bir nechta romanslar yozadi, ular orasida "Для берегов отчизны дальней" ("Uzoq vatan sohillari uchun") (A.Pushkin

¹⁰ "Yangi rus musiqa maktabi" atamasi "Moguchaya kuchka" a'zolari tomonidan ilgari surilgan edi, ular o'zlarini katta avlod rus kompozitorlari – M.Glinka va A.Dargomijskiy ishining davomchilari deb hisoblardilar.

she'ri) elegiyasi eng yaxshilaridan bo'ldi. Bu elegiya M.Musorgskiy vafoti taassuroti ostida yaratildi. Ushbu asarlarning ko'pchiligi 70–yillar oxiri va 80–yillar boshlarida yozilgan edi. Keyinchalik A.P.Borodin juda kam asarlar yaratadi, bu uzoq yillar davomidagi toliqish va kasallikning boshlanishi bilan bog'liq edi. Shunga qaramasdan, u “Ruscha” deb atamoqchi bo'lgan Uchinchi simfoniya ustida uzilishlar bilan bo'lsa-da, ishni davom ettiradi.

Muttasil va zo'r berib ishlash tufayli, A.P.Borodin 1887–yil 15–fevral tunga yaqin raqs kechasida yurak xuruji natijasida to'satdan vafot etdi. Kompozitor vafotidan so'ng uning eng yaqin do'sti N.Rimskiy-Korsakov o'z o'quvchisi I.Glazunov¹¹ bilan birgalikda muallifning materiallari asosida “Knyaz Igor” operasini yozib tugatishdi va orkestrlashtirishdi. Opera premyerasi 1890–yilda, Peterburg shahrining Mariin teatrida bo'lib o'tdi va katta muvaffaqiyat qozondi.

A.P.Borodin vafotidan o'n yil o'tgach uning o'quvchisi va do'sti, kimyochi A.P.Dianin shunday yozgan edi: “O'zidan keyin qimmatli ilmiy tadqiqotlar va badiiy ijodning beqiyos sahifalarini qoldirib, u hayotligi vaqtidayoq ilm va san'atga sadoqat bilan xizmat qiluvchi va barcha ezgulik va go'zallikka doimo jo'shqinlik bilan hozirjavob bo'lgan namunali inson edi”.

Savol va topshiriqlar

- 1. A.P.Borodin musiqiy merosiga umumiy tavsif bering.*
- 2. Kompozitor shaxsining xususiyatlari, uning ko'p qirrali faoliyati, atrofdegilari, do'stlari haqida so'zlab bering.*

¹¹ 80- yillarda Borodin yosh kompozitorlar – professor Rimskiy-Korsakovning o'quvchilari: A. K. Glazunov va A. K. Lyadov bilan do'stlashib qoladi.

3. *A.P.Borodin hayoti va ijodining turli davrlarini tavsiflang.*
4. *Kompozitorning asosiy asarlarini aytib bering.*
5. *Uning hayoti va ijodiy yo'lidagi asosiy voqealarni reja ko'rinishida yozma bayon eting.*

“KNYAZ IGOR”

1860–yillar oxirida “Moguchaya kuchka” kompozitorlari opera yaratishga kirishib ketdilar: M.Musorgskiy “Boris Godunov”ni, N.Rimskiy-Korsakov “Псковитянка” (“Pskovlik ayol”)ni yozar, S.Kyui “Vilyam Ratklif” operasini tugatayitgan edi. A.P.Borodin ham operada o'z kuchini sinab ko'rishga qaror qildi. V.V.Stasovning xotirlashicha, “endi u simfoniya nisbatan operani yozishni ko'proq xohlardi”, shu sababli “u opera uchun sujet talab qilib, menga hujum qilishni davom ettirardi”. V.Stasov kompozitorga XII asr qadimiy rus adabiyotining buyuk asari – “Слово о полку Игореве” (“Igor polki haqida so'z”) sujetini taklif qildi. “Bu yerda, – deb yozadi V.Stasov, – menga A.P.Borodin iqtidori va uning badiiy tabiati uchun talab etilgan barcha narsalar: bepoyon epik ohanglar, milliylik, turli-tuman x'arakterlar, ehtiroslilik, dramatiklik, turli tasvirlardagi Sharq mavzusi mujassamdek tuyildi”. Sujet A.P.Borodin qalbiga mos tushdi.

“Igor polki haqida so'z” asarining knyaz Igor Svyatoslavovich Novgorod-Severskiyning 1185–yildagi poloveslarga qarshi yurishi va uning rus knyazlarini dushman oldida birlashishga da'vati haqidagi vatanparvarlik g'oyasi kompozitorni o'ziga jalb qildi va u haqiqiy olim sifatida asosli tarzda opera yaratishga qo'l urdi. A.P.Borodin “Igor polki haqida so'z” asari yaratilgan davr, saqlab qolingan adabiy meroslar – yilnomalar, tarixiy,

adabiy asarlar, shuningdek, musiqiy folklor – qadimiy rus va Sharq yozuvlarini o‘rgandi. Bu ishda unga rus tarixi va qadimiy adabiyot bilimdoni Stasov katta yordam ko‘rsatdi. V.Stasov operaning senariy (batafsil reja)sini yaratdi, lekin matnni A.P.Borodinning o‘zi musiqa bilan bir vaqtda yozdi.

Operani M.Glinka xotirasiga bag‘ishlab, A.P.Borodin “Knyaz Igor”da ikkala opera: Rusning epik ulug‘vorligini Sharqning go‘zal manzarasi (“Ruslan va Ludmila”) va musiqali drama qahramonligini (“Ivan Susanin”) bilan uyg‘unlashtira oldi. Rus opera musiqasining bu jihatlarini birlashtirish tarixiy-epik opera yaratilishiga olib keldi, bu esa Rossiya opera janrining rivojlanishida yangi bosqich bo‘ldi.

Opera prolog va to‘rt pardadan iborat.

Qisqacha mazmuni

Prolog. Qadimiy rus Novgorod-Severskiy knyazligida, Putivl shahri maydonida aholi yig‘ilgan. Ular Knyaz Igorni sharaflashadi, knyaz o‘g‘li Vladimir va drujina bilan poloveslarga qarshi yurishga otlanmoqda. To‘satdan quyosh tutilishi ro‘y beradi. Igorning rafiqasi Yaroslavna, xalq va boyarlar bunda yomonlikni sezib, knyazni yurishdan voz kechishga undaydilar. Biroq u ko‘nmaydi. Ikki askar: skomorox-gudokchilar¹² Skula va Yeroshka qo‘rquvga tushib, askarlikdan qochishga va Igorning yurishi vaqtida Putivlda knyazlik qilishi lozim bo‘lgan Galitskiy – Yaroslavna ukasi xizmatiga kirishga qaror qiladilar. Igor va jangchilar rafiqalari bilan xayrlashib yurishni boshlaydilar.

¹² Gudok – qadimiy kamonli rus cholg‘usi.

Birinchi parda. Birinchi ko'rinish. Vladimir Galitskiy knyazlik hovlisida tongdan kechgacha kayf-safo davom etadi. Drujinadan qochgan Skula Yeroshka bilan va ziyofatdagi malaylar knyazning yangi niyatini qo'llaydilar, uning ko'ngil ochishi uchun xizmatkorlar qizni o'g'rilab kelishgan. Galitskiy Igor o'rniga "Putivl knyazi taxtiga o'tirishni" orzu qiladi. Qizlar yugurib kirishadi va dugonalarini ozod qilishni so'rashadi, ammo Galitskiy ularni haydab yuboradi.

Ikkinchi ko'rinish. Yaroslavna ko'shki. Knyagina Igordan xavotirda, undan anchadan beri xabar yo'q. Uning yoniga qizlar kelishadi, ular o'zlarini Galitskiydan himoya qilishni so'rashadi. Knyaz paydo bo'ladi. Yaroslavna undan tushuntirish talab qiladi. Galitskiy qo'pol muomala bilan beadablik qiladi, lekin knyaginaning g'azabli so'zlaridan keyin tinchlanadi. Kutilmaganda boyarlar kelishadi; ular drujinaning mag'lubiyati, Igorning yaralangani va o'g'li bilan birga hibsga olinganligi haqida xabar berishadi. Bu orada Putivlga xon Gaak boshchiligida poloveslar yaqinlashib keladilar. Xavotirli sado jaranglaydi, hamma shahar himoyasiga o'tlanadi.

Ikkinchi parda. Poloveslar qarorgohi, kech payti. Xon Konchak qizi – Konchakovna o'tovi yonida to'plangan qizlar uni qo'shiq va raqs bilan ko'nglini ochishadi. Konchakovna sevgilisi – Vladimir Igorevich bilan uchrashuvni kutmoqda. Sevishganlar nikoh to'yi haqida orzu qiladilar va bir-birlariga sodiq qolishga qasamyod qiladilar. Igor paydo bo'ladi. U mag'lubiyat va hibsga olinganligidan og'ir ahvolga tushgan. Uni o'zi va Vatanining taqdiri haqidagi og'ir o'ylar qiynaydi. Cho'qingan poloveslik Ovlur Igorga qochishni taklif qiladi, lekin Igor ikkilanadi: u xon Konchakning kafolati ostida.

Xon Konchak ovdan qaytadi. Unga mard rus knyazi yoqib qolgan, uni faxrli mehmon sifatida qabul qiladi, unga ittifoqdosh, do'st bo'lishni istaydi va hatto Igorni poloveslarga qarshi boshqa yurishdan voz kechish evaziga hibsdan ozod etishga ham tayyor. Lekin Igor dushmanga qarshi yangi yurishga o'tlanish orzusi borligiga iqror bo'ladi. Igorni yomon fikrlardan chalg'itish uchun Konchak tutqun ayollarni keltirishni buyuradi; poloves raqslari boshlanadi. Poloveslar Konchakni sharaflaydilar.

Uchinchi parda¹³. Xon Gaak Rusga muvaffaqiyatli yurishdan boy o'lja bilan qaytmoqda. Ko'plab ruslar asirga olingan. Igor o'g'li bilan mag'lubiyatga uchragan, dushman shafqatsizligidan Putivl xonavayron bo'lgan. Ular Ovlur yordamida asirlikdan qochishga qaror qiladilar. Konchakovna Igorning Ovlur bilan so'zlashganini eshitib, Vladimirga uni tashlab ketmasligini so'rab yolboradi, biroq Igor o'g'li bilan sevgilisini tashlab ketishini talab qiladi. Shunda Konchakovna butun qarorgohdagilarni uyg'otadi va Vladimiri tutib oladi. Igor qochishga ulguradi, Konchak esa qizining to'yi va Rusga yangi yurish to'g'risida e'lon qiladi.

To'rtinchi parda. Erta tongda Putivl shahar devori yonida Yaroslavovna Igorni sog'inib yig'laydi. Uning yonidan poloveslar tomonidan xonavayron qiligan qishloq dehqonlari o'tib borishadi. To'satdan ikki otliq paydo bo'ladi: bular Igor va Ovlur. Igorning Yaroslavovna bilan baxtli uchrashuvi ro'y beradi.

Kutilmaganda Igorni ko'rib qolgan topqir gudokchilar Skula va Yeroshka, knyazning asirlikdan qutulib kelganligi haqida birinchilardan bo'lib xabar berish maqsadida qo'ng'iroqlarni chala boshlaydilar, bu bilan ular knyaz tomonidan avf qilinishga umid qiladilar. Shaharliklar yig'iladilar – gudokchilarning ayyorligi qo'l keladi, xursandchilikdan ularni kechiradilar. Hamma Igorni sharaflaydi.

¹³ Opera sahnalashtirilishida ko'p hollarda tushirib qoldiriladi.

Opera katta *uvertura* bilan boshlanadi, unda opera mavzulari ishlatilgan va ruslar hamda poloveslar musiqiy obrazlari qarama-qarshi qo'yilgan¹⁴.

Prolog. M.Glinka singari, A.P.Borodin operani katta xor sahnasi bilan ochadi. "Солнцу красному слава" ("Go'zal qo'yoshga sharaf") xalq xori prologni qamrab oladi, u poloveslar bilan kurashga jo'nayotgan jangchilar mardligini kuylaydi. Xorning ulug'vor sadosi, uning tantanaligi va barqarorligi rus xalqining mardona obrazini talqin etadi. Bosh mavzu qadimiy epik va marosim qo'shiqlariga yaqin; unga lad o'zgaruvchanligi, parallel ovoz yuritilishi, yarim tonlarsiz ohanglar xosdir¹⁵.

55

O'rtacha tez. tantanali

Com - mь крас - но - му сол - на Сол - на Сол - на во - се у
7 на! Крас - но И - то - про сол - на, сол - на, сол - на у нас на! Ру - сь!

Quyosh tutilishi sahnasi prolog boshlanishiga nisbatan yorqin, qarama-qarshi sadolanadi. Uning musiqasi umumiy dahshat va dovdirash, kelayotgan kulfatdan xavotirlanishni aks ettiradi. Ushbu lavhadagi g'alati garmonik va kuy vositalari orkestrning sirli, zulmatli sadolanishi bilan ta'kidlanuvchi basda cho'zib turiladigan re tovushi asosida, orttirilgan uchtovushlikning

¹⁴ Uvertura I.Glazunov xotirasi asosida yozib olingan yoki (boshqa tahmin bo'yicha) uning o'zi A.P.Borodin rejasi bo'yicha yozgan.

¹⁵ Kuy pentatonika – besh pog'onali yarim tonsiz lad bosqichlari bo'ylab harakatlanadi, bu ko'pgina qadimiy xalq qo'shiqlarida uchraydi.

vahimali bo'yog'ida va "sudraluvchi" xromatik yurishlardagi sekundakkordlar izchilligida beriladi:

56

O'rtacha



Skula va Yeroshkaning kichkina sahna-dialogi – qo'rqoq «askarlar»ning aniq va mohirona tavsifidir. Skulaning o'ziga ishonch bilan ayyorlik qilishi, Yeroshkaning soddalarcha qo'rqoqligi va hatto ularning harakatlari o'tkir rechitativ luqmalar va orkerstr jumllalarida ifoda etilgan.

Birinchi parda. Birinchi ko'rinish. Galitskiy qo'shig'i (bas) – “yalang oyoq knyazning” (Stasov uni shunday atagan) yorqin tasvirlangan portreti bo'lib, uning bebosh xarakteri, shuhratparastligi va surbetligini ochib beradi, shu bilan birga, Borodinning aytishicha, unda “ba'zi nafislik” ham yo'q emas. Orkestr muqaddimasining intiluvchan gammasi va sinkopali akkordlar zanjiri, shuningdek, “Грешно таить: я скуки не люблю” (“Sir saqlasam, gunoh bo'lar: yoqtirmasman zerikishni”) keng rechitativining o'ziyoq qahramonning adabsizligi va bezbetligini tasvirlaydi. Qo'shiqning chetki bo'limlarida (qo'shiq uch qismli tuzilmaga ega) sadolanuvchi bosh mavzu sodda, qizg'in va takrorlanuvchi ohanglarga qurilgan; uning raqsona ritmi orkestrda takrorlanadi:

O'rtacha tez

Толь - во б мис - ло - жды - см че - стн. я в - нн - ле кня - зем су - стн. .
 я б не стл ту - жнть, я бы шл, как жнть'

O'rtacha qism (“К ночи в терем” (“Tunda ko‘shkda”)) boshqa xarakterga ega, uning muloyim kuyi ravon kuychan jo‘rlukda o‘g‘rincha sevgi izhori sifatida sadolanadi.

Ikkinchi ko‘rinish. Bu ko‘rinishni boshlab beruvchi *Yaroslavna ariozosida* (soprano) boshqa obraz gavdalanadi. Knyazning yosh rafiqasiga¹⁶ nafaqat Igorga bo‘lgan beqiyos nafosat va muhabbat xos, balki u kuchli xarakter, rus knyaginyasining ulug‘vorligi, mag‘rurligiga ega, Yaroslavnaning bu xususiyatlari keyingi sahnalarda ochib beriladi.

Ariozo musiqasida uning lirik jihatlari to‘laroq ko‘rsatilgan, qalb sog‘inchi, xavotirli hissiyotlar, sevikli inson taqdiri haqidagi o‘ylar ko‘rsatilgan, “Ах, где ты, где ты, прежняя попа” (“Oh, qaydasan, qaydasan, o‘sha damlar”) ariozosining asosiy mavzusi esa o‘zining intonatsiyasi bo‘yicha Igorning ayrim mavzulariga yaqin turadi:

Jenliroq


Ах, где ты, где ты, прежняя по - па, ко - еда мой по - да был со мно - ю.

¹⁶ Efrosinya Yaroslavovna Galitskaya knyaz Igorning ikkinchi rafiqasi edi.

“Мы к тебе княгина” (“Xuzuringga keldik, knyaginiya”) qizlar xori osuda yorqin kuyi va oʻzgaruvchan ladning nafis jilvalanishi bilan rus qoʻshiqlarini eslatadi; uning erkalovchi mayinligi Yaroslavnaning xarakteriga oʻxshaydi. Ularni xafa qilgandan himoya qilishni soʻrash goh ishonuvchan, goh jurʼatsiz (sahna boshlanishida), goh hayajon bilan va yolboruvchan (oxirida) sadolanadi:

59

Shoshilmasdan



Мы к те - бе, кня-ги-ня, мы к те - бе, рад-на - я, цро-сим - мы - зно, не о-ста-ет нас.

“Мужайся, княгина” (“Bardam boʻl, knyaginiya”) boyarlar xori gʻayrioddiy tarzda keskin va vazmin. Tonalliklarning doimiy oʻzgarishi, birinchi jumlalardagi mi-bemol minorning zulmatli sadolanishi, joʻrnavozlikdagi sakkiztalik notalarning toʻxtovsiz harakati ostida buriluvchan kuyning ogʻir harakati muqarrar kulfat, baxtsizlikdan darak beradi:

60

Shoshilmasdan
p



Мы - жай - ся, кня - ги - ня не - бо - я - сь. Не - те - бя, мы не - ве-дем, кня - ги - ня.

Ikkinchi parda. Poloveslar qarorgohi. Janubiy dasht iliq, yoqimli islarga to'lgan. Botayotgan quyosh nurlari mayin ranglarda poloveslar chodirlarini yoritib turadi. Go'zal cheksiz manzara, muallaq havo mutlaqo osoyishtalikdan darak beradi. Oldimizda boshqa dunyo, boshqa odamlar, o'zgacha his-tuyg'ular va kompozitor tomonidan qo'llanilgan boshqa ifodaviy vositalar. Kavkazcha, O'rta Osiyo va hatto arab kuylarining ko'plarini o'rgangan A.P.Borodin operaning Sharqni tasvirlovchi sahnalarida o'zining original mavzularini yaratdi, ularda xalq qo'shiqlarining turli: intonatsiyali, ladga oid xususiyatlari umumlashtirilgan holda birlashtirildi.

Parda boshlanishidagi poloves qizining xor bilan ijro etiladigan qo'shig'ida xumorli va xayolchan, ilhombaxsh lirik obraz tug'iladi. Undan keyin keladigan raqs o'zining nozli, mayin kuyi, ajoyib ritmi va kutilmagandagi tonal almashinuylari bilan kishini maftun qiladi.

Konchakovna kavatinasi (kontralto) "Меркнет свет дневной" ("So'nar kunduzgi nur") sharq go'zali portretini tasvirlaydi, u o'z sevgilisini kutmoqda. Kavatina asosiy bo'limining kuyi noz va ehtirosga to'la sevgi qo'shig'i sifatida sadolanadi. U o'zining tuzilishi bo'yicha improvizatsiyali, xromatizmlar bilan bezalgan, murakkab ritmikaga ega, tonal jihatdan noturg'un. Orkestr jo'mavozligi to'g'ridan-to'g'ri garmoniyalar va sharqona musiqaga xos bo'lgan organ punkti bilan yo'g'rilgan.

61

(Keng)
andante

Ноч, ой - цай-ца цю-пей, тасоф о - ку-тай ме-н...

Vladimir kavatinasi (tenor) va uning Konchakovna bilan duetida ular qalbini birlashtirgan nafis va ehtirosli tuyg‘u ifodalanadi.

Igor ariyasi (bariton) “Ни сна, ни отдыха измученной душе” (Na uyqu, na dam bordir qiynalgan qalbga”) qahramonning bosh musiqiy tavsifi bo‘lib, uning chuqur kechinmalarini aks ettiradi. Ariya rechitativ muqaddima va xotima bilan uch qisimli shaklda tuzilgan. Orkestr muqaddimasi va Igorning birinchi jumalari mujassamlikda va qayg‘uli sadolanadi. Lekin ariyaning “О, дайте, дайте мне свободу” (“O, bering menga, bering ozodlik”) asosiy mavzusining paydo bo‘lishi musiqa kayfiyatini keskin o‘zgartiradi: u barqaror, qudratli, ozodlikka mardonavor intilish va ehtirosli istakka to‘la, buni marsh ritmi ham ta’kidlaydi.

62

Shoshilmasdan, jonli

О дай - те, дай - те мне сво - бо - ду, я мой по - жар су - ме - ю ис - ку - шить,
 спа - су я честь сво - ю и сла - ву, я Русь от не - дру - га спа - су'

Ariyaning o‘rta qismi “Ты одна, голубка лада” (“Sen yagonasan, azizim”) ziddiyat olib kiradi: Igor xayolan Yaroslavnaga murojaat qiladi va keng lirik mavzu (Igor muhabbati mavzusi) erkalovchi, yorqin va osoyishta sadolanadi.

63

Og‘irroq
dolce

Ты, ол - на, го - луб - ка ла - да, ты ол - на же - нит - ь мо - ста - нит - ь,
 серд - цем чут - ким все пой - мешь ты, все ты мне про - стит - ь.'

Ariya koda bilan tugaydi (rechitativ xotima ko'rinishida), unda Igorning qalb azoblari avjiga chiqadi: "Ох, тяжко мне... Тяжко сознание бессилья моего!" (Oh, menga og'ir... Zaifligim bo'yinga olish og'ir!").

Konchak ariyasi (bas) sharq hukmdorining murakkab obrazini tasvirlaydi: unda dovyuraklik va o'z qudratidan rohatlanish, shafqatsizlik va olijanoblik, ayyorlik va o'ziga xos himmat uyg'unlashib ketadi. Ariya bir nechta turli xarakterdagi lavhalardan tashkil topadi. Boshlang'ich orkestr jumlasini o'zining mayin tritonlari bilan va Konchakning boshlang'ich rechitativi shu zahotiy oq bizga qahramon obrazining ko'p qirrali: goh hukmdorlarcha ulug'vorlik, goh o'zini o'g'rincha tutishni tasvirlab beradi. "Ты ранен в битве при Каяле" ("Sen Kayal yonidagi jangda yaralanding") (Allegro) lavhasi xonning jangovar qiyofasini ochib beradi: intiluvchan temp, otda chopishga o'xshash ritm, garmonik noturg'unlik bunga xizmat qiladi.

"О нет, нет, друг, ты не пленник мой" ("О, yo'q, yo'q, do'stim, sen mening asirim emassan") (Andantino, si-bemol major) markaziy bo'lim yangi kayfiyat yaratadi: xotirjam osoyishtalik. Igorga bo'lgan samimiy hurmat (yashiringan ayyorlik bilan), ravon, keng kuyda moslanuvchan sinkopali ritm bilan ifoda etilgan; u basdagi tonikali kvinta va xarakterli triol shakli jo'rliqida sadolanadi.

64

Shoshilmasdan

О нет, нет, друг, ты не пленник мой

ты ранен в битве при Каяле

Ariyaning yakuniy “Хочешь ты пленницу с моря дальнего” (“Istaysanmi asirani uzoq dengizdan”) (Allegretto moderato) bo‘limi tez tempda ijro etiladi va kuydagi nozik xromatizmlar bilan ajralib turadi.

Xor bilan poloveslar raqsi ikkinchi pardani yakunlaydi. Ushbu katta sahna turli xarakterdagi Sharq obrazlarini taqqoslash va rivojlantirishga asoslangan baletli vokal-simfonik suitani tashkil qiladi. Sahnani asira qizlarning “Улетай на крыльях ветра ты в край родной” (“Shamol qanotlarida uchib ketgil sen ona yurt tomon”) ravon va shoirona qo‘shiq-raqsi boshlab beradi, u uzoq va go‘zal vatan haqidagi xotira sifatida sadolanadi. Xorning nafis, naqshli kuyi yakkanavoz goboy bilan qo‘shilib, rang-barang garmoniyalar bilan bezatiladi:

65

Shushilmadan

У-ле-тай на кры-льях вет-ра ты в край род-ной, род-на - я бес-на-ша, ты - на, ты - на


мы те-бя счи-таем тво-им, счи-таем тво-им, так при-зна-ем твою на-ше-го - го - го

Qo‘shiqning o‘ychan kayfiyati erkaklarning shiddatli, jangovar, keskin aylanuvchi mavzuli lezginka ritmidagi. Borodinning fikricha, “yovvoyi” raqsi bilan almashadi. Keyingi umumiy raqs davomida xonni sharaflash sadolanadi; u, o‘z navbatida, o‘g‘il bolalarning yengil va yanada “yovvoyiroq” raqsi bilan almashadi. So‘ng barcha raqslar takrorlanadi, biroq endi ular variatsiyalashtirilgan ko‘rinishda keladi: ularning mavzulari bir-biriga chirmashib, yangi g‘aroyib sadolar yaratadi. B.V.Asafyevning ta‘biricha, ushbu “raqsdagi simfoniya – poema” ulkan avj bilan tugaydi, uning har biri olovli raqsga to‘la.

Uchinchi parda Poloves marshi bilan ochiladi. Bu ko‘chmanchilarning yana bir musiqiy tavsifidir, biroq ular bu

yerda shafqatsiz va yirtqich bosqinchilar sifatida namoyon bo'ladilar. Gaak xoni poloves jangchilarining yaqinlashib kelishi orkestr sadosining asta-sekin o'sib borishi yordamida tasvirlanadi.

Marshning bosh mavzusi qattiq sadolanadi, unga keskin xromatik ohanglar, forshlaglar bilan dissonansli akkordlar va ta'kidlangan g'azabnok shakl xos bo'lib, u marshning chetki bo'limlari ichidan o'tadi (marsh muqaddima va koda bilan uch qismli tuzilmaga ega):



To'rtinchi parda *Yaroslavna yig'isi* bilan boshlanadi. Operaning ushbu noodatiy ariyasida rus ayolining musibati vatan, ona xalqi haqidagi qayg'urishi birlashib ketadi. Yig'i matnini A.P.Borodin to'laligicha "Igor polki haqidagi so'z"dan oldi. Uning obrazlari ajoyib darajada shoirona – shamolga, daryoga, quyoshga jonzot sifatida murojaat qilish slavyan folklorida ko'p uchraydi. Kompozitsiyasi bo'yicha yig'i rondo shakliga yaqin va bir necha bo'limlardan tashkil topgan, ular refren orqali almashadi.

Refren kuyi ruscha aytib yig'lashlarga xos bo'lgan pastga harakatlanuvchi sekundali ohanglarga qurilgan; ular doimo bitta tovush (*fa-diyez*)ga qaytib keladi va jo'mavozlikning puch, "zerikarli" sadosi ostida jaranglaydi. Birinchi marta refren orkestr muqaddimasida navbat bilan yakkanavoz klarnet va fleytada, keyin Yaroslavna kuylashida har bir bo'lim oldidan takrorlanadi:

66

O'rtacha

AN: Ila - sy a, topo - so bla-sy a, che - ba:ba:
 ja x ba - ba - sy ba, so - pe ma: pa - ba ba - sy - sy.

Yig'ining birinchi lavhasi “Я кукушкою перелетною полечу к реке Дунайю” (“Men kakku bo'lib uchaman Dunay daryosi sari”) Igor sevgisi mavzusiga tuzilgan (ikkinchi pardadagi ariyaning o'rta qismidan), bu bilan opera bosh qahramonlari tuyg'ularining umuniyligi ta'kidlanadi; bu kuy ariya so'ngida, quyoshga murojaatda yana bir bor takrorlanadi.

Dehqonlar xori Yaroslavna mungli yig'isini go'yo davom ettiradi, bu bilan knyaginya va xalq tuyg'ulari biriligi ifodalanadi. Xor qat'iy va salmoqli, cho'zib aytiluvchi qo'shiq singari sadolanadi. U yakkaxon kuylash bilan boshlanadi, unga asta-sekin yangi yordamchi ovozlar qo'shilib boradi. Xalq qo'shiqlari kabi, xorning deyarli hammasi *a kapella* ijro etiladi, uning dinamikasi tovush kuchining tobora kuchayib borishi, keyin esa pasayishi hisobiga (yaqinlashish va uzoqlashish tasavvuri) tuziladi.

67

O'rtacha

Ох, по сибирьмь ре-тер на-мь-ваз,
по реку-мь-мь, на-мь-ваз.

M.Glinka operalari kabi, “Knyaz Igor” tantanali final xori bilan yakunlanadi, unda xalq shod-xurramlik bilan Igorni sharaflaydi.

Savol va topshiriqlar

1. “Knyaz Igor” operasi yaratilishi tarixini gapirib bering. Unga qaysi adabiy asar asos qilib olingan?
2. Asarning asosiy g'oyasi nimadan iborat? Opera qaysi janrga mansub?
3. Har bir pardaning mazmunini bayon qilib bering.

4. *Asar asosiy qarama-qarshiligining mohiyati nimadan iborat? Unda rus xalqi va poloveslar qanday musiqiy vositalar orqali tavsiflangan?*

5. *Opera qahramonlarining musiqiy portretlari haqida so'zlab bering.*

6. *Ularning vokal partiyalari qaysi ovozlarga topshirilgan?*

IKKINCHI SIMFONIYA

A.P.Borodin N.Rimskiy-Korsakov va P.Chaykovskiy bilan birga rus klassik simfoniyasi yaratuvchilaridan bo'ldi. Opera janridagi kabi, kompozitorni rus doston va ertaklari mavzu va xarakterlari bilan bog'liq bo'lgan katta epik obrazlar o'ziga jalb qildi; A.P.Borodin so'zlariga qaraganda, uni doimo simfonik shakllar o'ziga tortib turardi.

Kompozitor Ikkinchi simfoniya (si minor) ustida 1869–yildan 1876–yilgacha ishladi, bir vaqtning o'zida u “Knyaz Igor”ni yaratdi. Simfoniya va opera o'zining xarakteri va mazmuni bo'yicha bir-biriga yaqin. Yozib ulgurgan simfoniya musiqasi parchalarini A.P.Borodin M.Balakirev to'garagi majlislarida o'z do'stlariga ko'rsatganida, barchaga kuchli ta'sir qildi. Qahramonona epik obrazlar yorqinligi, Vatanga muhabbat g'oyasi Musorskiyga yangi simfoniyani “Slavyancha qahramonona” deb atash uchun maslahat berishiga asos bo'ldi; Stasov o'z navbatida uni “Bahodirona” deb atadi, bunda u muallifning aniq dasturiga suyandi, muallif og'ir qismda “Bayan siymosini, birinchi qismda rus bahodirlari yig'ilishini, finalda gusli cholg'ular sadolari, to'plangan ulug' xalq shod-xurramligi ostida bahodirlar ziyofatini tasvirlamoqchi bo'ldi”.

Simfoniya to'rt qismdan iborat.

Birinchi qism (si minor) sonata allegrosi shaklida yozilgan va asarning bahodirona obrazlarini, B.V.Asafyevning so'zlariga qaraganda, bizning davrdan tortib Igor yashab o'tgan Ruscacha bo'lgan hayotbaxsh tuyg'usini yorqinroq ochib beradi.

B o s h p a r t i y a ikkita bir-biriga qarama-qarshi unsurlarga tuzilgan. Boshlang'ich – mardonavor, qat'iy va qahramonona unison mavzu – asarning asosiy bahodirona obrazini talqin etadi. Unga o'ziga xos "chayqaluvchi", doimo tonikaga qaytib keladigan kuy, dostonga xos ohanglar, o'ziga xos lad bo'yoqlari, asosan, torli cholg'ular guruhining qudratli sadolanishi xosdir:

68

Tez

Bosh partiyaning ikkinchi unsuri – yog'ochli puflama cholg'ularda yuqori registrdagi jonli "raqsona" tersiyalari bilan – ruscha mardona dovyuraklikni ifoda etadi:


69

Jonliroq

Bosh partiya oxirida mavzuning boshlang'ich unsuri qaror topadi.

Yondosh partiya (re major) – nafis, ajoyib kuy - olijanoblik va iliqlikka to'la; u violonchellarda yumshoq va ta'sirchan sadolanadi, o'zining egiluvchan kuychan ohanglari bilan rus lirik qo'shiqlarini esga soladi:

70



Yakuniy partiya asosan bosh, bahodirona mavzuni re majorda qizg'in o'tkazilishiga tuzilgan.

Rivajlov bitta obraz yoki turli mavzular ziddiyatining rivojlanishiga emas, balki ekspozitsiya mavzulariga asoslangan qarama-qarshi lavhalarning almashinuviga tuziladi. Ekspozitsiyadan rivojlovga o'tish - vazmin, go'yo "qotib qolgan" ko'rinishda bo'lib, u otda chopishning shiddatli va behalovat ritmi bilan almashadi; uning sadolari ostida bahodirlar jangi manzarasini yaratib, bosh partiyaning ohanglari xavotirli sadolanadi. Rivojlovning ushbu bo'limi bosh partiya raqsona ohangini yorqin, g'olibona o'tkazilishi bilan tugaydi.

Yondosh partiya kuychan va ulug'vor sadolanadigan keyingi lavha – o'ziga xos xordiq bo'lib, undan keyin jang manzarasi qayta tiklanadi: bosh partiya qaytib keladi, dominant organ punktidagi keskinlikning davomli o'sib borishi esa, rivojlov kulminatsiyasiga olib keladi, bu reprizaning boshlanishiga to'g'ri keladi.

Reprizada bosh partiya yanada qudratliroq va ulug'vorroq, ritmi kengaygan holda (ya'ni yirikroq cho'zimlarda bayon

etilgan holda) sadolanadi. Yondosh partiya, aksincha, yakkanavoz goboy va mi-bemol majorning yangi bo'yoqlari tufayli mayinroq va yorqinroq tus oladi.

Simfoniyaning birinchi qismini asosiy bahodirona mavzuning qaqshatqich qudratli sadolanishi yakunlaydi.

Ikkinchi qism, Skerso (fa major) tasavvurimizda bahodirlar o'yini va musobaqasi manzarasini yaratadi. U murakkab uch qisimli shaklda tuzilgan¹⁷. Chetki bo'limlar shiddatli va keskin bo'lib, tabiiy botirona kuchga to'la. Ular osoyishta, nafis, sharqona xarakterdagi nozli lirik mavzuli Trioni qamrab oladi, u bir vaqtning o'zida birinchi qism yondosh partiyasiga kuy jihatidan yaqin turadi. Trioning qisqa mavzusi tonalliklar va tembr o'zgarishlari bilan ko'p marta takrorlanadi:

71-a



Uchinchi qism, Andante (re-bemol major), kompozitor g'oyasi bo'yicha, qadimiy qo'shiqchi-dostonchi Bayan obrazini talqin etadi. Uning ohista hikoyasi oldidan gusli cholg'usi sadolarini eslatuvchi arfa akkordlari yangraydi. Akkordlar jo'rligida yakkanavoz valtorna va klarnet ijrosida epik ulug'vor, ohangdor kuy paydo bo'ladi. Uning erkin, egiluvchan ritmi, o'zgaruvchan o'lchovi, improvizatsiyaga moyil uslubi afsonaviy qo'shiqchining nutqini aks ettiradi:

¹⁷ Murakkab uch qisimli shaklda chetki qismlar o'zining tuzilishi bo'yicha doimo davriyaga nisbatan murakkabroq bo'lishini eslatib o'tamiz; o'rta qism odatda asarning birinchi qismi bilan yorqin ziddiyatda bo'ladi.



Uchinchi qism sonata shaklida yozilgan. Keyingi yondosh va yakuniy partiyalar, shuningdek rivojlov (go'yo hikoya qilinayotgan voqealar bo'yicha) bahodirlar jangi va jasorati manzarasini aks ettiradi va shuning uchun ham ular yanada keskinroq, dramatik xarakterda sadolanadi. Reprizada bosh partiya Bayan shoirona hikoyasining g'alaba shodiyonasining kulminatsiyasi sifatida orkestr ijrosida jaranglaydi.

Simfoniyaning uchinchi va to'rtinchi qismlari tanaffussiz ijro etiladi.

Simfoniya finali (si major) shovqinli xalq bayrami – “bahodirlar ziyofati sahnasini” – tasvirlaydi va u butun turkumning yakunidir. Mardona va shiddatli bosh hamda yorqin qo'shiqsimon yondosh partiya (final sonata shaklida yozilgan) umumiy quvonch va shodiyonaning yaxlit obrazini yaratadi. Mavzularning xalqona xarakteri orkestrda rus xalq cholg'ulari – xushtak, gusli, balalaykalar tembrini mohirona talqin etish bilan ta'kidlanadi.

A.P.Borodinning Ikkinchi simfoniyasi rus simfonik musiqasidagi epik yo'nalishni belgilab berdi, u keyinchalik S.Taneyev, A.Glazunov, S.Raxmaninov, N.Myaskovskiy va boshqa kompozitorlar tomonidan davom ettirildi hamda rivojlantirildi. Bu asar musiqa san'atida alohida o'rin tutadi.

Savol va topshiriqlar

1. *A.P.Borodinning Ikkinchi simfoniyasi yaratilishi haqida gapirib bering. Uning asosiy g'oyasi va mazmuni nimalardan iborat?*

2. *Birinchi qismning asosiy mavzularini tavsiflang.*

3. *Birinchi qism rivojlovining kompozitsiya xususiyati nimadan iborat?*

4. *Simfoniya boshqa qismlarini qisqacha tavsiflang.*

5. *Borodinning ijodi rus simfonik musiqasi tarixida qanday ahamiyatga ega?*

ASOSIY ASARLARI

“Knyaz Igor” operasi.

Simfonik asarlar: 3 ta simfoniya, “O'rta Osiyoda” musiqiy manzara.

Kamer cholg'u asarlari: 2 ta kvartet, fortepiano kvinteti.

Kamer vokal asarlari: 18 ta romans.

Fortepiano asarlari: “Kichik suite”, turli miniaturalar.

**NIKOLAY ANDREYEVICH
RIMSKIY-KORSAKOV
(1844–1908)**



Kompozitor, dirijor, pedagog, musiqiy-jamoatchi arbob N.A.Rimskiy-Korsakov samarali ijodiy yo'lni bosib o'tdi. "Moguchaya kuchka" a'zolari ichida eng yoshi kichik bo'lgan kompozitor butun hayoti davomida Balakirev to'garagi g'oyalariga sodiq qoldi, rus san'atiga sidqidildan xizmat qildi. Uning ijodida rus hamda jahon musiqa madaniyatining an'analari birlashib ketdi, ammo unga ezgulik va adolat tantanasiga ishonchi, olijanob artistligi hamda nozik didi bo'lgan M.Glinka juda yaqin edi. N.A.Rimskiy-Korsakov professionallik va mahorat masalalari borasida juda talabchan bo'lib, o'z asarlarining yanada go'zal va mukammal bo'lishiga doimo intilardi.

Kompozitor asarlarining mavzulari va sujetlari xilma-xil: bu rus tarixi va ruhiy nozik xarakterlari bilan turmush dramasi, rus xalq hayotining manzaralari va Sharq obrazlari, ertakona va qadimiy butparastlik udumlri. N.A.Rimskiy-Korsakov buyuk "tabiat shoiri" bo'lib, uning so'nmas go'zalligini kuyladi. Xalq san'atining abadiyligi oldida bosh egib, u o'z asarlariga ko'p hollarda asl xalq kuylarini kiritar va xalq yo'nalishida o'z mavzularini yaratardi. U ertakona obrazlar yaratish uchun foydalangan qat'iy va yorqin garmoniyalar yangi murakkab ladlar bilan uyg'unlashib ketadi. N.A.Rimskiy-Korsakovning

orkestrlashtirishi alohida mahorat va mukammalligi bilan shuhrat qozongan, u o'zida M.Glinka an'analarini, shuningdek, Yevropa kompozitorlarining cholg'ulashtirish xususiyatlarini birlashtiradi.

N.A.Rimskiy-Korsakov ijodida ertakona va tarixiy-turmush, epik va lirik-psixologik dramali opera asosiy janr bo'ldi. Kompozitor simfonik ertak janrini yaratib, dasturli simfonik musiqani boyitdi. Uning vokal lirikasi shoirona sadolanadi, unga yorqin mushohada va hazin o'ychanlik xos. U qayta ishlagan rus xalq qo'shiqlari to'plamlari xalq qo'shiqchilik ijodining haqiqiy xazinasiga aylandi.

Rimskiy-Korsakov kompozitorlik maktabining asoschisi bo'ldi, u A.Glazunov, A.Lyadov, A.Arenskiy, M.Ippolitov-Ivanov, A.Cherepnin, A.Grechaninov, I.Stravinskiy va boshqa ko'plab mohir ijodkorlarni tarbiyaladi.

HAYOT YO'LI

Bolalik. O'qish yillari. Dunyo bo'ylab kemada suzish. Nikolay Andreyevich Rimskiy-Korsakov 1844–yil 6–martda Novgorod guberniyasining uncha katta bo'lmagan manzarali shaharchasi – Tixvinda tug'ildi. Uning oilasi qadimiy dvoryanlar avlodiga mansub bo'lgan. Uning ilk musiqiy taassurotlari uy sharoitida musiqiy mashg'ulotlar bilan bog'liq bo'ldi: otasi fortepianoda yaxshi ijro etar, onasi va amakisi esa xalq qo'shiqlarini kuylashardi; u Tixvin erkaklar ibodatxonasida eshitgan diniy musiqa ham yodida o'rnanib qoldi. Bolaning musiqiy qobiliyati juda erta namoyon bo'ldi; keyinchalik u o'zining “Musiqiy hayotim solnomasi” esdaliklar kitobida shunday yozgan edi:

“Menga onam kuylagan qo‘shiqning ohanglarini yaxshi farqlay boshlaganimda hali ikki yoshga to‘lmagan edim; keyin uch yoki to‘rt yoshligimda fortepiano chalayotgan otamga men o‘yinchoq barabanda yaxshigina jo‘r bo‘lardim. Otam ataylab kutilmaganda temp va ritmni o‘zgartirar va men shu zahotiyiq unga ergashardim. Tez orada otam chalgan barcha asarlarni aniq xirgoyi qila boshladim va ko‘pincha u bilan birga kuylardim; keyinchalik esa o‘zim ham uning ijrosida eshitgan pyesalarni garmoniyasi bilan fortepianoda ijro etardim; keyinroq, nota nomlarini bilib olgach, boshqa xonada turib fortepianoning istalgan tonini yaxshi ajratib, tovush nomini aniq aytib bera oladigan bo‘ldim”.

Ammo, musiqiy qobiliyatning erta namoyon bo‘lishiga qaramasdan, bolaning haqiqiy qiziqishi dengiz edi – u amakisi va akasi kabi harbiy dengizchi bo‘lishni orzu qilardi va 1856–yilda uni Peterburgdagi Dengiz korpusiga o‘qishga kiritishadi. Bu yerda u olti yil davomida o‘qidi.

Korpusdagi rasmiy muhit yigitchaga yoqmasdi. Dengizchilik kasbi asta-sekin boshqa qiziqishlarga o‘rin bo‘shata boshladi, bu qiziqishlar markazida musiqa o‘rin olgan edi. Yakshanba kunlari u fortepiano darslariga qatnar, opera spektakllari va konsertlarga borar, opera klavirlarini diqqat bilan o‘rganardi; M.Glinka uning sevimli kompozitoriga aylandi. N.A.Rimskiy-Korsakov taqdirida fortepiano o‘qituvchisi Kanille (u ham M.Glinka musiqasi muxlisi edi) muhim o‘rin egalladi, u yosh kompozitordagi musiqaga bo‘lgan jonli qiziqishni qo‘lladi va u bilan kompozitsiya bo‘yicha shug‘ullana boshladi.

1861–yilda Kanille o‘z o‘quvchisini M.Balakirev bilan, keyin esa S.Kyui, M.Musorgskiy va V.Stasovlar bilan tanishtiradi, M.Balakirev N.A.Rimskiy-Korsakovning kompozitorlik

tajribalarini ma'qulladi va Kanille rahbarligida yozila boshlangan simfoniya ustidagi ishni davom ettirishni maslahat berdi. Musiqa yozish va kompozitsiyani o'rganish M.Balakirev huzuridagi mashg'ulotlarda bir vaqtning o'zida kechardi. N.A.Rimskiy-Korsakovning eslashicha, M.Balakirev ajoyib "texnik tanqidchi" edi, "shakl, modulyatsiya va hokazolarga taalluqli kamchiliklarni shu zahotiy oq ilib olar, fortepiano yoniga o'tirib, asarni qanday qilib tuzatish yoki qayta ishlash kerakligini badihago'ylik asosida ko'rsatib berardi". "M.Balakirev bilan tanishgach, – davom etadi N.A.Rimskiy-Korsakov, – men undan birinchi marta o'qish, o'z bilimini oshirish ustida ishlash, tarix, nafis adabiyot va tanqidchilik bilan tanishish zarurligini bilib oldim".

Ammo tez orada simfoniya ustidagi ish to'xtab qoladi. Oilasi N.A.Rimskiy-Korsakovning professional musiqachi bo'lishiga, bu bilan oila an'alarini buzishiga keskin qarshilik ko'rsatdi. Katta akasi Voin Andreyevich dengiz ma'lumotini tugatish zarur degan fikrda qattiq turib oldi. 1862–yil kuzida gardemarin¹⁸ N.A.Rimskiy-Korsakov "Almaz" kliperida¹⁹ chet el safariga jo'nab ketdi, bu safar deyarli uch yil davom etdi. Safar chog'ida u musiqa bilan kam shug'ullandi, lekin ko'p o'qidi va mushohada qildi, turli mamlakatlarni ko'rdi, dengizning ulug'vor go'zalligidan chuqur taassurot oldi, keyinchalik dengiz obrazi uning asarlarida ko'plab uchraydi.

1865–yil bahorida N.A.Rimskiy-Korsakov Vataniga qaytdi.

Mahorat sari yo'l. Qirg'oq xizmatiga tayinlangan yosh zobit Peterburgda yashay boshladi.

¹⁸ G a r d e m a r i n – dengiz korpusi bitiruvchilariga beriladigan unvon.

¹⁹ K l i p e r – yelkanli tez yurar kema.

U asta-sekin musiqa olamiga kirib, M.Balakirev huzuriga qatnay boshladi. U safardaligi chog'ida Peterburgning musiqiy hayotida katta o'zgarishlar ro'y berdi: birinchi rus konservatoriyasi ochildi, M.Balakirev va G.Lomakin Bepul musiqa maktabini ochishdi, M.Balakirev to'garagida esa "umidli" A.Borodin paydo bo'ldi.

N.A.Rimskiy-Korsakov ijodga qaytadi va tez orada Birinchi simfoniyani tugatadi, bu simfoniya M.Balakirev tomonidan Bepul musiqa maktabi konsertida muvaffaqiyat bilan ijro etildi. Keyin boshqa orkestr asarlari: «Uchta rus qo'shiqlari mavzusiga uvertyura», "Serb fantaziyasi", "Sadko" musiqiy manzara, shuningdek yozuvchi O.Senkovskiyning arabcha ertagi bo'yicha "Antar" simfonik syuitasi. "Sadko" va "Antar" musiqasida dunyo bo'ylab qilingan safar taassurotlari o'z aksini topdi, shuningdek kompozitorning sevimli mavzulari: rus xalq san'ati obrazlari, romantik fantastika, Sharqning nazokatli dunyosi namoyon bo'ldi.

Shu vaqtning o'zida kompozitor qator romanslar: "Ko'z yoshlarimdan" (G.Geyne so'zi), "Sharqona romans" (A.Kolsov so'zi), "Gruziya tepaliklarida" va "Ishonaman, men sevimliman" (A.Pushkin so'zi) va boshqa asarlarni yaratadi. 1868-yil qishida M.Balakirev to'garagi a'zolari A.Dargomijskiyning musiqiy kechalarida ishtirok etishadi, bu kechalarda "Tosh mehmon" asaridan sahnalar, yosh kompozitorlarning yangi asarlari ijro etilardi. Shu vaqtda N.A.Rimskiy-Korsakov iqtidorli musiqachilar – opa-singil Purgoldlar bilan tanishadi, opa-singillar A.Dargomijskiy va "Moguchaya kuchka" kompozitorlari asarlarining doimiy ijrochilari edi. A.Dargomijskiy vafotidan so'ng N.A.Rimskiy-

Korsakov uning vasiyatiga ko'ra, "Tosh mehmon" operasini orkestrlashtiradi.

1868–1872–yillarda kompozitor o'zining birinchi operasi – "Pskovlik ayol" ustida ishlaydi. Bu opera L.Meyning Ivan Grozniyning "erkin shahar" – Pskovni Moskvaga bo'ysundirishi uchun kurash davri tarixiy dramasi sujetiga yozilgan. Avval aytilgandek, shu yillarning o'zida M.Musorgskiy "Boris Godunov" operasini yozayotgan edi, buning ustiga, do'stlar birga yashashardi. Ular ijodiy g'oyalar bilan almashishar, ularni umumiy badiiy qiziqishlar birlashtirib turardi, bularning hammasi ikkala xalq musiqali dramasi ba'zi g'oyaviy, dramaturgik, uslub xususiyatlari yaqinligiga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmasdi. "Pskovlik ayol" premyerasi 1873–yil Mariin teatrida bo'lib o'tdi.

Operaning yozib tugatilishi kompozitor hayotidagi baxtli o'zgarish – ajoyib pianinochi Nadejda Nikolae'vna Purgoldga uylanishi bilan to'g'ri keldi, bu ayol uni bir umr sevdi va unga sadoqatli do'st bo'ldi.

1871–yil yozida N.A.Rimskiy-Korsakov Peterburg konservatoriyasining kuy bastalash, cholg'ulashtirish va, shuningdek, orkestrga rahbarlik qilish bo'yicha professor lavozimida ishlash taklifini qabul qildi. Biroq, yosh musiqachilarni o'qitishni boshlaganda, u o'z ijodiga ham ta'sir etuvchi nazariy bilimlarida katta kamchiliklar borligini sezdi. N.A.Rimskiy-Korsakov o'zi o'qiy boshlaydi, behisob mashqlar va fugalar yozib, qadimiy mualliflar asarlarini o'rganib, garmonik va polifonik texnikani egallaydi. Mashg'ulotlar dasturini tuzishda unga o'sha vaqtlar Moskva konservatoriyasida dars berayotgan P.Chaykovskiy katta yordam berdi.

N.A.Rimskiy-Korsakovning 1870–yillardagi ijodiy ishining yana bir muhim tomoni rus xalq qo‘shiqclarini yozib olish va qayta ishlash bo‘ldi, bunda uni eng qadimiy marosim va o‘yin qo‘shiqclari ko‘proq qiziq-tirdi. Qayta ishlangan qo‘shiqclarning ikkita to‘plami: havaskor qo‘shiqchi T.Filippovdan yozib olingan “40 ta xalq qo‘shiqclari” va kompozitorning o‘zi izlab topgan “100 ta rus xalq qo‘shiqclari” bu ishning yakuni bo‘ldi. Shu vaqtning o‘zida N.A.Rimskiy-Korsakov M.Balakirev hamda A.Lyadov bilan birgalikda yangidan nashr qilish uchun M.Glinkaning opera partituralarini tahrirdan o‘tkazishadi, bu ish, kompozitorning aytishicha, uning uchun “foydali maktab” vazifasini o‘tadi.

Shu yillarning o‘zida kompozitor harbiy-dengiz idorasi puflama cholg‘ular orkestrining inspektori lavozimiga tayinlanadi va o‘n bir yil davomida repertuarni kengaytirish, ijro sifatini oshirish bo‘yicha katta ishlar olib boradi, musiqachilar ahvolini yaxshilashga harakat qiladi. U rus va Yevropa kompozitorlarining ko‘plab asarlarini damli cholg‘ular orkestriga moslashtiradi, damli cholg‘ularda ijro etish texnikasini o‘rganadi va konsertlarda o‘zi dirijorlik qiladi. 1874-yilda Rimskiy-Korsakov (lavozimdan bo‘shagan Balakirev o‘rniga) Bepul musiqa maktabiga rahbarlikni o‘z zimmasiga oladi.

Ijodiy yetuklik. Kech o‘quvchilik davridan keyin kompozitor ijodida yangi davr – uning iqtidorining yuksalishi boshlanadi. 1879- yilda Gogol povesti bo‘yicha “May tuni”, 1881–yilda esa “Qor qiz” operalari yozib tugatildi. Ushbu yorqin bahor ertaklari nafis poeziya, muhabbat tuyg‘usi va ajoyib sehr bilan yo‘g‘rilgan bo‘lib, kompozitorga ularni “qadimiy butparastlik qoldiqlarini ifodalovchi xalq turmushining marosim taraflari”

bilan bog'lash imkoniyatini berdi. 80–yillarda N.A.Rimskiy-Korsakov o'zining eng yaxshi simfonik asarlari – “Ertak”, “Rus mavzulariga simfoniyetta”, fortepiano konserti, “Ispan kaprichchiosi”, “Yorqin bayram” konsert uvertyurasi, “Shahrizoda” syuitasini yaratadi. U vafot etgan o'z do'stlari: M.Musorgskiy va A.Borodin asarlarini yozib tugatish hamda tahrir qilishga ko'p vaqt sarflaydi. Bu narsa uning inson va san'atkor sifatida yuksak insonparvarligi, haqiqiy do'stlikka va mas'uliyatga bo'lgan sodiqligidan darak beradi.

1883–yilda, konservatoriyadagi ish bilan bir vaqtda, N.A.Rimskiy-Korsakov Saroy qo'shiq kapellasida dars bera boshlaydi, bu yerda u o'n yildan ortiq xizmat qildi. U katta qiziqish bilan kapellani qayta tashkil qilishga kirishdi, natijada bu jamoa musiqiy ta'lim markazlaridan biriga aylandi. Kapellada dars berishning ijodiy natijalaridan biri garmoniya darsligi bo'ldi, bu darslik P.Chaykovskiyning shunday darsligi bilan bir qatorda klassik nazariy va pedagogik risolaga aylandi.

Bir vaqtning o'zida N.A.Rimskiy-Korsakovning dirijorlik faoliyati davom etdi: u Rossiyada va chet ellarda (Parijdagi butunjahon ko'rgazmasi va Bryusselda) konsertlar uyushtirdi.

Hali 1882–yilning yozidayoq Rimskiy-Korsakovning metsenat M. P. Belyaev bilan tanishuvi sodir bo'ldi, N.A.Rimskiy-Korsakov kelajakda uni “rus musiqasi uchun ulkan ahamiyatga ega bo'lgan ajoyib inson” deb atadi.

Mitrofan Petrovich Belyayev – boy o'rmon sanoatchisi va havaskor altchi – rus musiqasining fidokor va ehtirosli muxlisi edi. Uning xonadonida har juma kunlari kvartet kechalari uyushtirilardi. Ushbu M.Belyayev “kechalari”ga 1883/84–yil qishida “Moguchaya kuchka”ning “eski” a'zolari: A.Borodin, N.A.Rimskiy-Korsakov va ularning sodiq do'sti Stasov

qatnasha boshlashdi. Bu kechalarda, shunindek, peterburglik yosh kompozitorlar, N.A.Rimskiy-Korsakovning o'quvchilari: A.Lyadov va A.Glazunovlar ishtirok etardilar. Belyaev to'garagi shu tariqa vujudga keldi.

Yangi rus musiqasining targ'iboti uchun M.Belyaev "Rus simfonik konsertlari" va "Rus kvartet kechalari"ga asos soldi; Leypsig shahrida musiqa nashriyotining tashkil etilishi konsert ishini rivojlanishiga yordam berdi, keyinchalik u yirik rus nashriyoti firmasiga aylandi. Rus kompozitorlarini rag'batlantirish uchun M.Belyaev har yili topshiriladigan M.Glinka mukofotini ta'sis etdi va eng yaxshi kamer asari uchun tanlovlar uyushtirdi.

M.Belyaev iltimosiga ko'ra konsert va nashr ishlariga rahbarlikni N.A.Rimskiy-Korsakov o'z zimmasiga oldi, u amalda "M.Belyaev to'garagining musiqiy boshlig'i"ga aylandi.

M.Belyaev to'garagi ko'pda M.Balakirev to'garagi an'alarini davom ettirdi, lekin N.A.Rimskiy-Korsakovning yozishicha, ular va kompozitorlar avlodi o'rtasidagi farqni ta'kidlagan holda, "Rus musiqasi rivojlanishida M.Balakirev to'garagi bo'ron va siquv davriga, M.Belyaev to'garagi xotirjam oldinga yurish davriga mos kelardi; M.Balakirev to'garagi inqilobiy bo'lsa, M.Belyaevniki ilg'or edi... Birinchi to'garakning beshala a'zolari keyinchalik rus musiqa ijodiyotining yirik namoyandalari sifatida tan olindi; ikkinchi to'garak turli tarkibga ega edi: bu yerda yirik kompozitorlik iqtidoriga ega hamda kamroq qobiliyatli insonlar va hatto umuman musiqa ijod qilmaydigan, masalan Dyutsh kabi dirijorlar yoki N.S.Lavrovga o'xshash ijrochilar bor edi..."

Bu davrda yaratilgan so'nggi asar – "Mlada" sehrli opera-baleti bo'ldi, u o'zining qadimiy slavyan sujeti va tarixiy udum

va marosimlar, shuningdek, fantastik manzaralarni talqin etish imkoniyati bilan kompozitorni qiziqtirib qo'ydi.

XX asrga yo'l. Ijodining keyingi davri. 90–yillar boshlari N.A.Rimskiy-Korsakov uchun og'ir kechdi. Oilaviy baxtsizliklar: onasi va ikkita kichkina farzandlarining vafot etishi, rafiqasi hamda o'g'li Andreyning og'ir kasalligi ruhiy va ijodiy inqiroz bilan bir vaqtga to'g'ri keldi. O'zidan qoniqmaslik, shubha va og'ir kechinmalar, M.Balakirev bilan munosabatlarning murakkablashuvi – bularning hammasi ijodning to'xtab qolishiga sabab bo'ldi. Bu qiyin vaqtda N.A.Rimskiy-Korsakov ijodning mohiyati, san'atdagi yangi yo'llarning rivojlantirish to'g'risida ko'p o'ylaydi, musiqa estetikasi va falsafa muammolarini o'rganadi. Ammo asta-sekin kompozitor o'zining asosiy ishi – musiqa yozishsiz “ruhiy ochlik”ni seza boshlaydi. U ijodga qaytadi va N.Gogol bo'yicha yangi – “Rojdestvodan oldingi tun” voqeiy operasini yaratadi.

N.A.Rimskiy-Korsakov ijodining yangidan gullab-yashnash davri boshlanadi. Shu vaqtdan boshlab kompozitor uchun opera bosh janrga aylanadi – umrining oxirigacha u yana o'nta opera yozib ulgurdi. “Rojdestvodan oldingi tun”dan keyin eng yaxshi epik asarlardan biri – “Sadko” voqeiy operasi paydo bo'ldi. Bir vaqtning o'zida kompozitorni boshqa mavzu qiziqтира boshlaydi. “Motsart va Salyeri” va “Boyarina Vera Sheloga”, shuningdek, ancha vaqtdan beri o'ylab qo'yilgan “Shoh kelini” (tarixiy-maishiy sujetga) operalari insonning murakkab ichki dunyosini ochib berishga bag'ishlangan, ularda kompozitor chuqur lirik-ruhiy va dramatik obrazlar yaratdi.

Shu vaqtning o'zida, lirik mavzuga qiziqib, u o'zining sara romanslarini yozadi: “Редеет облаков летучая гряда” (“Kamayar parvozdagi bulutlar to'pi”), “Ненастный день

потух” (“Bulutli kun so’ndi”), “Медлительно влекутся дни мои” (“Kunlarim sekin sudralar”) (hammasi A.Pushkin so’zlariga), “Когда волнуется желтеющая нива” (“Sarg’aygan boshhoqlar to’lqinlanganda”) (M.Lermontov so’zi), “О чем в тиши ночей” (“Tun sukuti nima haqda”) va “Oktava” (A.Maykov so’zi), “Шепот, робкое дыханье” (“Pichirlash, tortinchoq nafas”) (A.Fet so’zi), “Звонче жаворонка пень” (“To’rg’aydan jarangliroq kuylash”) va “Не ветер, вея с высоты” (“Shamolmas yuksakdan esayotgan”) (A.Tolstoy so’zi). N.A.Rimskiy-Korsakovning vokal lirikasi xotirjam mushohadali xarakteri, tuyg’ularning qat’iyligi va sipoligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, bas uchun “Anchar” va “Payg’ambar” monolog-ariozolari (A.Pushkin so’zlariga) mardonavor ko’tarinki, qat’iy-dramatik xarakterga ega.

Kompozitor operalarining taqdiri Imperatorga qarashli Mariin teatri sahnasi bilan bog’liq bo’ldi. Biroq bu yerdagi sahnalashtirish na musiqiy va na sahnaviy jihatdan ko’pda muallifni qoniqtirmasdi. “Sadko” operasini sahnalashtirish rad etilgandan keyin kompozitor o’zining navbatdagi operalari taqdirini S.I.Mamontovning²⁰ Moskva xususiy operasi bilan bog’laydi. Mamontov teatrida F. Shalyapin, N.Zabela-Vrubel, N.Salina, E.Svetkova, A.Sekar-Rojanskiy kabi buyuk artistlar qo’shiq kuylaganlar; spektakllarni jihozlashda rassomlardan A.Golovin, M.Vrubel, aka-uka Vasnetsovlar, K.Korovin, V.Polenov, I.Levitan, V.Serovlar ishtirok etganlar. Xususiy opera repertuarida “Qor qiz” va “Pskovlik ayol” operalari bor

²⁰ Savva Ivanovich Mamontov – yirik sanoatchi, teatr va musiqa arbobi, metsenat; bir necha yil davomida Italiyada yashagan, tasviriy san’at va haykaltaroshlikni, qo’shiq kuylashni o’rgangan. Mamontov rus tasviriy san’ati, musiqiy teatri rivojlanishiga ko’maklashgan. 1885- yili Moskva xususiy rus operasiga asos solgan.

edi; keyingi yillarda esa uning sahnasida “Sadko”dan boshlab N.A.Rimskiy-Korsakovning navbatidagi oltita operasi qo’yildi.

Kompozitor XIX asrni “Shoh Sulton haqida ertak” operasi bilan yakunlaydi, XX asr boshida esa L.Meyning qadimiy Rim tarixidan olingan drama sujetiga “Serviliya”, allegoriyalı “Kuz ertagi”, “O’Imas Kachshey”, shuningdek F.Shopen xotirasiga bag’ishlangan, Polsha sujetiga “Pan Voyevoda” asarlarini yozadi.

1904–yilda N.A.Rimskiy-Korsakov “Ko’rinmas Kitej shahri va Fevroniya qizi haqida doston” operasini yozib tugatdi. Unda qadimiy davrdagi mo’g’ul-tatar bosqinchiligi va Kitej shahridagi sehrli o’zgarish sodir bo’lishi, ya’ni bu shahar dushman yetib bora olmaydigan ko’l tubiga joylashganligi haqida hikoya qilinadi.

1905–yildagi inqilobiy voqealar vaqtida N.A.Rimskiy-Korsakov avvalgidek Peterburg konservatoriyasida dars berardi va u talabalarning hukumatning 9-yanvardagi harakatlariga norozilik sifatida konservatoriyani vaqtincha yopish haqidagi talablarini yoqlab chiqdi hamda ma’muriyatga qarata ochiq xat bilan murojaat qildi. Bu harakatlar natijasida kompozitorni konservatoriyadan haydab yuborishadi, uning haydalishi jamoatchilikning qattiq g’azabini qo’zg’atadi. O’z noroziliklarining namoyishi sifatida konservatoriyani professorlar: A.Glazunov, A.Lyadov, A.Yesipova, I.Blumfeld va boshqalar tark etishdi. Jamoatchilikning N.A.Rimskiy-Korsakovga qarata ko’p sonli murojaatlari, siyosiy namoyish tusini olgan “O’Imas Kasheyning” talabalar tomonidan sahnalashtirilishi N.A.Rimskiy-Korsakov ustidan politsiya nazoratining o’rnatilishga sabab bo’ldi, uning asarlarini esa ijro etishni taqiqlab qo’yishdi. Ammo voqealarning keyingi rivoji

konservatoriyadagi jiddiy o'zgarishlarga olib keldi: A.Glazunov rektor etib tayinlandi va yangi rahbariyatning taklifi bo'yicha Rimskiy-Korsakov pedagogik faoliyatga qaytdi.

“Oltin xo'roz” operasi kompozitorning oxirgi katta asari bo'ldi, bu A.Pushkin mavzulari bo'yicha satirik ertakdir. Bu yerda obrazi chor hokimiyatini ifodalovchi Dodonni “tugal izza qilish” muallifning badiiy maqsadi edi. Senzuraning taqiqi N.A.Rimskiy-Korsakovga o'z asarini sahnada ko'rish imkoniyatini bermadi. Opera partiturasida ustida ishlash vaqtida, 1907–yil yozida, kompozitor taniqli rus teatr arbobi S. P.Dyagilevdan²¹ Parijda tashkil etilgan Rus tarixiy konsertlarida muallif va dirijor sifatida ishtirok etish taklifini oladi. Bu konsertlar keyinchalik mashhur bo'lib ketgan Rus mavsumlariga asos soldi va rus musiqasi hamda N.A.Rimskiy-Korsakov ijodining katta muvaffaqiyatiga sabab bo'ldi.

1908–yil 8–iyunda kompozitor yurak kasalligidan vafot etdi.

Savol va topshiriqlar

1. *N.A.Rimskiy-Korsakov ijodiy faoliyatining turli tomonlariga tavsif bering.*

2. *Kompozitor ijodida qaysi musiqa janri asosiy bo'lgan?*

3. *N.A.Rimskiy-Korsakov asarlarida bosh mavzu va obrazlar qaysilar?*

²¹ Sergey Pavlovich Dyagilev – rus teatr arbobi, “San’at dunyosi” badiiy birlashmasining asoschilaridan biri, rus artistlarining Parijda 1907–yildan boshlab har yili o'tkaziladigan, “Rus mavsumlari” deb ataluvchi konsert chiqishlarining tashkilotchisi va rahbari, bu tadbirlarda opera va balet spektakllari qo'yilgan. 1911–yilda “S.P.Dyagilevning rus baleti” balet truppasini tashkil qildi; u tufayli I.Stravinskiy, S.Prokofyev, K.Debyussi, M.Ravel va boshqalarning buyuk balet asarlari paydo bo'ldi.

4. *Kompozitor hayoti va ijodining asosiy voqealari haqida so'zlab bering. Batafsil yozma reja-konspekt tuzing.*

5. *Kompozitor hayotida 1865-, 1871-, 1882-, 1905-, 1907-yillarda qanday voqealar sodir bo'ldi?*

6. *N.A.Rimskiy-Korsakovning hayoti qaysi rus metsenatlari bilan bog'liq bo'lgan?*

7. *U o'z ijodida she'rlaridan foydalangan shoirlar nomlarini aytib bering.*

“QOR QIZ” (“СЕРГУРОЧКА”)

“Qor qiz” operasi, muallifning eng sevimli asari bo'lib, A.N.Ostrovskiyning shu nomli pyesasi asosida kompozitorning o'z librettosiga yaratilgan. N.A.Rimskiy-Korsakovni “bahor ertagi”ning shoirona go'zalligi maftun qilgan edi va opera umuman bir nafasda, 1880–yilning yoz oylarida yozilgan edi, 1881–yilda esa tugal yakunlandi.

“Menda paydo bo'lgan qadimiy rus udumlari va butparastlik panteizmiga²² bo'lgan qiziqish endi yorqin ravishda alanga oldi. Men uchun dunyoda Qor qiz, Lel yoki Bahordan boshqa yaxshiroq shoirona obrazlar, o'zining ajoyib shohi bilan berendeylar podshohligidan yaxshiroq saltanat, Yarilo-Quyoshga sig'inishdan ko'ra yaxshiroq dunyoqarash va din yo'q edi”, – kompozitor o'zining sujetga qiziqib ketganligi haqida shunday eslagan edi.

Opera berendeylarning oliy ezgulik va go'zallik qonuniyatlari bilan orzu qilgan mamlakatlari, inson va tabiatning uyg'unlashib ketishi, xalq san'atining sehrli va jon baxsh

²² P a n t e i z m – butparastlik sig'inishlari bilan bog'liq bo'lgan tabiat voqeligining jonlantirilishi, ruhlantirilishi.

etiuvchi kuchi, dunyo taqdirini boshqaruvchi adolat, ong va muhabbatning qudratiga atab yaratilgan yorqin madhiyaga aylanib ketdi.

Operada doimiy ravishda haqiqiy voqelik va fantastika bir-biriga aralashib ketadi: Lel, Kupava, Mizgir, berendeylar shohi, Dehqon, Dehqon ayolning dunyoviy obrazlari va Qor bobo, Bahor, Alvasti ertakona obrazlarining insoniy xususiyatlari ham mavjud. Qorqiz obrazi o'zida sehrli va dunyoviy xususiyatlarni birlashtirib, ushbu ikki dunyoni go'yo bog'lab turadi; tabiat dunyosidan insonlar dunyosiga harakat qilib, u o'zini halokatga olib keluvchi sevgining buyuk kuchi ta'sirida asta-sekin "jonlanadi". Qor qiz qalbida insoniy tuyg'ularning paydo bo'lishi tabiatning bahoriy uyg'onishi bilan bir vaqtda ro'y beradi, bundagi tovush va ovozlarni N.A.Rimskiy-Korsakov operada ajoyib tarzda tasvirlagan.

Deyarli har bir pardada qadimiy xalq turmushi udumlarini aks ettiruvchi go'zal marosim va o'yin sahnalari bor; ular bilan xalq qo'shig'i xususiyatlarini ko'rsatib beruvchi ko'plab xor lavhalari bog'liq. Kompozitor ko'proq asl xalq kuylaridan ham foydalangan.

Operaning barcha qahramonlari leytmotivga ega; N.A.Rimskiy-Korsakov shuningdek, leyttembrlar — qahramonlarning doimiy cholg'u tavsifidan ham foydalangan.

Opera premyerasi 1882–yilda Mariin teatrida bo'lib o'tdi va muvaffaqiyat qozondi. Ammo sahnalashtirish muallifni qoniqtirmadi, chunki opera juda cho'zilib ketgan degan fikrga borgan dirijor Napravnikning qat'iy talabi bo'yicha katta qisqartirishlar kiritilgan edi. "Qorqiz" operasi faqatgina 1893–yilda Moskva Bolshoy teatrida I.K.Altani rahbarligida to'liq ko'rinishda qo'yildi. O'z musiqasiga muhabbat va

ehtiyotkorona munosabatda bo'lganligi hamda uni ajoyib tarzdi ijro etilganligidan kompozitor ta'sirlandi.

Opera prolog va to'rtta pardaga ega.

Qisqacha mazmuni

Prolog. Berendeylarning ertakona mamlakati. Bu yerda tinchlik va ezgulik hukm suradi. Lekin Qor bobo va Bahorning qizi – Qor qizning paydo bo'lishi bilan osoyishta hayot buziladi. Qorboboning dushmani va raqibi Yarilo-Quyosh berendeylar mamlakatidan xafa bo'lgan: uning o'rmonlarida Qor bobo Qor qizni uning g'azabli nurlaridan yashirib qo'ygan. Mamlakatga sovuq tushadi, tabiat berendeylarni o'z mevalari bilan siylashdan to'xtagan. Bunday hol o'n besh yil davom etadi.

...Tun. Alvasti qish tugashidan darak beradi. Qushlar o'rab olgan go'zal Bahor yerga tushadi. Isinish maqsadida qushlar uning atrofida raqsga tushadilar. Qor bobo paydo bo'ladi; u berendeylar mamlakatini tark etishi to'g'risida Bahorga va'da beradi. Qizlari taqdirini muhokama qilib, ota-onasi uni berendeylar qishlog'iga joylashtirishga qaror qiladilar. Qor qiz keladi; uni allaqachon cho'pon Lelning ajoyib qo'shiqlari o'ziga rom qilgan va u odamlar orasida bo'lishni orzu qiladi. Qor bobo Alvastiga qizini asrashni topshiradi.

Tong otadi. Berendeylar yaqinlashadilar; ular Maslennitsaning tasqara qo'g'irchog'ini olib kelishadi va xursandchilik bilan Bahorni kutib olishadi. O'rmon ichidan Qor qiz chiqadi, Dehqon va Dehqon ayoldan o'zini qiz qilib olishlarini so'raydi.

Birinchi parda. Kechki payt. Berendeylar qishlog'i. Qor qiz iltimosiga ko'ra Lel o'z qo'shiqlarini kuylaydi. Biroq u go'zal, lekin sovuq qizdan zerikadi va qiz sovg'a qilgan gulni tashlab

quvnoq berendey qizlari yoniga ketadi. Qor qiz oddiy odamlardan o'zining farq qilishini tushuna boshlaydi, chunki uning qalbida iliqlik yo'q.

Go'zal Kupava paydo bo'ladi: u o'z baxti haqida Qor qizga so'zlaydi – qiz sevib qolgan va sevimli, tez orada uning Mizgir bilan to'ylari bo'ladi. Kuyov qimmatbaho sovg'alar bilan kirib keladi: taomil bo'yicha u qizni dugonalaridan sotib olishi kerak. Ammo Mizgir Qor qizni ko'rib, uni qattiq sevib qoladi va Kupavadan voz kechadi. Berendeylar Mizgirning vafosizligidan g'azablanadilar va tushkunlikka tushgan qizga Berendey shohidan himoya so'rashini maslahat beradilar.

Ikkinchi parda. Shoh Berendey saroyi. Go'zallikni qadrllovchi shoh gul rasmini chizadi. Guslichilar uning donoligi va insonparvarligini olqishlab kuylaydilar. Shoh buyuk bayram–Yarilo kuni tongida barcha kelin va qayliqlarni birlashtirishga qaror qiladi. Kupava yugurib kiradi va o'z qayg'usi haqida gapirib beradi. Shoh xalqni Mizgir ustidan qaror chiqarishga yig'adi va uni abadiy quvg'in qilishga hukm chiqaradi. Mizgir shohdan Qorqizga nazar solishni so'raydi. Berendey uning go'zalligidan zavqlanadi, qizning qalbi sevgi nimaligini bilmasligidan xayratga tushadi. U o'zining qarorini e'lon qiladi: erta tonggacha Qor qiz sevib qolgan yigit unga uylanadi. Mizgir quvg'inlikni kechiktirishni so'raydi va Qor qiz qalbida muhabbat tuyg'usini uyg'otishga qasam ichadi.

Uchinchi parda. Yarilo kuni oldidan kechki payt. Dahlsiz o'rmon. Berendeylar yoz kirishini bayram qilishmoqda. Yigit va qizlar xorovod kuylashadi, masxarabozlar raqsga tushadilar. Yaxshi qo'shiq kuylagani uchun shoh Lelga eng go'zal qizdan o'pich olish huquqini beradi. Qor qiz Lelning diqqatini o'ziga qaratishdan umidvor bo'ladi, lekin yigit Kupavani tanlaydi. Qor

qiz yig'lagancha o'rmonga qochib ketadi. Unga Mizgir yetib oladi, barcha boyliklarini taklif etib, uni sevishini yulborib so'raydi. Qor qiz Mizgirming jo'shqinligidan cho'chiydi; Alvasti unga yordamga keladi. U Mizgir yo'liga to'sqinlik qiladi va butun tun bo'yi uni Qorqizning sehrli ko'lankasi bilan jodulangan o'rmon ichida olib yuradi.

Tong otadi. Bir-birini yaxshi ko'rib qolgan Lel va Kupava maydonga chiqadilar. Rashkdan qiynalgan Qorqiz Bahor onadan unga sevgi tuyg'usini baxsh etishini so'raydi.

To'rtinchi parda. Yarilo vodiysi. Erta tong. Ko'l ustida gullar bilan o'rangan Bahor ko'tariladi. Qizining iltimosiga ko'ra Qorqizning boshiga sehrli gulchambarni kiydiradi, bu gulchambar unga muhabbat tuyg'usini hadya qiladi. Yana Mizgir paydo bo'ladi, endi Qorqiz uni xursandchilik bilan kutib oladi.

Vodiyda berendeylar ulug' bayram – Yarilo kunini kutib olish uchun to'planadilar. Kuyov va kelinlar shoh huzuriga ularga oq fotiha berishi uchun yig'iladilar. Ular orasida Mizgir va Qor qiz ham bor. Qor qiz o'zining qaynoq tuyg'usi haqida shohga so'zlaydi. Biroq uning baxti uzoqqa cho'zilmaydi: “muhabbat o'ti”ni anglagan Qor qiz Yariloning g'azabi oldida ojizlik qiladi. Osmondan qizga qarata nur yog'iladi va u erigan holda g'oyib bo'ladi. Tushkunlikka tushgan Mizgir ham o'zini suvga otib, halok bo'ladi. Xalq hayratga tushadi. Ammo dono Berendey bo'lgan voqeaning ma'nosini tushuntiradi: Qor qizning paydo bo'lishi tabiat qonunini buzdi, Yarilo Qor bobodan o'ch oldi va u endi berendeylar mamlakatidan xafa emas. Bu mamlakatda endi avvalgi osoyishta va baxtli hayot tiklanadi. Shohning imosi bilan Lel va undan keyin butun xalq Quyoshga ulug'vor madhiya kuylashadi.

Prolog orkestr muqaddimasi bilan boshlanadi, u go‘zal qish manzarasini tasvirlaydi. Qor boboning “qat’iy va muzlatuvchi” (muallif ta’biricha) leytmotivi sekin, violonchel va kontrabaslarda, orkestrning quyi registrida hukmdorlik bilan sadolanadi:

72

Vazmin, shoshilmasdan

Alvasti pastga yo‘nalgan keskin uch tonlik (triton) ohangida tasvirlangan, bunca uning “yovvoyi, dangasaroq, cho‘ziluvchi” leytmotivi tuzilgan:

73

Vazmin, shoshilmasdan

Bahor leytmotivi – violonchellar, altlar va valtornalardagi iliq, osoyishta kuy ushbu mavzularga qarama-qarshi qo‘yilgan:

Vazmin, shoshilmaydan

The musical score is presented in three systems. The first system is in 3/4 time with a treble clef. The second system is in 2/4 time with a treble clef. The third system is in 2/4 time with a treble clef. The score includes various musical notations such as notes, rests, and dynamic markings like 'p' and 'mf'.

Qushlar qo'shig'i va raqsi muqaddimadan boshlanadi, unda N.A.Rimskiy-Korsakov ustalik bilan qushlar sayrashini tasvirlagan. Qushlar xori asosida xalq qo'shiq yo'nalishidagi ikkita mavzu yotadi, ulardan ikkinchisi ("Орел воевода" ("Sarkarda burgut")) muallifning o'z to'plamidan olingan asl mavzudir.

75-a

Tez P

Сол - па - жакс итти - сиз, сол - па - жакс итти - сиз

итти - сиз, итти - сиз

75-b

О - рет но - в - но - да, не - ре - пел пудь - я - чий пудь - я - чий

Xorning ko'proq yuqori va o'rta registrlari (soprano va altlar) mavjudligi, torli va yog'ochli damli cholg'ularning mayin va tiniq temбри tufayli yengil va yorug' sadolanish yaratiladi.

Qor qiz ariyasi ajoyib, lekin sovuq qizning maftunkor, nozik va sodda obrazini aks ettiradi. Ariyaning bosh mavzusi (Qor qiz leytmotivi) – lirik sopranoning o'ynoqi jilvalanishi bilan nafis, harakatchan kuydan iborat:

76

Jonli, inijqlik bilan

Сно - цуш - ка - ми по - и - го - ту но - дитъ, на о - ктер эн не - се - дым от - ны - битт - си

Qor qiz musiqiy tavsifida yakkanavoz fleyta muhim ahamiyatga ega – bu Qor qizning leyttembridir. Bu cholg'uning

sadolanishi sovuq go'zal qizni uzoq vaqt davomida, uni klarnet cholg'usining "iliqroq" bo'yog'i almashtirmagunicha kuzatib boradi. Ariya uch qismli tuzilmaga ega. Vazmin o'rta qismida, Lel qo'shig'ining sadosi kabi, xalq yo'nalishidagi dilkash lirik kuy paydlo bo'ladi:

77

Sekin

V se - me - ren - ki te - бя у - те - тив. нес - ты пол - и - грыв ме -
 те - ли чи - по - ю. ти - по - ю не - се - ю ю

"Слыхала я" ("Eshitdim men") ariettasi Qor qiz musiqiy tavsifi davomi sifatida sadolanadi. Unda qizning orzulari, insonlar, ular qo'shiqlariga bo'lgan intilishi ifodalangan. Ta'sirchan, to'xtovsiz rivojlanuvchi kuy keskin yarim tonli ohanglarga qurilgan va unga yog'ochli damli cholg'ularning tiniq yuqori registrlaridagi "miltillovchi" akkordlari jo'r bo'ladi:

78

Keng

Сам - се - бе я. Сам - се - бе. Сам - се - бе. Сам - се - бе. Сам - се - бе.

се - бе - по - ши - ши бе - ше. шо - се - шо - се. шал ши - ши - ши.

kl pp

To'rtinchi pardada arietta mavzusi Qor qiz erib ketishi sahnasiga asos bo'ladi.

Maslennitsani kuzatish xalq-marosim sahnasida turli xarakterdagi lavhalar bir-biriga taqqoslanadi. Sahna boshlanishi va oxirida "Прощай масленица" ("Xayr Maslennitsa") xori sadolanadi. Uning g'ayratli mavzusida qadimiy marosim qo'shiqlarining kuy oborotlaridan foydalanilgan:

79

Tez, jadal

Ра-мат ра - во ку - ры - ли - те - ли, про-ще - ну об-ще - ти - ли, про-щай, про - щай, про-щай, Мас - ли - ни - ца, про - щай, про - щай, про-щай, Мас - ли - ни - ца

Birinchi parda. Qo'shiqchi-cho'pon Lel (kontralto) – operaning bosh qahramonlaridan biri. Navqiron Lel muallifning aytishicha, “abadiy musiqa san’atini” ifodalaydi. U faqat qo'shiqlar orqali tavsiflangan yagona qahramondir. Lel obrazini orkestrda uning leytmotivi – yakkanavoz yog'ochli damli cholg'ularda sadolanuvchi cho'pon ohangi yaratadi. Lelning birinchi va ikkinchi cho'zib ijro etiluvchi og'ir (“Земляничка-ягодка” (“Qulupnay-mevajon”)) va quvnoq, xogovod yo'nalishidagi (“Как по лесу лес шумит” (“O'rmon ichra o'rmon shovullaganda”)) qo'shiqlari xalq badihago'yiligiga xos bo'lgan ziddiyatni aks ettiradi:

80-a

Shoshilmasdan

Зем - ли - ни - ца - я - год - ка под ку - сточ - ком вы - рос - ла

poco rit.

80-b

O'rtacha tez va jo'shqin

KAK BO'Z - AN - SI AN - TIY - MIT, TA - AN - O'NGI
 TUN - SA - ET, PIRI - DO - LA SA - U'

“Как больно здесь” (“Qanchalar og‘ir bu yerda”) Qorqiz prolog ariettasida boshlangan obrazning insoniy xususiyatlari rivojlanishda davom etadi, qahramon qizning ertakona belgilari chekinishni boshlaydi; ariettaning lirik mavzusi ta’sirchan dilkashlik, nafis shoironalikka to’la, kuy yo’nalishlarining uzluksizligi va kengligi unga xos:

81

Sekin

KAK GO'ZAL TOVUS HOVLIDA YURAR
 STA - DO - TI - JE - SHI O' - BU' - YAN, SLOB - NI KAM - PEN, NA SUDI - NE NITSE - TON.

Nikoh marosimi sahnasi (kuyov kelinni sotib olishi) ikkita: “Как за речкою” (“Daryo ortida”) (orkestr muqaddimasida o’tadi) qo’shig‘i kuyovni, ikkinchisi – “Как не пава-свет по двору ходит” (“Go‘zal tovus hovlida yurar”) kelinni tasvirleydi, bu qo’shiqlar asl xalq to‘y qo’shiqlari asosida qurilgan.

Ikkinchi parda. Shoh Berendey, N.A.Rimskiy-Korsakovning aytishicha, xalq donoligini ifodalaydi. Sahnani ochuvchi Berendeyning yurib kirishi ertakona orkestr marshidir. Bosh mavzu g'alatiroq, qo'rqinchli, hazilona, keyin esa bu mavzu qariyalar kabi go'yo titraydi. U torli cholg'ularning dinamik va registrdagi ziddiyatli pitssikatosi, damli cholg'ular xitoblariga quriladi, jumalarning besh taktli tuzilishi va noturg'un bosqichlarga tayanch ham g'ayrioddiy eshitaladi:

82

Tez, marsh xarakterida

Berendey kavatini (tenor) hayot va go'zallik yaratuvchisi tabiatga go'yo hayajonli madhiya kabi yangraydi. Qor qizning nafis maftunkorligini kumushrang marvaridgulning bahoriy go'zalligi bilan taqqoslovchi Berendeyning so'zlari yakkanavoz violonchelning to'xtovsiz "allalovchi" yo'nalishi bilan birgalikda o'ychan, orzuli vokal kuy orqali ifodalanadi:

Shushilmadan

Musical score for "Shushilmadan". It consists of two systems. The first system shows a vocal line (Soprano) and a piano accompaniment. The vocal line has lyrics: "Тод-та, тод". The piano accompaniment features a rhythmic pattern of eighth notes. The second system continues the vocal line with lyrics: "та-ты-тод то-ты-та-и кпу-по-а...". The piano accompaniment continues with the same rhythmic pattern.

Uchinchi parda daxlsiz o'rmondagi xalq bayramining katta marosim sahnasi bilan boshlanadi. Bu yerda xor va yakkaxon lavhalar, simfonik nomerlar va rechitativlar bir-birini almashtiradi. Uni "Ай, во поле липенька" (Oh, daladagi jo'ka daraxti") xori ochib beradi, bu xor yordamchi ovoz uslubida qayta ishlangan xalq xorovod qo'shig'ining yorqin va ravon kuyiga asoslanadi:


Musical score for "O'rtacha tez". It consists of two systems. The first system shows a vocal line (Soprano) and a piano accompaniment. The vocal line has lyrics: "Ай, во поле липенька". The piano accompaniment features a rhythmic pattern of eighth notes. The second system continues the vocal line with lyrics: "ай, во поле липенька ай, во поле липенька ай, во поле липенька ай, во поле липенька". The piano accompaniment continues with the same rhythmic pattern.

Masxarabozlar raqsi simfonik skerso bo'lib, chaqqon, keng xalqona mavzularga qurilgan.

Lelning uchinchi qo'shig'i yakkanavoz klarnet ijrosidagi cho'pon ohanglari bilan boshlanadi:

85


Jonli, quvnoq



Qo'shiq kuplet-variatsiyali shaklda tuzilgan. Har bir kuplet rechitativli band bilan boshlanadi:

86

Sekinroq, ulug'vor



Uni harakatchan raqsona kuy va g'ayratli qisqa naqarot almashtiradi. Kupletni klarnetning jonli ijrosi yakunlaydi:

87

Jonli



Mizgir ariozosi (bariton) $6/8$ o'lchovi va bir xildagi tebranib turuvchi jo'mavozlik tufayli barkarolani eslatadi²³. Nafis sinkopalar bilan mayin kuy sharqona tusga ega, uni jo'mavozlikdagi cho'zilib turuvchi kvinta bo'rttirib ko'rsatadi:

²³ Eslatib o'tamiz, barkarola ("suvdagi qo'shiq") – venetsiyalik gondolyerlar qo'shig'i.

Shoshilmadan

Musical score for 'Shoshilmadan'. It features a vocal line and a piano accompaniment. The vocal line is in a 3/8 time signature and includes the lyrics: "Ha-ri - zar - zar - zar - zar - zar, y - zar - zar - zar - zar - zar." The piano accompaniment consists of a right hand with chords and a left hand with a rhythmic pattern of eighth notes.

To'rtinchi parda. Qor qizning erib ketishi sahnasi uning obrazi rivojlanishidagi kulminatsiyadir. Sahna bir nechta lavhalardan tashkil topgan, ularda prologdagi ariyetta musiqasi hukm suradi, lekin endi bu musiqa keskin, o'tkir garmoniyalar va quyuq hamda iliq cholg'ulashtirishda sadolanadi. Tonal birlik ushbu sahna uchun xosdir – u do-diyez minorda boshlanib, re-bemol majorda tugaydi.

89

Kengroq

Musical score for 'Kengroq'. It features a vocal line and a piano accompaniment. The vocal line is in a 3/8 time signature and includes the lyrics: "Kengroq - kengroq - kengroq - kengroq - kengroq." The piano accompaniment consists of a right hand with chords and a left hand with a rhythmic pattern of eighth notes.

Yakuniy xor – Yarilo-Quyoshga atalgan qo'shiqni Lel boshlab beradi. Xor qadimiy epik madhiya uslubida yozilgan. Uning mavzusi Yarilo leytmotiviga qurilgan va noodatiy $1\frac{1}{4}$ o'lchovga ega:

90

Ulug'vor

Musical score for 'Ulug'vor'. It features a vocal line and a piano accompaniment. The vocal line is in a 3/8 time signature and includes the lyrics: "Ulug'vor - ulug'vor - ulug'vor - ulug'vor - ulug'vor." The piano accompaniment consists of a right hand with chords and a left hand with a rhythmic pattern of eighth notes.

Xor tantanali ulug'vor xarakterga ega va sadolanish kuchi va yorqinligining asta-sekin kuchayib borishiga asoslangan.

Savol va topshiriqlar

1. *“Qor qiz” operasi kimning sujetiga yozilgan?*
2. *Opera qanday yaratilgan? Unga umumiy tavsif bering.*
3. *Operaning pardalari bo'yicha mazmunini bayon eting.*
4. *Bosh qahramonlar qanday musiqiy tavsifga ega? Ular “portretlarini” yaratishdagi orkestrning roli haqida so'zlab bering. Leytmotiv va leytembr nima?*
5. *Xalq marosim sahnalarini aytib bering; ularda xalq qo'shiqlari qanday ahamiyatga ega?*
6. *Butun asar davomida Qor qiz obrazi rivojlanishini kuzating.*
7. *Bosh qahramonlarning vokal partiyalari qanday qo'shiq ovozlarga topshirilgan?*

“SHAHRIZODA”

N.A.Rimskiy-Korsakov o'z ijodiy yo'lini simfoniya yaratishdan boshladi. Ammo keyinchalik u bir qismli dasturli va turkum asarlar, shuningdek, xalq mavzulari asosida asarlar yozishni afzal ko'rdi. An'anaviy simfonik turkumga qaraganda, dasturiylik uning musiqiy tafakkuriga yaqinroq edi. Dasturiylik kompozitor simfonik ijodining asosiy janrlarini belgilab berdi: uvertiura, fantaziya, manzara, syuita. Ularda ertakona va voqeiy obrazlar, tabiat hamda xalq turmushi manzaralari ko'proq o'rin olgan, bu esa Rimskiy-Korsakov simfonizmining manzarali epik xarakterini belgilab berdi. Ko'p asarlar XIX

nsrning 60–va 80–yillarida yozilgan. Rus musiqasida kompozitor yangi janr – simfonik ertakni yaratdi.

“Shahrizoda” simfonik syuitasi 1888–yilda arablarning “Ming bir kecha” ertaklari asosida yaratildi. Glinkadan boshlab ko‘plab rus kompozitorlari yoqtirgan Sharq mavzusi ushbu asarda mukammal talqinini topdi. Syuitada to‘rtta qism bo‘lib, ular umumiy badiiy g‘oya, ertakona xarakter va musiqiy obrazlar bilan birlashtirilgan.

N.A.Rimskiy-Korsakov asarning qisqacha dasturini ko‘rsatib o‘tgan:

“Ayollarning makkorligi va bevafoiligiga ishongan sulton Shahriyor xotinlikka olgan har bir ayolni birinchi kechadan so‘ng qatl etishga so‘z bergan; lekin sulton ayoli Shahrizoda unga 1001 kecha davomida shunday ertaklar aytib, band qiladiki, unga qiziqib ketgan Shahriyor uni qatl qilishni har safar orqaga suradi va nihoyat o‘z niyatidan umuman voz kechadi. Shahrizoda unga ko‘p ajoyibotlarni so‘zlab beradi, shoirlar she‘rlari va qo‘shiq so‘zlarini aytib beradi, ertakni ertakka, hikoyani hikoyaga ulaydi”.

Avvaliga syuitaning har bir qismi o‘z nomlanishiga ega bo‘lgan, lekin keyinchalik kompozitor ulardan voz kechdi: u o‘z asarini faqatgina har bir sujetning musiqiy tasviri sifatida qabul qilinishini istamadi, tinglovchining o‘zi sharqona qissaning ertakona obrazlari va ajoyibotlari bilan birgalikda his qilishini xohladi.

Birinchi qism “Dengiz. Sindbod kemasi” deb atalgan. U og‘ir muqaddima – butun syuitaning o‘ziga xos prologi bilan boshlanadi va ikkita qarama-qarshi mavzularga tuziladi. Ulardan birinchisi – sulton Shahriyor mavzusi, misli damli

cholg'ular va torli cholg'ularda unison ijro etiladi hamda dahshatli va ulug'vor sadolanadi:

91



Ikkinchi mavzu, Shahrizoda mavzusi, yakkanavoz skripkaga topshirilgan, unga arfa akkordlari jo'r bo'ladi. Uning egiluvchan va ravon kuyi nafosatli sharqona naqshni eslatadi:

92

Sekin



Ikkala mavzu ham butun asarni birlashtiruvchi oddiy leytmotivlar emas: ular asosida N.A.Rimskiy-Korsakov, musiqiy rivojlanishning variatsiyali uslubini qo'llab, tinglovchiga haqiqiy sehrlı o'zgarishlarni tuhfa qilgan holda turli obrazlarni yaratadi.

Muqaddimadan keyin asosiy bo'lim keladi, u rivojlovsiz sonata shaklida yozilgan. Bosh partiya (mi major) Shahriyor mavzusiga tuzilgan bo'lib, osoyishta va ulug'vor dengiz manzarasini tasvirlaydi:

Juda tez emas

The musical score for 'Juda tez emas' is presented in three systems. Each system consists of a grand staff with a treble clef on the upper staff and a bass clef on the lower staff. The key signature is one sharp (F#) and the time signature is 3/4. The first system begins with a piano (p) dynamic marking. The second system includes a piano (p) dynamic marking at the end. The third system includes a mezzo-forte (mf) dynamic marking at the end. The score features various musical notations including slurs, ties, and dynamic markings.


Bosh partiyaning manzaraviyligini damli cholg'ular jumalari oxiridagi va torli cholg'ulardagi keskin akkordlar, shuningdek, alt va violonchellar jo'rnovozligidagi keng yo'nalishlar ta'kidlab turadi.

Yondosh partiya ikkita mavzudan tashkil topgan: birinchisi (do major) Sindhod kemasining ohista suzib borishi tasavvurini beradi va yog'ochli damli cholg'ulardagi yuqoriga ko'tariluvchi sokin, yorqin akkordlarda bayon etilgan.

Notirjam

The musical score for 'Notirjam' is presented in a single system. It consists of a grand staff with a treble clef on the upper staff and a bass clef on the lower staff. The key signature is one sharp (F#) and the time signature is 3/4. The score begins with a piano (p) dynamic marking. The upper staff contains a series of chords, while the lower staff contains a rhythmic accompaniment. The score includes various musical notations such as slurs and dynamic markings.

Yondosh partiyaning ikkinchi mavzusi (si minor) yakkanavoz skripkada sadolanadi; u Shahrizodaning leytmotividan vujudga keladi, biroq endi bu to'liqinlanayotgan dengiz manzarasidir:



Sadolanish asta-sekin kuchayadi va kulminatsiya lahzasida repriza boshlanadi. Kodada sokinlik bilan tinchib qolgan dengiz mavzusi o'tadi, birinchi qism esa suzishini davom ettirayotgan Sindbod kemasining "uzoqlashib" ketayotgan mavzusi bilan tugaydi.

Ikkinchi qism "Kalender shahzodaning hikoyasi" deb atalgan²⁴. Uni Shahrizoda ovozi boshlab beradi, keyin u go'yo hikoya qilishni boshqaga beradi va ertak ichidagi ertak boshlanadi. Kalender mavzusini (si minor) yakkanavoz fagot cholg'usi ijro etadi; u osoyishta, xotirjam sadolanadi va sharqona xarakterga ega:

²⁴ **Kalenderlar** – sadaqa hisobiga yashovchi sayyor rohiblar. Arab ertagining qahramoni, shohning o'g'li, turli xavf-xatarning oldini olish uchun rohiblar kiyimini kiyib oladi.

Shoshilmadan

The image displays a musical score for a piano piece titled "Shoshilmadan". The score is written in 2/4 time and consists of three systems of music. Each system contains a right-hand (treble) and left-hand (bass) part. The first system begins with a dynamic marking of *f* (forte) in the right hand and *p* (piano) in the left hand. The right hand features a complex, rhythmic melody with many sixteenth notes, while the left hand provides a steady accompaniment with chords and moving lines. The second system continues this pattern, and the third system concludes the piece with a final chord in the right hand and a sustained bass line.

Syuitaning ikkinchi qismi murakkab uch qismli shaklda yozilgan: uning chetki qismlari Kalender mavzusiga simfonik variatsiyalarni tashkil qiladi, oʻrta qismi esa afsonaviy jang va qahramonlarning jasoratini tasvirlaydi, bunda uning fanfarali va marshona mavzusining ohangi Shahriyor mavzusi bilan bogʻlangan.

Uchinchi qism, “Shahzoda va malika”, bu asarning lirik markazi. U, birinchi qism kabi, rivojlovsiz sonata shaklida yozilgan. Bosh partiya (sol major) – Shahzoda mavzusi – qoʻshiq yoʻnalishida, skripkalar ijrosidagi ravon, osoyishta kuy:

97

Harakat bilan

Yondosh partiya (si-bemol major) – Malika mavzusi – nafis va harakatchan, raqsona xarakterga ega. U yakkanavoz klarnetga topshirilgan, torli cholg‘ulardagi pitsitsikato va zarbli cholg‘ulardagi jo‘mavozlik tembri jihatidan sharqona xalq cholg‘u ansamblini eslatadi:

98

Jemhiroq


Reprizada bosh partiya Shahrizoda mavzusi paydo bo‘lishi bilan ikki marta bo‘linib qoladi.

To‘rtinchi qism – “Bag‘doddagi bayram va mis chavandoz bilan qoyaga urilayotgan kema”. Bu syuitaning ulkan finali bo‘lib, uning ko‘p mavzularini birlashtiradi, asar qahramonlarini quvnoq bayram munosabati bilan bir joyga “yig‘adi”. Qismning murakkab kompozitsiyasi o‘zida rondo-sonataning xususiyatlarini variatsiyalik bilan birga mujassamlashtiradi.

Muqaddimada syuitaning ikkala leytmotivi sadolanadi, bunda Shahriyor mavzusi jadal va g'ayratli ko'rinishga ega bo'ladi, Shahrizoda mavzusi esa hayajonliroq sadolanadi. Finalning bosh partiyasi – jadal aylanuvchi, jo'shqin sharqona raqs. U o'tkir ritmik sur'at jo'rligida sadolanadi, bu sur'at deyarli butun bayram ko'rinishi davomida ushlab turiladi va u refren vazifasini o'taydi:

99

Tez



Malika mavzusi (uchinchi qismdan) muhim ahamiyatga ega, u to'rtinchi qismning yordamchi partiyasi sifatida sadolanadi. Rivojlov va reprizaning quyuq musiqiy matosida doimiy ravishda tanish mavzu va ohanglar paydo bo'ladi. Kodada xalq bayrami qo'qqisidan to'lqinlanayotgan dengiz va kema halokati obrazlari bilan almashadi: bu butun asarning kulminatsiyasidir. Asta-sekin bo'ron tinadi va dengiz tinchlanadi.

Syuitaning uncha katta bo'lmagan epilogida bosh qahramonlar so'nggi marta paydo bo'ladilar: bu Shahriyorning sokin va xotirjam mavzusi va asarni yakunlovchi yosh va dono Shahrizodaning shoirona mavzusi.

N.A.Rimskiy-Korsakov haqli ravishda orkestrning beqiyos ustasi deb hisoblanadi. "Orkestrlashtirish asoslari"ga so'zboshida u shunday yozgan edi: "cholg'ulashtirish asar qalbining tomonlaridan biridir". M.Glinka an'alariga sodiq qolib, kompozitor fakturaning tiniqligi, tembr "sofligi"ga rioya qiladi, tez-tez yakkanavoz cholg'ulardan foydalanadi. "Shahrizoda"ning ajoyib partiturasida ko'plab yakka

lavhalarning nazokati va yorqinligi butun orkestrning to'liq sadosi va qudrati bilan tabiiy ravishda uyg'unlashib ketadi, ularda cholg'ularning tembr va texnik imkoniyatlari ochib beriladi.

N.A.Rimskiy-Korsakov orkestr uslubining novatorligi, uning tembr tovush yozuvidagi ixtirolari A.Lyadov, A.Glazunov, I.Stravinskiy, K.Debussi, M.Ravel va ko'plab boshqa kompozitorlarning simfonik ijodiga o'zining katta ta'sirini o'tkazdi.

Savol va topshiriqlar

1. N.A.Rimskiy-Korsakov ijodida qanday simfonik asarlarni ko'proq ko'rishimiz mumkin?

2. Kompozitor simfonik asarlari janrlarini aytib bering. Bunga misollar keltiring.

3. N.A.Rimskiy-Korsakov hayoti va ijodining qaysi davrida asosiy simfonik asarlari paydo bo'ldi?

4. "Shahrizoda" qaysi adabiy asar bo'yicha yozilgan? Asar qaysi janrga mansub? Uning tuzilishi qanday? Uning kompozitsiya xususiyatlarini aytib bering.

5. Syuitaning har bir qismi, shakl xususiyatlari va musiqiy rivojlanishi, qahramonlar va voqealarning tembr orqali tavsiflanishi to'g'risida gapirib bering.

6. N.A.Rimskiy-Korsakovning orkestrlashtirishiga qanday xususiyatlar xos?

ASOSIY ASARLARI

15 ta opera: "Pskovlik ayol", "May tuni", "Qor qiz", "Sadko", "Rojdestvo oldidan tun", "Motsart va Salyeri", "Shoh kelini", "Shoh Sulton haqida ertak", "O'lmas Kachshey", "Ko'rinmas Kitej shahri va Fevroniya qiz haqida doston", "Oltin xo'roz" va boshqalar.

Simfonik asarlar: syuitalar "Antar", "Ispancha kaprichchio", "Shahrizoda"; "Yorqin bayram" uvertyurasi; 3 ta simfoniya, simfoniyyetta, orkestr jo'rligida fortepiano uchun konsert; "Qor qiz", "Rojdestvo oldidan tun" operalaridan syuitalar, "Shoh Sulton haqida ertak"ka musiqiy manzaralar va boshqalar.

Vokal asarlari: 80 ga yaqin romanslar, xorlar, qayta ishlangan rus xalq qo'shiqlari to'plamlari (40 ta) va 100 ta qo'shiqlar.

Adabiy asarlar: "Garmoniya amaliy darsligi", "Orkestrlashtirish asoslari", "Musiqiy hayotim solnomasi".

**PYOTR ILYICH
CHAYKOVSKIY
(1840–1893)**



P.I.Chaykovskiy musiqasi jahon madaniyatida alohida o'rin tutadi. Uning san'ati turli mamlakatlar va xalqlar uchun yaqin va sevimli bo'lib qoldi, chunki kompozitor ijodi markazida o'zining dard-alamlari va quvonchi, tashvishlari va shubhalari, muhabbati va nafrati, o'lim haqidagi o'ylari va baxt sari intilishlari bilan doimo inson turardi. Ezgulik va yovuzlikning abadiy mavzusi, hayot mohiyatini izlash, shaxsning murakkab ichki dunyosini tushunib yetishga intilish, rus tabiatining shoirona obrazlari va xalq hayotining yorqin ko'rinishlari – bularning hammasi buyuk san'atkorning diqqat markazida bo'ldi.

Kompozitor deyarli har bir janrda yangi so'z ayta oldi. Shunday bo'lsa-da, uning uchun opera va simfoniya bosh janr bo'lib qoldi.

P.I.Chaykovskiyning betakror va chuqur milliy ijodiy uslubi XIX asrning birinchi yarmi rus musiqasi – M.Glinka va uning zamondoshlari an'analari va xalq qo'shiqchilik san'ati ta'siri ostida shakllandi. Bir vaqtning o'zida, asl rus san'atkori sifatida u G'arbiy Yevropa musiqa madaniyati: V.Motsart, L.Betxoven, R.Shuman, F.Shubert, G.Berlioz, F.List va boshqa san'atkorlar ijodiy yutuqlarini hushyorlik bilan qabul qildi.

P.Chaykovskiy musiqasining eng asosiy xususiyatlaridan biri uning vokal asarlariga ham, cholg'u asarlariga ham birdek xos bo'lgan, xalq qo'shiqlari hamda shahar romansi ohanglari bilan yaqindan bog'liqlikdagi mislsiz go'zal kuychanligidir.

HAYOT YO'LI

Bolalik va o'smirlik. O'qish yillari. Pyotr Ilyich Chaykovskiy 1840–yil 25–aprelda uncha katta bo'lmagan Votkinsk ishchi qishlog'ida tug'ildi. Bu yerda uning otasi, tog' muhandisi, Kamsk-Votkinsk zavodining direktori edi. Chaykovskiylarning katta va ahil oilasida bir-biriga muhabbat va olijanoblik, g'amxo'rlik va samimiylik hukm surardi. Akalari va opalari orasida kichkina Pyotr o'zining qobiliyati va o'tkir hissiyotlilik, tortinchoqligi va hozirjavobligi bilan ajralib turardi. Uning sevimli enagasi, fransuz ayoli Fani Dyurbax shunday eslardi:

“Sinfda undan ko'ra tirishqoq va tez ilg'ab oladigani yo'q edi; reaksiya vaqtida esa hech kim uningchalik qiziqarli narsalarni o'ylab topa olmasdi; ko'ngil ochish uchun umumiy o'qish vaqtlarida hech kim uningchalik diqqat bilan tinglamasdi, bayram oldi kunlari kechki payt, men o'z jujuqlarimni atrofimga to'plab, ulardan nimanidir so'zlab berishlarini so'raganimda, hech kim uningchalik bichib-to'qiy olmasdi... Uni hamma yaxshi ko'rardi, chunki u hammani yaxshi ko'rishini ular sezishardi. Uning ta'sirchanligining chegarasi yo'q edi, shu sababli unga juda ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish lozim edi. Har bir arzimmas narsa ham uni xafa qilib qo'yishi, unga “tegib” ketishi mumkin edi. U misoli *shisha bola* edi”.

Kichkina Petyaning birinchi musiqiy taassurotlari onasi uyda o'tkazadigan musiqiy mashg'ulotlari bilan bog'liq bo'ldi, onasi fortepianoda chalar va sevimli romanslarini kuylardi, ular orasida Alyabyevning “Bulbul”i ham bor edi. Bola

orkestrinani²⁵ juda yaxshi ko'rar, bu cholg'uda italiyalik, nemis va avstriyalik kompozitorlar, jumladan V.Bellini, J.Rossini, G.Donitsetti va V.Motsart asarlari ijro etilardi. Votkinskning xushtabiat joylarida bola ko'p xalq qo'shiqlarini tinglardi: «...Men olis joylarda o'sdim, ilk bolalikdan rus xalq musiqasining tushuntirib bo'lmas go'zalligini o'zimga singdirdim...» – deb yozgan edi keyinchalik kompozitor.

P.I.Chaykovskiyni oiladagi boshqa bolalar kabi royalda chalishga ilk bolaligidan o'rgata boshlashdi: “Onamdan musiqa haqidagi eng oddiy tushunchalarni o'rganib, u besh yoshidan boshlaboq orkestrinada eshitgan kuylarni mutlaqo to'g'ri ijro etar va chalishga shunchalik muhabbat qo'ygan ediki, unga cholg'u yonida bo'lishni taqiqlaganlarida ham qo'lga nima tushsa, o'shanda barmoqlarini mashq qilaverardi. Bir kuni, deraza oynasida barmoqlar mashqiga berilib ketib, uni sindirdi va qo'li qattiq jarohatladi”, – shunday eslagan edi kompozitorning ukasi va uning birinchi biografi Modest Ilyich.

O'n yoshli bolani Peterburgdagi yuridik ta'lim muassasasi – huquqshunoslik bilim yurtiga o'qishga berganliklaridan boshlab bolalik davri tugadi. O'qish yillari davomida u fortepianoda chalish va qo'shiq kuylash bo'yicha dars olishni davom ettirdi, G.Lomakin rahbarligidagi bilim yurti xoriga qatnashdi, do'stlari bilan birgalikda musiqa mashg'ulotlarida ishtirok etdi, ko'plab simfonik konsertlar va operalar tinglab tomosha qildi. Aynan shu vaqtda M.Glinkaning “Ivan Susanin” va V.Motsartning “Don Juan” asarlari unda juda katta taassurot qoldirdi:

“... Don Juan” menda ilk bor zo'r taassurot qoldirgan musiqa bo'ldi. U menda keyinchalik o'z samarasini bergan muqaddas hayajonni uyg'otdi. U orqali men faqatgina buyuk daholarga nasib qiladigan badiiy go'zallik dunyosiga kirib bordim.

²⁵ Orkestrina – o'zi sadolanuvchi mexanik musiqa cholg'usi bo'lib, u orkestr sadolanishini talqin etardi.

Ungacha men faqat italyancha operani bilardim. Motsart tufayli hayotimni musiqaga bag'ishladim. U mening musiqiy kuchlarimga birinchi turtki berdi, musiqani dunyodagi barcha narsalardan ham sevib qolishga meni majbur qildi", – deb yozgan edi kompozitor.

1859–yilda, bilim yurtini tugatgandan so'ng, P.I.Chaykovskiy maslahatchi unvoni bilan Adliya vazirligi departamentiga davlat xizmatiga kirdi. Bu xizmat boshlanishidanoq unga og'irlik qila boshladi. Asta-sekin u o'zining asl iqtidorini seza boshlaydi va avval Rus musiqi jamiyatining musiqi sinflariga, keyin esa, 1862–yilda, Peterburg konservatoriyasiga o'qishga kiradi.

Konservatoriyada P.I.Chaykovskiy N.I.Zaremba (garmoniya, kontrapunkt) va A.G.Rubinshteyn (kompozitsiya va cholg'ulashtirish) rahbarligida shug'ullanadi; shuningdek, fleyta va organ chalishni o'rganadi, konservatoriya orkestrida ishtirok etadi. Tez orada, murakkab moddiy holatiga qaramasdan²⁶, u xizmatni tashlaydi, o'zini to'liq musiqi ma'lumoti olishga bag'ishlashga qaror qiladi va bor imkoniyatlardan foydalangan holda xususiy dars berish orqali tirikchilik qila boshlaydi.

Konservatoriyada o'qish yillarida P.I.Chaykovskiy bir nechta kamer va simfonik asarlar, jumladan, "Momaqaldiriq" uvertyurasi, torli kvartet, fortepiano uchun sonata, simfonik orkestr uchun "Xarakterli raqslar" va boshqa asarlar yozdi.

1865–yilda P.I.Chaykovskiy konservatoriyani tugatadi. Imtixon asari – Shiller odasiga yozilgan "Shodlik sari" kantatasi uchun u kumush medal bilan mukofotlanadi. 1866–yil yanvarida u N.G.Rubinshteynning taklifini qabul qilib, konservatoriyada dars berish uchun Moskvaga ko'chib o'tadi.

Hayoti va ijodining Moskva davri. Moskvada yashash uchun ko'chib o'tgan yosh professorni mehmondo'st shaharning ijodiy muhiti o'z quchog'iga oldi. P.I.Chaykovskiy

²⁶ P.I.Chaykovskiyning otasi, Ilya Petrovich, kichik o'g'illari bilan kam miqdordagi nafaqaga yashardi; kompozitorning onasi, Aleksandra Andreyevna, 1854–yilda vafot etgan edi.

Nikolay Grigoryevich Rubinshteyn bilan do'stlashishdi, N.Rubinshteyn ko'p yillar davomida kompozitor asarlarining birinchi ijrochisi bo'ldi. N.Rubinshteyn P.I.Chaykovskiyni Moskvaning badiiy markazi bo'lgan Artistlar to'garagiga olib kirdi. Pyotr Ilyich dramaturg A.N.Ostrovskiy, musiqiy yozuvchi V.F.Odoyevskiy, shoir A.N.Plesheyev, Kichik teatr artistlari, tanqidchi N.D.Kashkin, musiqiy noshir P.I.Yurgenson, universitet o'qituvchilari bilan tanishdi. 1876–yilda kompozitorning L.N.Tolstoy bilan bo'lib o'tgan tanishuvi unda katta taassurot qoldirdi. Peterburglik do'sti, musiqiy tanqidchi G.A.Laroshning Moskvaga ko'chib o'tishi uni juda quvontirdi.

Shu yillarda P.I.Chaykovskiy “Moguchaya kuchka” kompozitorlari, ayniqsa M.Balakirev va N.Rimskiy-Korsakov, shuningdek, V.Stasov bilan yaqindan tanishadi; ularning ijodiga bag'ishlangan taqrizlar va maqolalar yozadi.

Moskva davri uning iqtidorining jadal o'sishi, buyuk asarlar yaratilish vaqti bo'ldi. 1866–yildan 1877–yilgacha kompozitor “Воевода” (“Sarkarda”), “Undina”, “Опричник” (“Askar”), “Кузнец Вакула” (“Temirchi Vakula”) operalari, uchta simfoniya, “Oqqush ko'li” baleti, bir qismli simfonik asarlar “Буря” (“Bo'ron”), “Francheska da Rimini”, “Fatum”, orkestr jo'rligida fortepiano uchun Birinchi konsert, orkestr jo'rligida violonchel uchun rokoko mavzusiga Variatsiyalar, “Времена года” (“Yil fasllari”) fortepiano turkumi, A.Ostrovskiyning “Qorqiz” ertagiga musiqa, “Не верю мой друг” (“Ishonmayman, do'stim”) va “Слеза дрожит” (“Ko'z yoshlar titrar”) (A.Tolstoy so'zlari), “Ни слова, о друг мой” (“O do'stim, so'zlama”) (A.Plesheyev so'zi), “Отчего” (“Nimaga”) va “Нет, только тот, кто знал” (“Yo'q, faqat u bilganlardan biri”) (muvofiq ravishda G.Geyne va I.Gyotedan olingan L.Mey so'zlari), “Хотел бы в единое слово” (“Bir so'z bilan aytgim kelar”) (G.Geyne so'zi, L.Mey tarjimasi). “Yevgeniy Onegin” va To'rtinchi simfoniya ham Moskvada nashr etildi.

P.I.Chaykovskiy musiqasi asta-sekin chet elda ham tanilib boradi, uning asarlari Angliyada, Avstriyada, Amerikada ijro etiladi. Bir vaqtning o'zida kompozitor Moskva konservatoriyasida o'qituvchilik faoliyatini davom ettirdi – unda musiqa nazariyasi, garmoniya, cholg'ulashtirish va kuy bastalashdan dars berdi, shuningdek, konservatoriya talabalari uchun Rossiyada birinchi garmoniya darsligini yaratdi. Ko'plab o'quvchilari uning do'stlariga aylandi, ular orasida unga eng yaqini taniqli kompozitor va pianinochi S.I.Taneyev bor edi. Ijod uchun ajratilgan vaqtni band qiluvchi pedagoglik ishi Chaykovskiyga og'irlik qilardi, biroq doimiy mablag' ishlab topish uchun bu ish bilan shug'ullanishga majbur edi.

1876–yil oxirida Pyotr Ilyich notanish muxbir ayoldan maktub oladi, bu xatda uning musiqasiga bo'lgan chuqur muhabbat haqida aytilgandi. Maktub muallifi moskvalik metsenat ayol Nadejda Filaretovna fon Mekk – katta boylik sohibasi, P.I.Chaykovskiy musiqasining ehtirosli muxlisasi edi. Kompozitor va fon Mekk bir-birlari bilan o'n uch yil davomida xat yozishib turadilar, ikkovlari orasida ajoyib do'stlik tuyg'usi paydo bo'ladi, lekin ular bir-birlari bilan biror marta ham uchrashmadilar. P.I.Chaykovskiy Nadejda Filaretovnaning qalbdan mehribonligini yuqori baholardi, o'zi haqida g'amxo'rligi uchun cheksiz minnatdorlik bildirib, uni o'zining “eng yaxshi do'sti” deb atardi. P.I.Chaykovskiyning moddiy qiyin ahvoldaligini va uning faqat ijod bilan mashg'ul bo'lish istagini bilgan holda u kompozitorga ehtiyotkorlik bilan o'z yordamini – kattagina pul mablag'ini taklif qildi, bu yordam uning butunlay ijod bilan shug'ullanish imkoniyatini berdi. Fon Mekka yozgan xatlarida P.I.Chaykovskiy o'zining kundalik hayoti, qimmatli esdaliklari va rejalari, ijodiy jarayonining sirlari haqida so'zlab berardi. Musiqa uning uchun doimo “qalb iqrori” edi, biroq shu musiqa ichida u buyuk mehnatkash inson

bo'lib, kundalik ijodiy ish hayot kechirishning shakliga aylangan edi. Kompozitor shunday yozgan edi: "Ilhom – bu shunday mehmonki, u dangasalar yoniga kelmaydi, u o'zini chorlaganlar huzuriga keladi".

1877–yil P.I.Chaykovskiy hayotida burilish yili bo'ldi. O'zining tartibsiz hayotini yaxshilash va ijod uchun qulay sharoit yaratishni ko'p vaqtlardan beri orzu qilgan kompozitor kutilmaganda Moskva konservatoriyasidagi o'zining sobiq o'quvchisi Antonina Ivanovna Milyukovaning jo'shqin tuyg'usiga ishongan holda, unga uylanadi. Baxtga qarshi, nikoh omadsiz bo'ldi. Kompozitor bu sinovni qiyinchilik bilan boshidan kechirdi. Shifokorlarning talabiga binoan P.I.Chaykovskiy 1877–yilning kuzida chet elga, avval Shveysariyaga, keyin Italiyaga jo'nab ketadi.

Sayyohlik yillari. Modest Ilyich Chaykovskiy bu davrni kompozitor hayotidagi "eng yorqin va quvonchli" deb atadi. U ijodga qaytadi, Italiyada "Yevgeniy Onegin" va o'zining "eng yaxshi do'sti" – N.fon Mekka bag'ishlagan To'rtinchi simfoniyasini tugatadi. Bu yillarda P.I.Chaykovskiy ko'proq chet elda yashaydi, Ukrainada, opasi A.I.Davidovaning yer-mulki – Kamenkada bo'ladi, goh-gohida Peterburg va Moskvaga borib turadi.

Ijodiy erkinlikning boshlanishi ko'plab yangi asarlar yaratilishiga sabab bo'ladi. Bular: "Орлеанская дева" ("Orlean qizi") va "Mazepa" operalari, torli orkestr uchun "Italyancha kaprichchio", Serenada, "1812–yil" Tantanali uvertyurasi, fortepiano uchun katta sonata, "Bolalar albomi", skripka va orkestr uchun konsert, ajoyib diniy asar "Avliyo Ioann Zlatoust liturgiyasi", "Buyuk san'atkor xotirasiga"²⁷, shuningdek ko'plab romanslar, ular orasida "То было ранней весной" ("Bu erta bahorda bo'lgan edi"), "Средь шумного бала" ("Shovqinli balda"), "Благославляю вас, леса" ("Sizni duo qilaman,

²⁷ N.G.Rubinshteyn xotirasiga bag'ishlangan.

o'rmonlar") (A.Tolstoy so'zi), "День ли царит" ("Kun hukmdormi") (A.Apuxtin so'zi).

P.I.Chaykovskiy romanslari (ular 100 dan ortiq) xilma-xil va lirik mavzular hamda obrazlarni ochib beradi; ularda nafislik va keskin dramatik holatlar, hayajonli intilish va chuqur falsafiy mushohada yonma-yon turadi. Uning bolalar uchun qo'shiqlari va raqsona ritmdagi vokal miniatyuralari maftunkorlik bilan to'lib-toshgan. XIX asr ikkinchi yarmida ijod qilgan rus lirik shoirlari: A.Fet, A.Tolstoy, Ya.Polonskiy, A.Maykov, A.Plesheyev, A.Apuxtin va boshqalar she'rlari ayniqsa unga yaqin edi. O'z romanslarida kompozitor doimo she'rning asosiy shoirona obrazini ochib berishga harakat qilardi, buning uchun go'zal, keng rivojlanuvchi muloyim ohanglardan foydalanardi.

Vokal kuy bilan teng huquqli bo'lgan fortepiano partiyasining roli juda katta; fortepiano muqqaddimasi va yakuni o'ta ifodali, ular ko'pincha asarning bosh mohiyatini to'ldirib turadi. Ruhiiy holatlar rivojlanishining shiddati bo'yicha ayrim romanslar opera nomerlariga yaqin turadi.

Shuhrat va mahorat cho'qqisida. 80-yillar o'rtalarida P.I.Chaykovskiy o'z Vatanida yashashga qaror qiladi va ko'proq Moskva yaqinidagi Maydanov, Frolov, Klinda istiqomat qiladi. Uning faol ijodiy hayoti ijrochilik hamda musiqiy-ijtimoiy faoliyat bilan birgalikda kechadi. Opera va simfonik dirijor sifatida Chaykovskiy Rossiya, Germaniya, Chexiya, Fransiya, Angliya, Amerikaning turli shaharlaridagi konsertlarda chiqadi, bu konsertlarda o'z asarlari bilan bir qatorda, boshqa kompozitorlar asarlarini ijro etadi. P.I.Chaykovskiy ulkan muvaffaqiyat qozonadi, tinglovchilar unga yaxshi munosabatda bo'lishadi, uning asarlaridan zavqlanishadi, uning musiqasi esa butun jahonni zabt etadi. Jahon musiqa san'atini rivojlantirishdagi xizmatlarini inobatga olgan holda unga 1893-yilda Kembrij universitetining faxrli doktori darajasi berildi.

Gastrol safarlari vaqtida P.I.Chaykovskiy buyuk musiqachilar: I.Brams, E.Grig, J.Massne, K.Sen-Sans, Rixard Shtraus, G.Maler, A.Dvorjak, Sh.Guno va boshqalar bilan keng muloqotda bo'ldi.

Shu vaqtning o'zida uning Rus musiqa jamiyati Moskva bo'limidagi direktorlaridan va dirijorlaridan biri sifatidagi faol ishi boshlanadi, bu ish uning hayotining oxirigacha davom etdi va u rus musiqa madaniyati darajasining yuksalishiga yordam berdi.

80–yillar ikkinchi yarmi–90–yillar boshlarida P.I.Chaykovskiy “Charodeyka”, “Pikovaya dama” va “Iolanta” operalari, “Uyqudagi go‘zal” va “Shelkunchik” baletlari, “Manfred” simfoniyasi, “Florensiya esdaliklari” torli seksteti, Beshinchi va Oltinchi simfoniyalar va, shuningdek, boshqa asarlarni yaratdi. Uning so‘nggi asarlarining asosiy xususiyati ulardagi yorqin va zulmatli obrazlar o‘rtasidagi keskin qarama-qarshilik, ezgulik va yovuz kuchlarning dramatik kurashi, baxtga erishish uchun jo‘shqin intilish va unga yeta olmaslikning muqarrarligi bo‘ldi.

Kompozitorning so‘nggi asari – Oltinchi (“Patetik”) simfoniya – jahon musiqasidagi eng fojiviy asarlardan biri bo‘lib, inson hayoti va o‘limi mohiyatining murakkab falsafiy muammosini ochib berishga bag‘ishlangan.

1893–yil 16–oktyabrda Peterburg shahrida P.I.Chaykovskiy Oltinchi simfoniyaning birinchi marta ijro etilishiga dirijorlik qildi. 25–oktyabrda kompozitor to‘satdan vafot etdi.

Savol va topshiriqlar

1. *P.I.Chaykovskiy ijodida qaysi mavzular asosiy o‘rin egallaydi?*

2. *Kompozitor rus musiqasining turli janrlariga qanday yangiliklar kiritdi? Uning ijodining bosh janrlarini aytib bering.*

3. *Uning musiqasining manbalari nimalarga asoslangan? U asarlarida qanday an'analarni davom ettiradi?*

4. *P.I.Chaykovskiy hayoti va ijodining har bir davri haqida so'zlab bering, tarjimayi holining qisqa rejasini tuzing.*

5. *Kompozitorning asosiy asarlarini sanab o'ting.*

6. *P.I.Chaykovskiy Rossiya va chet elda kimlar bilan muloqotda bo'lgan?*

“QISH ORZULARI” BIRINCHI SIMFONIYASI

Simfonik musiqa, opera bilan bir qatorda, P.I.Chaykovskiy ijodining bosh sohalaridan edi. Kompozitor simfoniyaning inson qalbi holatini to'liq darajada ochib bera oladigan musiqa san'atining eng yuksak shakli deb hisoblardi.

Chaykovskiyning simfonik ijodi janrlari bo'yicha xilma-xil, bular: simfoniya, bir qismli dasturli asarlar, orkestr syuitalari, cholg'u konsertlari. Ularning ko'plari dasturli, chunonchi inson hissiyotlari va ehtirolari dunyosini, shaxs va atrof dunyoning murakkab o'zaro munosabatini ochib beruvchi V.Shexspir, J.Bayron, A.Dante, A.Ostrovskiyning o'tkir dramatik sujetlari kompozitorning doimo o'ziga tortib kelgan. Chaykovskiyning oxirgi uchta (To'rtinchi, Beshinchi va Oltinchi) simfoniya va “Manfred” simfoniya qahramonning baxt uchun kurashining barcha manzaralarini, uning inson hayotining mohiyati va maqsadi to'g'risidagi fikr-o'ylarining butun chuqurligini aks ettirgan asl lirik-falsafiy “cholg'u dramasi” bo'ldi.

“Qish orzulari” Birinchi simfoniya (sol minor) 1866–yilda yozilgan. Uning mazmuni rus san'atining klassik obrazlari: insonning o'y-hayollari va eng dilkash tuyg'ulari bilan bog'liq bo'lgan qish tabiati va yo'llari manzarasi bilan aloqador. Simfoniyaning ko'pgina mavzulari qo'shiq xarakteriga ega va ohangi bo'yicha rus xalq musiqasiga yaqin.

Simfoniya da to'rtta qism bor, ulardan birinchi va ikkinchisi dasturiy sarlavhaga ega.


Birinchi qism – “Qish yo‘lidagi o‘ylar” – sonata shaklida yozilgan. Bosh partiya (sol minor) ikkita qarama-qarshi mavzuga tuzilgan va uch qismli shaklga ega²⁸. Lirik va qo‘shiqqa yaqin bo‘lgan birinchi mavzu skripkalarining sekin tremolosi ostida ikki oktava osha fleyta va fagot cholg‘ulari ijrosida sadolanadi:

100



Bosh partiyaning ikkinchi mavzusi birinчисidan sof cholg‘u xarakteri, quruq, “tikanli”, “chaqqon” xarakteri bilan ajralib turadi va pastga yo‘nalgan xromatik ohangga asoslangan:

101




Ikkala mavzu ham faol rivojlanadi va qudratli dramatik kulminatsiyaga erishadi. Yondosh partiya (re major) – yakkanavoz klarnetdagi yorqin, keng kuy; o‘zining intonatsiyalari, lad o‘zgarishlari, yordamchi ovozlardagi boy rivojlanishi bilan u cho‘zib ijro etiluvchi xalq qo‘shiqlariga yaqin turadi:

²⁸ Bosh partiyaning bunday shakli kelajakda P.I.Chaykovskiyning ko‘plab simfonik asarlaridagi sonata allegrosi uchun xos bo‘lib qoladi.

Tez, osoyishta

K. Lauterl



Yakuniy partiya xalq raqsona xarakterga ega va u damli cholg'ular ijrosida sadolanadi:

103



Uning akkordli mavzusi bevosita rivojlovga o'tib ketadi. Bu yerda bosh partiyaning birinchi mavzusi yetakchi ahamiyatga ega bo'ladi, u faol rivojlanish natijasida qahramonona tus o'ladi. Uning kulminatsiyasi trubalar va valtornalarning fanfarali sadolanishi bilan ta'kidlanadi.


Repriza qisqartirilgan. Bosh partiya (birinchi mavzu) endi torli cholg'ularda hayajonli va yorqin sadolanadi; yordamchi va yakuniy partiyalardan (sol major) keyin esa kengaytirilgan dramatik koda boshlanadi, unda bosh partiyaning rivojlanishi davom etadi. Biroq koda oxirida musiqaning keskinligi kamayadi va birinchi qism bosh partiyaning birinchi mavzusiga uning boshlanishdagi bayonida qaytish bilan tugaydi.

Ikkinchi qism – “Угрюмый край, туманный край” (“Ma'yus yurt, tumanli yurt”) (mi bemol major) – P.I.Chaykovskiyning Ladoga ko'lidagi Valaam oroliga safari hamda shimoliy rus tabiatining go'zalligi taassuroti ostida yozilgan. Adajio cantabile vazmin shoirona muqaddima va yakunga ega.

Bosh partiya yakkanavoz goboy ijrosida sadolanadi va o'zining ravon kengligi hamda 20 takt (!) davom etadigan maftunkor kuyi bilan kishida katta taassurot qoldiradi. U

birinchi qism mavzusi kabi xalqona lirik qo'shiq bilan bog'liqdir:

104



Simfoniyaning ikkinchi qismi rondoga o'xshash tuzilmaga ega va shu kuy refren vazifasini o'taydi. Ikkala lavha musiqasi refren ohanglari birining rivojlanishidan tug'iladi va uni bevosita davom ettiradi. Refrenning ikkinchi marta o'tkazilishi violonchellarda Iya-bemol majorda sadolanadi. Bosh mavzuning uchinchi marta o'tkazilishi butun qismning kulminatsiyasiga aylanadi, bu yerda u valtomalarda yangicha yorqin va dramatik jaranglaydi.

Uchinchi qism, *Skerso* (do minor), murakkab uch qisimli shaklda yozilgan. Chetki bo'limlarda nozik, tiniq, intiluvchan mavzu simfoniya birinchi qismining qishki "bo'ronli" obrazlariga qaytaradi:

105

Jadal, hazilona

Trioda (mi-bemol major) iliq va huzurli muhitni yaratuvchi dilkash lirik vals paydo bo'ladi, bu P.I.Chaykovskiyning simfonik musiqadagi birinchi valsidir:

106

Jadal, hazilona

Uning sadolanishi asta-sekin keskinlashadi; hayajon Skersoning kodusiga ham kirib boradi, bu yerda vals mavzusi birinchi mavzuning litavralar ijrosidagi bezovta va nozik ritmi ostida minorda mungli sadolanadi.

Simfoniya birinchi uchta qismining musiqasi inson ichki dunyosi va lirik obrazlar bilan bog'langan bo'lsa, tantanali final esa xalq bayrami manzarasini tasvirlaydi. U vazmin, birmuncha zulmatli muqaddima (sol minor) bilan boshlanadi hamda skerso oxirgi taktlari kayfiyatini davom ettiradi va shahar xalq qo'shig'i kuyiga asoslangan:

107


Shoshilmasdan, qayg'uli



Musiqaning xarakteri asta-sekin yorug'lashadi va sonata allegrosi (sol major) kengayib boradi, birmuncha og'irlashgan (orkestrdagi tutti tufayli) bosh partiyaga aylanadi:

108

Tez, ulug'vor



Yondosh partiya (si minor) muqaddimada sadolangan xalq kuyiga asoslanadi; bu yerda u sho'x raqsona xarakterga ega bo'ladi:

109

Tez, ulug'vor



Rivojlovda ikkala mavzu polifonik uslublar yordamida faol rivojlanadi. Repriza qisqartirilgan, unda yordamchi partiya mavjud emas. Final katta koda bilan yakunlanadi, undagi mavzu tatanavor va shodon tus oladi.

Birinchi simfoniya P.I.Chaykovskiyning Moskvadagi ijod davrining eng yaxshi asarlaridan biri bo'ldi. Unda ilk bor buyuk simfoniya-kompozitorning o'ziga xos obrazlari, uning musiqiy tafakkurining kompozitsiya uslublari va xususiyatlari namoyon bo'ldi.

Savol va topshiriqlar

1. Simfonik musiqa P.I.Chaykovskiy ijodida qanday o'rin tutadi?

2. Kompozitorning asosiy simfonik asarlarini ayting. Ular qaysi janrlarga mansub?

3. Birinchi simfoniyaning obrazli mazmuni haqida gapirib bering. Har bir qismning mavzulari va kompozitsiya xususiyatlarini tavsiflang.

4. Asarning asosiy mavzularini chalib bering.

“YEVGENIY ONEGIN”

P.I.Chaykovskiy yoshlik chog'idan teatrni juda yaxshi ko'rardi. Teatr hayotni va insonlar xarakterini, qahramonlarning murakkab ichki dunyosini aks ettira olish imkoniyati va shu orqali odamlar qalbiga ta'sir qila olishi bilan kompozitor tasavvurini o'ziga tortib, uni maftun qilgan edi. Opera uning sevimli janriga aylanganligi bejiz emas. P.I.Chaykovskiy o'z asarlari uchun, uning fikricha, “men kabi sezgiga ega bo'lgan jonli odamlar” harakat qilishi zarur bo'lgan sujetlarni tanlab olishga harakat qilardi. “Samimiy, lekin kuchli drama” yaratish kompozitorning yurak orzusi edi. “Yevgeniy Onegin” shunday asar bo'ldi.

Opera uchun sujetni P.I.Chaykovskiyga taniqli xonanda ayol E.A.Lavrovskaya aytib berdi. Modest Ilyichga yo‘llagan xatida kompozitor shunday hikoya qiladi:

“O‘tgan haftada men ittifoqo E.Lavrovskaya huzurida bo‘ldim. Suhbat opera uchun sujetlar haqida bordi... Lizaveta Andreyevna sukut saqlar va dildan tabassum qilardi qo‘qqisidan u dedi: “Yevgeniy Oneginni olsak-chi”? Bu fikr menga g‘alati tuyildi va men hech narsa demadim. Keyin, traktirda bir o‘zim ovqatlanayotganimda, men Onegin haqida esladim, o‘ylab qoldim, so‘ng qiziqib qolib, ovqatlanib bo‘lganimdan keyin qaror qabul qildim. Shu zahotiyoq Pushkinni izlashga tushdim. Qiyinchilik bilan topdim, uyga jo‘nadim, hayajon bilan o‘qib chiqdim va tun bo‘yi mutlaqo mijja qoqmadim, buning natijasida Pushkin matni bilan ajoyib opera senariumi dunyoga keldi”.

Librettoni tuzishda uning do‘sti, adabiyotshunos K.S.Shilovskiy qatnashdi.

A.Pushkin she‘rdagi romanida zamonasining ko‘p qirrali portretini, tabiati va odatlarini yaratdi; V.Belinskiy “Yevgeniy Onegin”ni “rus hayotining ensiklopediyasi” deb atadi. Ammo kompozitorni birinchi navbatda qahramonlarning lirik dramasi qiziqitirdi – operadagi markaziy o‘rinni aynan shu drama egallaydi, muallifning o‘zi uni “lirik sahnalar” deb nomlagan edi.

Operaning bosh qahramoni – Tatyana. P.I.Chaykovskiy A.Pushkindan keyin uning qalbining go‘zalligi va shoironaligini nozik aks ettiridi, Tatyana muhabbati kuchini mislsiz darajada ifodaladi. Bosh qahramonlarga A.Pushkin tomonidan berilgan tavsiflarni asosan saqlab qolgan holda, kompozitor ularni biroz boshqacharoq tasvirladi: chunonchi, Lenskiy siymosida u ilhom, his-tuyg‘ular hayajoni va qalb samimiyatini ta’kidladi. Tatyana va Lenskiy qalblarining bir-biriga yaqinligi P.I.Chaykovskiy uchun qimmatli, bu mavzularni u umumiy

ohanglar bilan birlashtiradi. Personajlarning musiqali obrazlari, ularning taqdiri kabi, butun asar davomida uzluksiz rivojlanib boradi. Lirik drama turli xarakterdagi turmush sahnalari orqali ochilib boradi, ular qahramonlar qalb kechinmalarining chuqurligini yorqin va boʻrttirib koʻrsatadi.

Operaning musiqiy tili rus lirik romansining oʻziga xos xususiyatlari bilan yaqindan bogʻlangan. P.I.Chaykovskiy opera uslubining muhim tomoni ovoz va orkestrning oʻziga xos dialogi boʻlib, bu narsa koʻpincha mavzuning vokal partiyasidan orkestrga oʻtishida koʻrinadi va qahramonlar nutqini toʻldirib turadi. Vokal kuyining cholgʻu mavzusidan “tugʻilish” uslubi ham bu asarga xosdir.

Kompozitor opera ijrosida haqiqiy samimiylik va oddiylikka erishishga intildi, shu sababli “Yevgeniy Onegin”ning sahnalashtirilishi muallifning istagi boʻyicha Moskva konservatoriyasi talabalari kuchi bilan amalga oshirildi. 1879–yil 17–mart kuni N.G.Rubinshteyn rahbarligida operaning premyerasi boʻlib oʻtdi.

Operada yettita koʻrinish (uchta parda) bor.

Qisqacha mazmuni

Birinchi koʻrinish. Larinlar qarorgohi. Uy tomondan opa-singil – Tatyana va Olganing qoʻshigʻi eshitilib turadi. Bogʻda Larina va enaga Fillipyevna murabbo pishirishayotib, oʻz yoshlik davrlarini eslashadi. Bezatilgan bogʻlarni koʻtarib dehqonlar oʻrim tugaganligi bilan bekalarini tabriklashga kirib kelishadi.

Mehmonlar kelishadi. Olgani sevib qolgan yosh shoir Vladimir Lenskiy oʻzining qoʻshnisi va doʻsti Oneginni tanishtiradi. Tatyana yangi tanishuvdan qattiq hayajonlanadi, u Onegin siymosida oʻzining baxt va sevgi borasidagi orzularining ushalishini koʻradi.

Ikkinchi ko'rinish. Tatyana xonasi. Onegin bilan uchrashuvdan hayajonlangan qizning uyqusi qochadi va enagasidan yoshlik davri haqida hikoya qilib berishni so'raydi. Enaga sodda hikoyasini boshlaydi, biroq o'z xayollariga cho'mgan Tatyana uni eshitmaydi. Bir o'zi qolganda, u Oneginga sevgi izhor qilib, maktub yozadi.

Tong otadi. Uzoqdan cho'pon nayining ohangi eshitaladi. Tatyana Oneginga yozgan xatini eltib berish uchun nabirasini yuborishini so'raydi.

Uchinchi ko'rinish. Qizlar bog'da meva terishmoqda. Tatyana yugurib kiradi. U Onegin bilan uchrashuvni kutib hayajonga tushgan. Onegin paydo bo'ladi. Tatyananing iqroriga u sovuqqonlik bilan javob beradi: uning oila qurish istagi yo'q, uning vazmin, ehtiromli so'zlari nasihat qilish bilan tugaydi, iztirobga tushgan qiz uning so'zlarini jim turib tinglaydi.

To'rtinchi ko'rinish. Qish. Larinlar uyida Tatyanning tug'ilgan kuniga bag'ishlangan bal. Mehmonlarning xursandchiligi avjiga chiqadi; fransuz Trike o'zi yozgan tabrikni Tatyana bag'ishlaydi. Lenskiy balga boshlab kelgan Oneginga qishloq odamlarining turqi, ularning liboslari, g'iybati va fisq-u fasodlari yoqmaydi. U Lenskiydan xafa bo'ladi va undan o'ch olishga qaror qilib, Olgani valsga, keyin esa mazurkaga raqs tushishga taklif qilib, unga xushomad qila boshlaydi. Lenskiy qattiq ranjiydi: u Oneginni duelga chaqiradi. Mehmonlarning ularni yarashtirib qo'yish uchun qilgan harakatlari zoye ketadi.

Beshinchi ko'rinish. Qish tongi. Tegirmon yonida duel belgilangan. Lenskiy va uning sekundanti Zaretskiy Oneginni kutishmoqda. Lenskiyning yuragi og'ir noxushlikni sezadi.

O'zining xizmatkori va sekundanti bilan Onegin paydo bo'ladi. Sobiq do'stlar o'zlari o'rtasida bo'lib o'tgan janjalning bema'niligini tushungan holda beqaror turadilar, ulardan hech biri yarashish uchun birinchi qadam bosmaydi. Raqiblar to'siq yoniga turadilar va sekundantlar imosi bilan bir-biriga

yaqinlashadilar. O'q otiladi: Lenskiy halok bo'ladi. Onegin dahshatga tushib boshini ushlab qoladi.

Oltinchi ko'rinish. Peterburgda ajoyib bal bo'lmoqda. Mehmonlar orasida uzoq safardan qaytib kelgan Onegin ham bor, u hamon zerikadi. Zalda Oneginning uzoq qarindoshi knyaz Gremin rafiqasi bilan paydo bo'ladi. Ulug'vor oqsuyak xonim Tatyana ekanligiga Yevgeniy hayrat bilan tushunib yetadi. Knyaz unga o'z baxti haqida so'zlaydi va rafiqasini Onegin bilan tanishtiradi. "O'zini tutishga" o'rganib qolgan Tatyana, hayajonini ustalik bilan berkitib, sinovdan sharaf bilan o'tadi, keyin toliqqanligini bahona qilib baldan ketadi. Onegin qalbida Tatyana nisbatan ehtirosli muhabbat paydo bo'ladi.

Yettinchi ko'rinish. Greminlar uyi. Tatyana sarosimada Onegin maktubini o'qiydi. Qo'qqisidan Onegin kiradi. U o'z tuyg'usiga javob berishni Tatyana o'tinib so'raydi. Tatyana chuqur qayg'u bilan o'zlarining birinchi uchrashuvlarini eslaydi, o'shanda "baxtga erishish shunchalar yaqin edi" va u avvalgidek sevishiga iqror bo'ladi. Biroq Oneginning yolborishlari bekor ketadi: Tatyana o'z turmush o'rtog'iga vafodor ekanligini bildiradi va o'z muhabbati bilan bir umrga vidolashib, Oneginni tark etadi.

Birinchi ko'rinish. Opera uncha katta bo'lmagan orkestr *muqaddimasi* bilan boshlanadi. Uning pastga yo'nalgan sekvensiya ko'rinishidagi o'ychan, mayin mavzusi Tatyananing birinchi musiqiy tavsifi bo'lib, u qizning orzu-o'ylarini ifodalaydi. Bu mavzu birinchi va ikkinchi ko'rinishlarning musiqiy rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ladi, shuningdek, yakuniy sahnada paydo bo'ladi:

110



Opa-singillarning xarakterlari ham turlicha: agar Tatyana qo'shiq ohanglari ostida xayol surishni yaxshi ko'rsa (orkestrda uning muqaddimadagi mavzusi paydo bo'ladi), Olga esa raqsona ohangni takrorlab, chin dildan xursandchilik qiladi.

Olganing "Я не способна к грусти томной" ("Men g'amginlikka qodir emasman") ariyasi bolalarcha shodlik, soddadillik va sho'xlikka to'la musiqiy portret bo'lib, uning yordamida u Tatyanning xayol surishi, uning xo'rsinishlari ustidan kuladi:

113

Shoshilmasdan, harakat bilan

Я не спо-соб-на к гру-сти том-ной, и не спо-соб-но меч-тать в ти-ши-не на об-ла-ках
 не-бес-ной, вды-шат, вды-шат, вды-шат, вды-шат, и су-бу-ны ду-ши

Lenskiy va Oneginning kirib kelishi opera bosh qahramonlari tavsiflanishini davom ettiradi. Tatyana, Olga, Lenskiy va Oneginlar *kvarteti* voqealar rivojlanishini bir zumga to'xtatadi va qahramonlar har birining ruhiy holati, ular qarashlari va xarakterlarining bir-biriga o'xshamasligini ifodalaydi.

Yosh shoir obrazi, ayniqsa, Lenskiyning (tenor) "Я люблю вас" ("Men sizni sevaman") ariozosida yorqin namoyon bo'ladi. Uning muloyim, hayajonli kuyi – Lenskiy muhabbati mavzusi – yorqin va zavqli sadolanadi, u baxtli orzu-umidlarga to'la:

114

O'riacha

Я люблю - вас, и люблю - вас, Оль - га, как сол - на, су -
 тем - ной в ду - ши, вды - шат, вды - шат, вды - шат, вды - шат, вды - шат, вды - шат

Ariozo dinamik repriza²⁹ bilan uch qismli shaklga ega. Mi major tonalligi (keyingi ko‘rinishlarda mi minor) operadagi qahramonning doimiy tonal tavsiflanishi hisoblanadi. Ariozoning o‘rta qism musiqasi nafaqat uning beshinchi ko‘rinishdagi ariasiga, balki ikkinchi ko‘rinishdan Tatyana mavzusiga ham o‘xshashib ketadi, bu bilan Tatyana va Lenskiy obrazlarining bir-biriga yaqinligi ta’kidlanadi.

Oneginning “Мой дядя самых честных правил” (“Amakim eng vijdonli insonlardan”) ariozosi menuet ritmida ketadi va zerikayotgan, takabbur, hurmattalab, beparvo odam siymosini yaratadi. Birinchi ko‘rinish orkestrda hayajonli sadolanuvchi Tatyana mavzusi bilan tugaydi.

Ikkinchi ko‘rinish bosh qahramon ayol obrazini yanada to‘liqroq ochib beradi. Ko‘rinish uch qismli kompozitsiyaga ega: enaga bilan dialoglar markaziy bo‘lim – maktub sahnasining boshlanishi va oxiriga joylashtirilgan. Orkestr muqaddimasi ifodali ohang – qayg‘uli taqdirini oldindan bildiruvchi Tatyananing “xo‘rsinishi” bilan boshlanadi:

115

O‘rtacha



Keyin mavzu-sekvensiya (birinchi ko‘rinish muqaddimasidan) sadolanadi, u enaga bilan dialogning boshidan oxirigacha o‘tadi; shuningdek u maktub sahnasida

²⁹ D i n a m i k repriza – bosh bo‘limdagi musiqiy obraz muhim darajada o‘zgartirilgan repriza bo‘lib, bu narsa kuyni, garmoniyani, ritmni, tempni, dinamikani, faktura va hokazolarni turli uslublarda variatsiyalashtirish, shuningdek, reprizani kengaytirish hamda rivojlantirishning boshqa vositalaridan foydalanish bilan bog‘liq.

ham paydo bo'ladi. Enaganing osoyishta hikoyasi ifodali nutq ohanglariga asoslangan va xalq qo'shiqlariga yaqin. Enaga bilan bo'ladigan sahnada Tatyanning ehtirosli, shiddatli sevgi mavzusi tug'iladi, u ikkinchi ko'rinishda muhim ahamiyat kasb etadi ("Ах, няня, няня, я страдаю, я тоскую") ("Eh, enaga, enaga, men azobdaman, siqilaman").

Chaykovskiy operasining maktub sahnasi, qahramon qiz kechinmalarining butun chuqurligini, uning qalb tubini ochib beradi. Sahna monologdan iborat bo'lib, u koda bilan to'rtta lavhadan tashkil topadi va sevgi mavzusiga asoslangan orkestr muqaddimasi bilan boshlanadi:

116

Jonli

Musical score for measure 116, featuring piano accompaniment. The score is written for piano and includes dynamic markings *f* and *ff*. The music is in a major key and 2/4 time signature.

Birinchi bo'lim – uncha katta bo'lmagan "Пускай погибну я" ("Mayli, men halok bo'lay") (re-bemol major) Tatyanning ehtirosli qarorini ifodalaydi:

117

Juda tez emas

Musical score for measure 117, featuring piano accompaniment with dynamic marking *f*. The score includes Russian lyrics. The music is in a major key and 2/4 time signature.

Пус-кай по-гиб-ну я, по-преж-де я во-сле-дствуй-те по-
 лу-ди-це, (за-щи-сти) тем-но-е те-ня, я не-гу жи-ти-я у-зна-ю!

Sekinroq

TU CHO - SU - ZHIS - SHI MIBO BU - ZHAI - ER

BU - ZHAI - MIBO, TU YU - ZHAI MIBO MIBO

Bu kuy ohangi bo'yicha Lenskiy mavzusi ham, keyingi, maktub sahnasining to'rtinchi bo'limi – Oneginga hayajonli murojaatga ham yaqin:

Shoshilmadon
(katta tuyg'u bilan)

KTO - YE - MOB - SHI - FER - ZH - NPO - SHI - PULI, H - ZH - KO -

SHI - MOB - SHI - FER - ZH - NPO - SHI - PULI, MI - H - SO - MIBO - SHI - FER - ZH - NPO - SHI - PULI

U bir vaqtning o'zida sahnaning tonal reprizasi (re-bemol major) hamda uning shodon kulminatsiyasi hamdir, bu orkestrda qudratli tutti bilan ta'kidlanib turadi (yakkanavoz truba orqali).

Orkestr orqali tongning tasvirlanishi, cho'pon nayining sodda ohangi (goboy yakkanavozligi) o'zining xotirjam, osoyishta xarakteri bilan oldingi sahnaning drammatizmini bo'rttirib ko'rsatadi. Ikkinchi ko'rinishni muhabbat mavzusining keng va qat'iy sadolanishi yakunlaydi.

Uchinchi ko'rinishdan boshlab opera sujetining dramatik rivojlanishi Tatyana, Lenskiy va Oneginlarning to'qnashuvi, "hayotiy yakkakurashi"ga (B.Asafyevning ta'biricha) asoslanadi. Ikkinchi ko'rinish kabi, u uch qismli tuzilmaga ega.

Tatyana va Onegin uchrashuvi sahnasining boshlanishi va tugashida "Девицы, красавицы" ("Go'zal qizlar") xori ijro etiladi. Tabiatni tasvirlashga yaqin bo'lgan mayin musiqa, uning nafis vals tabiati Tatyana kechinmalarining chuqurligini bo'rttirib ko'rsatadi:

122

Orchestra tez

Де - ви - цы, кра - си - ви - цы, ду - шеп - цы, до - ду - шеп - цы

Ра - ны - греш - ных, де - ви - цы, ра - ны - греш - ных, ви - цы - е'

Tatyananing paydo bo'lishi uning qalb iztirobini ifodalovchi orkestrning shiddatli va xavotirli sadolanishi bilan kuzatiladi. Ushbu sahnadagi Tatyananing vokal partiyasi lo'nda; u pastga yo'nalgan sekundalar ohanglariga tuzilgan va uning qalb holatini ifodalaydi.

Oneginning musiqiy portretini orkestr tasvirleydi. B.V.Asafyevning aytishicha, "uning kuylaridan birida sovuq vazminlik xushmuomalalik bilan uyg'unlashgan". **Onegin ariyasi** (bariton) "Когда бы жизнь домашним кругом" ("Hayot uy sharoitida bo'lsa") – Tatyana ga odobli nasihati – dadil va ohista, bir tekis ritmda sadolanadi:

Juda og'ir emas

Ког - да бы жила ду - шам - ным кри - том и о - при - ни - мить за - ло - тел.

ког - да бы не брать от - пом, су - прв - том при - ет - тый же - дит по - не - лет.

то. вер - но б. кре - ме пак од - но и не - не сты не и - скат и - пов

To'rtinchi ko'rinish Tatyana dramasini eslatib turuvchi orkestr muqaddimasidan boshlanadi: “Кто ты, мой ангел ли хранитель” (“Kimsan, mening xaloskor farishtammi”) nafis kuyi keskin akkordlarning xavotirli sadolanishi bilan almashadi. Balni quvnoq, beparvo vals ochib beradi, uning jo'rligida bayramdan xursand bo'layotgan mehmonlar xori eshitiladi:

Vals tempida

Vals faqat Larinlar xonadonida yig'ilgan mehmonlarning turfa xilliginigina ifodalamaydi; uning musiqasi asta-sekin dramatiklashib boradi, qahramonlar kechinmalarini hamda Lenskiy va Oneginning birinchi to'qnashuvini aks ettiradi.

Tabrik kupletlari bilan Trikening paydo bo'lishi³¹ endi boshlanib kelayotgan nizoni to'xtatadi. Balni ajoyib, qishloq

³¹ Trike kupletlarida P.I.Chaykovskiy XIX asrning 30-yillarida Rossiyada rusum bo'lgan fransuz kompozitori A.De Boplanning ommalashib ketgan qo'shig'idan foydalandi.

joylarga xos bo'lgan keng mazurka davom ettiradi. Lekin keyin u mungli lirik kuy bilan almashadi (mi minor), u Lenskiyning beshinchi ko'rinisdagi ariyasi mavzusiga o'xshab ketadi; uning jo'rligida Lenskiy va Onegin janjali yangidan avj oladi:

125

Sekinroq

Onegin p

Ты же ган - ту - сть Лен - скин!

Чаёвд Га - рудь - дов сто - никъ - вим - то? Чис с то - бой?

To'rtinchi ko'rinish finali *Lenskiyning* “В вашем доме” (“Sizning uyingizda”) *ariososi* bilan boshlanadi; Lenskiy muhabbati o'zgartirilgan mavzusiga tuzilgan boshlang'ich lavhalar o'tib ketgan, qaytmas baxt haqidagi yorqin esdalik sifatida sadolanadi:

126

O'rtacha

ritardando

В ва - шем до - ме! В ва - шем до - ме! В ва - шем до - ме!

до - ме, где сны мы до - ты - е, мы и вет - сев - о лу - ды тек - ли!

Tuyg'uning sofliigi va samimiyligi achchiq ta'na kayfiyati bilan almashadi. Ariozo ansambl va xorga o'tadi; kvintetda turli vokal partiyalari barcha qatnashchilarning xavotirli holatini aks

ettiradi. Duelga chaqirish va umumiy sarosima bilan ko‘rinish tugaydi.

Beshinchi ko‘rinish – operaning birinchi kulminatsiyasi va Lenskiy dramasining fojiaiy yechimi. Orkestr muqaddimasi olishuv natijasidan xabar berib, zulmatli, keskin akkordlar bilan boshlanadi. Lenskiyning “Что день грядущий мне готовит?” (“Bu kun meni nimalar kutmoqda?”) ariyasining mavzusi violonchellardagi o‘ta ta’sirchan mahkumlik bilan mi minorda sadolanadi. Bu yerda yosh shoir ichki dunyosining go‘zalligi, ushalmagan orzu-umidlardan afsuslanishi, Olgaga bo‘lgan muhabbati va o‘z halokatini sezishi yanada to‘liqroq ochib beriladi. **Lenskiy ariyasi** ifodali rechitativli muqaddima bilan boshlanadi:

127

Shoshilmadan

Ку - ла, ку - ла, ку - ла вы у - ло - жи - тесь, не - ты ми - ся, ма - ты - о

Ariyaning bosh mavzusi go‘zalligi bo‘yicha ajoyib lirik kuy ohangi Tatyana mavzusiga yaqin turadi. Ladning III bosqichidan V bosqichiga qarab pastga yo‘nalgan keng harakat unga alohida ifodaviylik baxsh etadi:

Sehin

Что слы-шу-ю-щий сме-го-тит?
Е-го слы-шат на-прас-но до-нит...

Vokal jumllarini muttasil ravishda orkestr yakunlaydi, bu esa musiqiy rivojlanish uzluksizligini ta'minlaydi. Uch qismli shaklning o'rta bo'limi (sol major) xarakteri bo'yicha jonliroq va yorqin, kuyi bo'yicha "В вашем доме" ariozosi bilan bog'liq. Jo'shqin reprizada ehtirosli muhabbat shiddati avvalgi qayg'uli kayfiyat bilan almashadi. Ushbu ariya operaning lirik cho'qqilaridan biridir.

Olishuv sahnasi "Враги" ("Душманлар") dueti bilan boshlanadi, u kanon shaklida tuzilgan: Onegin kuyi Lenskiy partiyasini takrorlaydi, umumiy qayg'u, afsus tuyg'usini ifodalaydi va muqarrar fojidan darak beradi:

O'rtacha tez

Ири - ти! Да - но ли дру - го? ду - га нас жаж - да ду - ни от - ве - ди?

Да - но ли мы ча - сы до - су - га, пра - не - ю, да? Да - но ли мы ча - сы до - су - га, пра -


и ма - ли, и де - ли де - ли - ли ду - ж - но! де - ю и ма - ли, и де - ли де - ли - ли ду - ж - но!

Do-diyez minorning dominantasida bir tekisda takrorlanuvchi litavralar zarbi musiqaga zulmatli dovdirash xarakterini beradi. Keyin orkestrda, esdalik kabi, Lenskiy muhabbatining o'zgartirilgan navzusi o'tadi; musiqaning intiluvchan tezlashuvchi harakati kamaytirilgan septakkord va litavralar tremolosi yordamida ifodalangan o'q otish bilan uzilib qoladi. Lenskiyning o'limi oldidan ijro etilgan ariya mavzusining fojiviy tarzda orkestrda o'tkazilishi qahramon bilan vidolashuv sifatida ko'rinishni yakunlaydi.

Oltinchi ko'rinish ajoyib parad polonezi bilan boshlanadi. Oneginning "И здесь мне скучно" ("Bu yerda ham zerikaman") monologi voqealarning keyingi rivojiga olib kiradi.

Balda Tatyanning paydo bo'lishi osoyishta va olijanob rebemol major valse bilan kuzatib boriladi, vals ayolning – xushmuomala, vazmin va ulug'vor, nafosatli knyagina Greminaning yangi siymosini yaratadi:

O'rtacha tez



Gremi ariyasi (bas) Tatyana uchbu tavsifini to'ldiradi va shu bilan birga knyazning olijanob obrazini tasvirlaydi:

131

Shushlmasdan, vazmin

Ду-ш не рас-тает на-м в ду-ш-ти
 и - е-ще не-рас-тает на-м в ду-ш-ти
 и ко-гда не-рас-тает на-м в ду-ш-ти
 не-те-лет, е-ще не-те-лет на-м в ду-ш-ти
 и не-ко-гда не-те-лет на-м в ду-ш-ти
 до-во-ди-ли-мы

Oneginni Tatyana bilan tanishtirish vaqtida orkestrda Tatyana muhabbati mavzusi qizg'in va hayajonli sadolanadi.

Oneginning "Увы, сомненья нет" ("Afsus, shubha yo'q") ariozosida uning obrazi qat'iy o'zgaradi; uning qalbida Tatyana nisbatan ehtirosli muhabbat paydo bo'ladi. Uning musiqali nutqi qizg'in bo'lib, keskinlashadi va Tatyana "Пусть погибну я" ariyasi mavzusiga tuziladi:

132

O'rtacha tez

У-вы, о-т нас-то-го
 ко-гда-то
 ко-гда-то, ко-гда-то, ко-гда-то
 ко-гда-то, ко-гда-то, ко-гда-то

Yettinchi ko'rinish – operaning ikkinchi dramatik kulminatsiyasi. Orkestr muqaddimasidagi mungli mavzu Tatyana uchbu qayg'uli o'ylarini ifodalaydi. Onegin maktubini o'qiyotgan Tatyana monologi vaqtida orkestrda, yoshlik davrni eslash sifatida uning qizlik orzu-xayollari mavzusi o'tadi. Tatyana uchbu xayol surishini Oneginning shiddat bilan paydo bo'lishi bo'lib qo'yadi. Ularning sahna-dialogi – qahramonlarning bir-biriga ziddiyatli tuyg'ularga to'lgan oxirgi dil izhori; bu yerda ular tuyg'ularining murakkab kurashi, baxtga sari intilish va unga yeta olmaslik muqarrarligi aks

ettirilgan. Ariozi lavhalar – Tatyana va Onegin soʻzlari – bir-birini almashtiradi. Sahna musiqiy rivojlanishida “Счастье было так возможно, так близко” (“Baxtga yetish imkoniyati shunchalar yaqin edi”) duet-elegiyasi qisqa ifodali toʻxtash boʻlib, uning lirik kuyi Tatyana va Lenskiy mavzulariga yaqin.

Oneginning Tatyanaqa qarata yolborish va ehtirosga toʻla “О не гони! Меня ты любишь” (“О, quvma! Meni sevasan”) oxirgi murojaati mi minor – Lenskiy tonalligida sadolanadi, u qahramonlar tuygʻusi va taqdir fojiasining muqarrarligini taʼkidlagan holda operani yakunlaydi.

Chaykovskiy musiqasining barhayotligi va goʻzalligi haqida XX asrdayoq D.D.Shostakovich shunday ajoyib soʻzlarni aytgan edi: “XIX asrning oxiri yoki XX asrning birinchi yarmida oʻz ijodining u yoki bu tomoni bilan Pyotr Ilyich Chaykovskiyga bogʻliq boʻlmagan birorta ham rus kompozitori yoʻq... A.Pushkin kabi u rus milliy ongining tub-tubigacha kirib bordi”.

Savol va topshiriqlar

1. Nima uchun opera P.I.Chaykovskiyning sevimli janri boʻlgan? Qanday sujetlar kompozitorni oʻziga tortdi?

2. “Yevgeniy Onegin” operasining yaratilish tarixini soʻzlab bering.

3. Opera qaysi janrda yozilgan? Uning mavzusi qanday?

4. Operaning koʻrinishlari boʻyicha mazmunini aytib bering.

5. Bosh qahramonlar toʻgʻrisida soʻzlab bering; ular musiqada qanday tavsiflangan?

6. Opera musiqiy tilining xususiyatlari nimalardan iborat? Asardagi musiqiy obrazlarning intonatsiya aloqalari haqida gapirib bering.

ASOSIY ASARLARI

10 ta opera: "Voyevoda", "Undina", "Oprichnik", "Temirchi Vakula" (keyinchalik "Cherevichki" ("Ayollar etigi") nomi bilan qayta ishlangan), "Yevgeniy Onegin", "Orlean qizi", "Mazepa", "Charodeyka" ("Sehrgar"), "Pikovaya dama", "Iolanta".

3 ta balet: "Oqqush ko'li", "Uyqudagi go'zal", "Shelkunchik" (Yong'oq chaqa oladigan qo'g'irchoq).

Simfonik asarlar: 6 ta simfoniya, "Manfred" simfoniyasi, "Fatum" ("Tole"), "Bo'ron", "Francheska da Rimini" fantaziyalari; "Romeo va Julyetta" va "Gamlet" uvertyura-fantaziyalari, Italyancha kaprichchio, "1812-yil" tantanali uvertyura, 4 ta simfonik syuitalar, Torli orkestr uchun serenada, fortepiano va orkestr uchun 3 ta konsert, skripka va orkestr uchun konsert, Vilonchel va orkestr uchun rokoko mavzusiga variatsiyalar.

Kamer-cholg'u asarlari: 3 ta torli kvartet, "Buyuk san'atkor xotirasiga" fortepiano triosi, "Florensiya haqida esdaliklar" torli sekstet va boshqalar.

Fortepiano asarlari: 2 ta sonata, Mavzu asosida variatsiyalar, "Yil fasllari" va "Bolalar albomi" turkumlari, alohida pyesalar.

Vokal asarlari: 100 dan ortiq romanslar va boshqa asarlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- В. Владимиров., А. Лагутин. Музыкальная литература. М.: Изд. “Музыка” – 1971.
- И. Прохорова. Музыкальная литература зарубежных стран. М.: Изд. “Музыка” – 1986.
- В. Галацкая. Музыкальная литература зарубежных стран. 1-выпуск. М.: Изд. “Музыка” – 2002.
- Г. Жданова, И. Молчанова, И. Охалова. Музыкальная литература зарубежных стран. 2-выпуск. М.: Изд. “Музыка” – 2002.
- В. Галацкая. Музыкальная литература зарубежных стран. 3-выпуск. М.: Изд. “Музыка” – 2004.
- М.Шорникова. Музыкальная литература. Музыка ее формы и жанры. Ростов-на-Дону, “Феникс” – 2013.
- М.Шорникова. Музыкальная литература. Развитие Западно-европейской музыки. Ростов-на-Дону, “Феникс” – 2013.

MUNDARIJA

Tuzuvchidan	3
XVIII va XIX asr birinchi yarmida rus musiqasi	5
Fomin	6
Bortnyanskiy	8
Xundoshkin	9
Qo'shiq va romans	10
Alyabyev	10
Varlamov	13
Gurilyov	14
M.I.Glinka	17
Hayot yo'li	17
" Ivan Susanin "	25
Orkestr uchun asarlar	35
Romanslar va qo'shiqlar	39
A.S.Dargomijskiy.	44
Hayot yo'li	44
" Suv parisi "	51
Romanslar va qo'shiqlar	61
XIX asr birinchi yarmida rus musiqasi	65
M.P.Musorgskiy	71
Hayot yo'li	71
" Boris Godunov "	78
Qo'shiqlar va romanslar	90
A.P.Borodin	98
Hayot yo'li	99
" Knyaz Igor "	108
Ikkinchi simfoniya	122
N.A.Rimskiy-Korsakov	128
Hayot yo'li	129
" Qorqiz "	141
" Shahrizoda "	156
P.I.Chaykovskiy	166
Hayot yo'li	167
" Qish orzulari " Birinchi simfoniyasi	175
" Yevgeniy Onegin "	180
Foydalanilgan adabiyotlar.	200

O'quv adabiyoti

Tuzuvchi va tarjimon

N.Sharipov

Maxsus muharrir

M.Abrorova

XORIJIY MUSIQA ADABIYOTI

II kitob

*Bolalar musiqa va san'at maktablari uchun
o'quv qo'llanma*

Bosishga ruxsat etildi 04.08.2014 y. Ofset usulida chop etildi.

Ofset qog'oz. Bichimi 60x84 1/16. Nashr tabog'i 12,7.

Adadi 3000 nusxa. Buyurtma № 2004.

MChJ "REN-Poligraf" bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent sh., Muqimiy ko'chasi, 178.

